



2024
№ 2

ISSN 3030-380X

**TA'LIMDA
ISTIQBOLLI
IZLANISHLAR**

XALQARO ILMIY METODIK JURNAL

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC METHODOLOGICAL JOURNAL

TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ

Международный научно-методический журнал

PROMISING RESEARCH IN EDUCATION

International Scientific Methodological Journal

**Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot
va axborot boshqarmasi tomonidan 2024-yil 26-mart № 245685 -sonli
guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.**

**Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi tomonidan davriy
nashrlar uchun ISSN 3030-380 X raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.**

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
Elektron manzil: buxdu_rektor@buxdu_uz

BOSH MUHARRIR:

XAMIDOV OBIDJON XAFIZOVICH

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- Кулишев В.В** - pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina)
- Andriyenko Y.V** - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk, Rossiya)
- Romm T.A** - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk, Rossiya)
- Maskimsev I. A** - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Sankt-Peterburg, Rossiya)
- Margianti E.S** - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)
- Jumayev R.G'** - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
- Rasulov T.H** - Fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
- Paxrutdinov Sh.I.** - siyosiy fanlar doktori, professor
- Jo'rayev A.T** - iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
- Yavmutov D.Sh.** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
- Salixov S.A** - iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
- Nazarov A.M.** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
- Usmanova M.N.** - psixologiya fanlari nomzodi, professor
- Ostanov Sh.Sh.** - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
- Rustamov Sh.Sh.** - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
- Mamanazarova N.K.** - Pedagogika fanlari doktori, DSc, dotsent
- Dilova N.G.** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
- Olimov Sh.Sh.** - pedagogika fanlari doktori, professor
- Xamroyev A.R-** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
- Zaripov L.R** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
- Rajabov D.Z.** - filologiya fanlari doktori, professor
- Sayfullayeva N.Z** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
- Mas'ul kotib:**
- Tilavov Muxtor Hasan o'g'li** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
- Texnik muharrir:** Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li

Nazarov Akmal Mardonovich

Buxoro davlat universiteti
Psixologiya va sotsiologiya kafedrasini mudiri,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

YOSHLARDA ILMY VA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish psixologik mexanizmlari hamda yoshlarning ilmiy va innovatsion faoliyatini rivojlantirishning psixologik usullari to'g'risida ilmiy-amaliy hamda tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek ilmiy va innovatsion faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy ishlanma va innovatsion faoliyat natijalarini ishlab chiqishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mexanizm, individual, komponent, adekvat, malaka, adaptatsiya, qobiliyat, psixoanalitik, fenomen, strategiya, stress, emotsiya, kognitiv, hissiy, xulq-atvor, adaptiv, ekstremal, psixoterapiya, stereotip, patologik, agressiya, rehabilitatsiya, psixokorreksiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ НАУЧНО- ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У МОЛОДЁЖИ

Аннотация. В данной статье представлена научно-практическая и аналитическая информация о психологических механизмах развития научной и инновационной деятельности молодёжи, а также о психологических методах развития научно-инновационной деятельности молодёжи. Также разработаны практические рекомендации по совершенствованию механизмов научно-инновационной деятельности, разработке результатов научных разработок и инновационной деятельности.

Ключевые слова: механизм, индивидуальный, компонентный, адекватный, компетентность, адаптация, способность, психоаналитический, феномен, стратегия, стресс, эмоция, когнитивный, эмоциональный, поведенческий, адаптивный, экстремальный, психотерапия, стереотип, патологический, агрессия, реабилитация, психокоррекция.

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE ACTIVITIES IN YOUNG PEOPLE

Abstract. This article provides scientific and practical and analytical information on the psychological mechanisms of the development of scientific and innovative activities in young people and on the psychological methods of the development of scientific and innovative activities of young people. Also developed practical recommendations for improving the mechanisms of scientific and innovative activities, developing scientific development and results of innovative activities.

Key words: mechanism, individual, component, adequate, competence, adaptation, ability, psychoanalysis, phenomenon, strategy, stress, emotion, cognitive, emotional, behavioral, adaptive, extreme, psychotherapy, stereotype, pathological, aggression, rehabilitation, psychocorrection.

Kirish. Bugungi kunda barcha sohalarda ilmiy va innovatsion faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy ishlanma va innovatsion faoliyat natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, tadqiqotlarning samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish alohida etibor berilmoqda. Bu borada barcha sohalarda jumladan, oliy ta'lim muassalarida ham ilmiy va innovatsion faoliyatni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar

tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda yoshlarni ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishga doir empirik tadqiqotlar olib boorish davrning o'zi taqozo etmoqda.

Dunyoda aynan intellektual mulk sohasida bilan shug'ullanuvchi Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) hamda Kornell universiteti va Xalqaro biznes maktabi (INSEAD) bilan hamkorlikda chop etiladigan "Global innovatsiyalar indeksi" (GII) jurnalining hisobotida jahon davlatlarining ilmiy yutuqlari, innovatsion salohiyati, innovatsion ko'rsatkichlari bo'yicha yillik reytingi e'lon qilinib borilmoqda. Shunga muvofiq tarzda O'zbekiston Respublikasini "Global innovatsion indeks" (GII) reytingida 2026 yilgacha 30 pog'onaga ko'tarish vazifasi belgilangan. Butunjahon intellektual mulk tashkilotning (WIPO) yillik reyting natijalarida O'zbekiston 81 ta indikator bo'yicha baholanadigan Global innovatsion indeksi reytingida 2015-yilga nisbatan 36 ta pog'onaga ko'tarilganligini alohida e'tirof etish mumkin.

Yurtimizda ayniqsa, yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga yo'naltirish bo'yicha bir qancha samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, bu borada ilmiy, ijodiy va innovatsiya sohasiga taaluqli huquqiy normativ hujjatlar qabul qilinganligi bu sohaga alohida e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan. Farmonga asosan innovatsiya va ilm-fan sohasiga Davlat budjetidan ajratiladigan yillik mablag'lar hajmi 2018-yilga nisbatan 3 baravarga oshirildi va yana 1,5 trillion so'mga yetkazilgan; 2018-yildan boshlab har yili o'tkazilayotgan Xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi — "Innoweek.uz" xorijiy innovatsion va ilmiy markazlar, investitsion fondlar, texnologik agentliklar, texnoparklar va biznes-inkubatorlarni bir maqsad yo'lida jamlovchi innovatsion haftaliklar tashkil qilinmoqda. Bu haftaliklar ilmiy-innovatsion oylarga innovatsion yillarga aylanib bormoqda.

Ilmiy va innovatsion faoliyat insoniyat madaniyatining bir qismi bo'lib, jamiyat taraqqiyotining eng muhim yo'li sifatida qabul qilingan bo'lib, bu insonlarning tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatlari, ularning ehtiyojlari, qiziqishlari hamda maqsadlarini amalga oshirishda o'ziga xos shaxs faoliyatining noyob shaklidir. Zamonaviy dunyo jamiyati va ilmiy-innovatsiyalarni axborotlashtirish jarayonida bunday faoliyat mamlakatning eng muhim strategik maqsadlarini hal qiladigan ilmiy loyihalarni joriy etish bo'yicha yangi g'oya va ishlanmalarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatini rivojlantirish, ularni ushbu sohaga yo'naltirish dolzarb muammolardan sanaladi. Ushbu muammolarga yechim topish maqsadida shaxsning mavjud imkoniyatlari, individual xususiyatlarini va kreativ, kognitiv jarayonlarini empirik o'rganish natijasida amalga oshirish mumkin.

Innovatsiya har qanday jarayonga yangi tashkiliy uslub kiritish hisoblanadi.

"Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da qayd etilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: "Innovatsiya (ingl. "innovationas" – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi" deb izoh berilgan.

Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki, mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qaraladi. Keng tarqalgan yangilish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi, innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi quyidagi tushunchalar bilan izohlanadi:

Ilm-fan – bu ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish jarayoni hisoblanadi. Innovatsiyalar – bu bilimlar va g'oyalarni mablag'larga aylantirishdir.

Ixtiro – bu yangi konsepsiyalarni yaratishdan iborat.

Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini alohida ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Yangilik - bu intellektual faoliyat natijasi bo'lib, bu yangi strategiya, biznesning yangi modeli, yangi tashkiliy tuzilma, yangi marketing usuli, yangi jarayon, yangi texnologiya, yangi mahsulot yoki ularning ma'lum birikmasidan tashkil topgan murakkab jarayonlar yig'indisi hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat - to'plangan bilim, texnologiya va uskunalarni tijoratlashtirishga qaratilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat tadbirlar majmui sanaladi.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iborat bo'lib, innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining asoslarini o'rganish oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonini zamonaviy psixologiya hamda pedagogika fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, bugunning yoshlari birinchidan o'ziga ishonchi bo'lsa, o'zini o'zi qadrlash darajasi yuqori bo'lsagina, ikkinchidan, esa o'z faoliyatini o'zining harakatlari natijasida rivojlantirsa, ayniqsa, ular muvaffaqiyatsizlikka uchraganda, o'zini past baholaganda, salbiy emotsional holatlarni his qilganda yaqqol sezilar ekan. Bunday ikki toifadagi yoshlar o'ziga xos tarzda o'zini o'zi anglash yo'llari, usullari va shakllarini qidiradi.

Mashhur yozuvchi R.Berne ta'kidlaganidek, "Bizning baxtsizliklarimizning siri shundaki, bizning baxtli yoki baxtsizligimizni o'ylash uchun juda ko'p bo'sh vaqt bor" deb yozgan edi.

Yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga yo'naltirish jarayonining psixologik shartlari quyidagilardan iborat:

- ilmiy va innovatsiya asoslarini o'rganish jarayonini faollashtirish;
- yoshlarda ilmiy va innovatsion faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirishning zamonaviy hamda yangi usullarini izlash;
- o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglash jarayonini takomillashtirish.

Amerikalik mashhur psixolog N.Rodgers o'z tadqiqotlarida munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, shaxslararo munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorgarlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy-psixologik munosabatlarning tasnifi masalalari o'rganilgan.

Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik olimlardan biri K.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etgan.

Rus psixologi V.A.Petrovskiyning olib borgan tadqiqotlarida yoshlarda faoliyat davomida kutilmagan noodatiy, moslashmagan holatlar borligini aniqlagan. Bu esa hayotiy muammolarni anglash va hal qilishning yangi bosqichiga olib chiqishi hamda ijodkorlik, kognitiv jarayonlarning faol shaklida namoyon bo'ladi – deb ta'riflaydi.

Aksariyat hollarda shaxslararo munosabatlar ilmiy va innovatsion faoliyatning asosi sifatida qaraladi. Ya'ni yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga yo'naltirishda ularning ijtimoiy muhiti ham ma'lum bir darajada ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion ijtimoiy texnologiyalar - bu innovatsion faoliyat usullari, jamiyatda innovatsiyalarni yaratish va moddiylashtirishga, ijtimoiy hayotning turli sohalarida sifat o'zgarishlariga hissa qo'shadigan, jamiyatdagi moddiy va boshqa resurslardan maqsadga muvofiq foydalanishga olib keladigan tashabbuslarni amalga oshirishga qaratilgan usullardir. Alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy sohadagi innovatsiyalarning asosiy maqsadi zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik muammolarini hal qilishdir. Ijtimoiy munosabatlardagi

innovatsion faoliyat aholining ijtimoiy muammolarini hal qilishning yangi, yanada samarali va arzon usullarini topish zarurati bilan bog'liq.

Taniqli olimlar F.Budzinski va L.Shols tadqiqotlarida innovatsion faoliyatni quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Tadqiqot. Ushbu bosqichda innovatsion faoliyat jarayonida hal qilinishi kerak bo'lgan ustuvor muammolar aniqlanadi, ma'lum bir yechimlar tahlil qilinadi, muammolarni hal qilishning samarali usullarini ishlab chiqiladi. Eng istiqbolli innovatsion g'oyalarni izlash va tanlash, shuningdek, ularning hayotiyligini baholash amalga oshiriladi.

2. Rivojlantirish. Yoshlar o'zining innovatsion g'oyalarini, loyiha yoki modelini yaratishga harakat qiladi. Ushbu bosqichda texnologiya yoki dastur batafsil ishlab chiqiladi, so'ngra mutaxassis uning samaradorligi, asosliligi va moslashuvchanligini baholash uchun tegishli soha vakillariga murojaat qiladi.

3. Joriylanish. Innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayoni innovatsiyalarni sinovdan o'tkazishni anglatadi, ya'ni, uni qisqa vaqt ichida bitta obyektga amalga oshirish tushuniladi. Turli sohalarda innovatsiyalarni sinovdan o'tkazish maqsadli ravishda yangi tajriba yoki qidiruv faoliyatini yaratishni o'z ichiga olgan uyushgan eksperiment sifatida amalga oshiriladi.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro) ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va boshqa ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Mazmun-mohiyatiga ko'ra, innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, subyektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi. Xususiy yangilik munosabat, obyekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi. Subyektiv yangilik ma'lum obyektning o'zini yangilash zaruriyatini ifodalaydi. Mahalliy yangilik alohida olingan obyekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi. Shartli yangilik esa munosabat, obyekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, yoshlarda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun ularda zarur bilim, ko'nikma va malakalar rivojlantirish, emotsional jihatdan barqarorlik, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining ustunligi, hissiy-irodaviy sifatning yetarli darajada shakllanganligi ta'sir qilishi aniqlandi. Shuningdek, ilmiy-innovatsion faoliyatning rivojlanishida kasbiy yetuklik va turli xildagi muammolarni hal qilish muvaffaqiyatini belgilaydigan motivatsion, kognitiv, operativ, maqsadga yo'nalganlik, mustaqil fikrlash, va kommunikativ omillardan iborat ekanligi asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022 - 2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiya qilish tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ – 3899 son Qarori. 8 avgust, 2018 yil.
3. Берне Р. Развитие "Я – концепции" и воспитание: Пер. С англ. - М., 1986.
4. Петровский А.В. Личность. Деятельность. Коллектив. - М.: Знание, 1982. - 255 с.
5. Роджерс К.Р. // Клиент-центрированная психотерапия. - М.: Апрель Пресс, Издательство ЭКСМО-Пресс, 2002.
6. Бойко В.В. Синдром "Эмоциональное выгорание" в профессиональном общении. Монография. - СПб.: Питер, 1999. - 105 с.
7. Nazarov A.M. talabalar ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik barqarorligi: Psixol.f.d. dissertatsiyasi: –Т.: TDPU. 2022 y. – 229 b.

Ahmedov Farhod Furqatovich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

ICHKI ISHLAR XODIMLARIDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIK MUAMMOSI

Annotatsiya. Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentsiyasini shakllantirish, ularning kasbiy rivojlanishi, jamiyatda qonun va qoidalarni saqlash samaradorligining muhim jihati yoritib berilgan Bundan tashqari maqola ichki ishlar xodimlarining ijtimoiy va psixologik kompetentsiyasining ahamiyatini o'rganilgan va bu ularning turli xil aholi qatlamlari bilan samarali muloqot qilish, potentsial o'zgaruvchan vaziyatlarni bartaraf etish va yuqori stressli ish vaziyatlarda o'zlarining ruhiy farovonligini saqlab qolish qobiliyatiga ta'sirini haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar:. ehtiyoj, faoliyat, metod, konsepsiya, kompetensiya, qobiliyat, bilim, ko'nikma, hissiy aql, muloqot, empatiya, stereotip.

ПРОБЛЕМА СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация. В статье освещается важный аспект формирования социально-психологической компетентности сотрудников органов внутренних дел, их профессионального развития, эффективности соблюдения правопорядка в обществе. Кроме того, в статье исследуется значение социально-психологической компетентности сотрудников органов внутренних дел, которая заключается в их способности эффективно общаться с различными слоями населения, преодолевать потенциально изменяющиеся ситуации и повышать свою психическую работоспособность в стрессовых рабочих ситуациях. Речь идёт о влиянии на способность поддерживать хорошее самочувствие.

Ключевые слова: потребность, деятельность, метод, концепция, компетенция, способности, знания, навыки, эмоциональный интеллект, общение, сочувствие, стереотип.

THE PROBLEM OF SOCIAL-PSYCHOLOGICAL COMPETENCE IN INTERNAL AFFAIRS PERSONNEL

Abstract. The article highlights an important aspect of the formation of socio-psychological competence of internal affairs officers, their professional development, and the effectiveness of law and order in society. In addition, the article explores the importance of socio-psychological competence of internal affairs officers, which consists in their ability to communicate effectively with different segments of the population, to overcome potentially changing situations and to increase their mental performance in stressful work situations. It is about influencing the ability to maintain well-being.

Key words: need, activity, method, concept, competence, ability, knowledge, skill, emotional intelligence, communication, empathy, stereotype.

Kirish. Ichki ishlar organlari xodimlarida ijtimoiy-psixologik kompetentsiyani shakllantirish, ularning jamiyatda o'z burch va majburiyatlarini samarali bajarishi hal qiluvchi omildir. Huquq va tartibni saqlash uchun masul bo'lgan shaxslar sifatida ichki ishlar xodimlari turli xil ijtimoiy munosabatlarni boshqarish, potentsial o'zgaruvchan vaziyatlarni bartaraf etish va yuqori stressli muhitda o'zlarining ruhiy barqarorligini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan

ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishlari juda muhimdir. Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy va psixologik kompetentsiyasini rivojlantirish nafaqat ularning kasbiy samaradorligi, balki ular xizmat qilayotgan jamoalarning umumiy xavfsizligi, farovonligi uchun ham muhimdir. Ushbu vakolatlarni rivojlantirishga ko'maklashish orqali ichki ishlar xodimlari o'zlari duch keladigan shaxslarni yaxshiroq tushunishlari va ular bilan yaxshi munosabat o'rnatishlari mumkin, bu esa yanada ijobiy va samarali o'zaro munosabatlarga olib keladi.

Bundan tashqari, keskin vaziyatlarni bartaraf etish va ruhiy farovonlikni saqlash qobiliyati keraksiz nizolarning oldini olish va jamoat a'zolarining xavfsizligini ta'minlash uchun juda muhimdir. Ichki ishlar organlari xodimlarida ijtimoiy va psixologik kompetentsiyani shakllantirishga ko'maklashish uchun kompleks o'quv dasturlarini amalga oshirish, qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini tashkil etish va doimiy ravishda malaka oshirish imkoniyatlarini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu tashabbuslar xodimlarga murakkab ijtimoiy dinamikani va qiyin vaziyatlarni samarali boshqarish uchun zarur ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishga yordam beradi, shu bilan birga ularni ruhiy farovonligini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan yordam va resurslar bilan ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy dunyoda har bir inson tinch, osoyishda muhit bo'lgan jamiyatda istiqomat qilishni xohlashi tabiiy hol hisoblanadi. Bu borada albatta har bir jamiyat uchun tinchlikni ta'minlashda ichki ishlar xodimlarining o'rni ajralmas hisoblanadi. Albatta, ularning malakasi va hayot tajribasi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tir xil nizoli holatlarni oldini olishga va butunlay bartaraf etishda asosiy rol o'ynaydi. Turli rus (Vladimir Petrovich Zinchenko, Yury Alexandrovich Zinchenko Irina Vladimirovna Kuznetsova) va garb psixologlari (Albert Bandura, Daniel Goleman, John Gottman) o'zlarining tadqiqotlari orqali ichki ishlar xodimlarining kompetentligi ularda ehtimoliy yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixologik o'zgarishlarini o'z tadqiqotlarida o'rganganlar va bir qancha takliflarni berib o'tganlar. Jumladan rus psixologi Vladimir Petrovich Zinchenko - ijtimoiy va tashkiliy psixologiya sohasidagi faoliyati bilan tanilgan taniqli rus psixologi. U huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining ijtimoiy va psixologik kompetentsiyasini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib bordi, bunda hissiy aql, muloqot qobiliyatlari va nizolarni hal qilish qobiliyatlari samarali va axloqiy politsiya amaliyotini saqlashda muhimligini ta'kidladi.

Yuriy Aleksandrovich Zinchenko ichki ishlar xodimlarining psixologik tayyorgarligi va malakasini oshirishga e'tibor qaratgan yana bir taniqli rus psixologidir. Uning tadqiqotida huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida psixologik chidamlilik, stressni boshqarish va axloqiy qarorlar qabul qilishning o'rni ko'rsatilgan, kasbning ham ijtimoiy, ham psixologik jihatlarni qamrab oluvchi kompleks o'quv dasturlari zarurligini ta'kidlagan.

Irina Vladimirovna Kuznetsova rossiyalik psixolog bo'lib, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarida ijtimoiy-psixologik kompetentsiyani shakllantirishni gender nuqtai nazaridan o'rgangan. Uning tadqiqoti huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlarning erkaklar ustunlik qiladigan madaniyatida samarali muloqot qilish, yetakchilik va nizolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda ayol zobitlar duch keladigan noyob muammolarni aytib o'tgan. Bundan tashqari Daniel Golemanning hissiy intellektga oid ishi samarali bo'lib ijtimoiy va psixologik kompetentsiyani rivojlantirishda o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi boshqarish, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari o'zlarining va boshqalarning his-tuyg'ularini yaxshiroq tushunish uchun ushbu tamoyillarni qo'llashlari mumkin, bu esa o'zaro munosabatlarni yaxshilashga va nizolarni hal qilishga olib keladi.

Syuzan Fiskening ijtimoiy bilish haqidagi tadqiqotlari ijtimoiy o'zaro munosabatlarni shakllantirishda stereotiplar, noto'g'ri qarashlar va ijtimoiy kategoriyalashtirishning rolini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari ushbu kognitiv jarayonlarni tushunishdan turli xil ijtimoiy dinamikani boshqarish va o'z jamoalari ichida ijobiy o'zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun foyda olishlari mumkin.

Jon Gottmanning shaxslararo munosabatlar va nizolarni hal etish bo'yicha ishi ijtimoiy o'zaro munosabatlar dinamikasi va keskin vaziyatlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar haqida qimmatli tushunchalar beradi. Ichki ishlar xodimlari ushbu tamoyillarni mojarolarni samarali boshqarish va jamoa a'zolari bilan ijobiy munosabatlarni saqlab qolish uchun qo'llashlari mumkin.

Martin Seligmanning ijobiy psixologiya bo'yicha tadqiqotlari ruhiy salomatlik va psixologik kompetensiyani rivojlantirishda chidamlilik, optimizm va farovonlikning muhimligini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari yuqori stressli muhitlarni engish va ruhiy farovonligini saqlab qolish uchun ushbu fazilatlarini rivojlantirishdan foyda olishlari mumkin.

Karen Xornining shaxslararo munosabatlar va nevrozlar haqidagi nazariyalari ijtimoiy va madaniy omillarning shaxsning psixologik farovonligiga ta'sirini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari ushbu dinamikani tushunishdan turli kelib chiqishi bo'lgan shaxslar bilan yaxshiroq aloqa qilish va ijobiy ijtimoiy o'zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun foyda olishlari mumkin.

Karl Rojersning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvi samarali muloqot va munosabatlarni o'rnatishda empatiya, samimiylik va so'zsiz ijobiy e'tibor muhimligini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari hamjamiyat a'zolari bilan ishonch va munosabatlarni o'rnatish uchun ushbu tamoyillarni qo'llashlari mumkin, bu esa yanada ijobiy o'zaro munosabatlarga olib keladi.

Kurt Levinning maydon nazariyasi ijtimoiy va atrof-muhit omillarining shaxslarning xulq-atvori va psixologik farovonligiga ta'sirini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari murakkab ijtimoiy vaziyatlarni samarali boshqarish va o'z jamoalarida ijobiy natijalarga erishish uchun ushbu dinamikani tushunishdan foyda olishlari mumkin.

Elizabet Loftusning xotira va guvohlarning guvohliklari bo'yicha tadqiqotlari inson xotirasining noto'g'riligini va ijtimoiy ta'sirlarning shaxslarning voqealarni eslab qolishiga ta'sirini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari ziddiyatli vaziyatlarda turli nuqtai nazarlarni to'g'ri baholash va ularga javob berish uchun ushbu kognitiv jarayonlarni tushunishdan foyda olishlari mumkin.

F.Skinnerning bixevioristik yondashuvi individlarning xulq-atvorini shakllantirishda kuchaytirish va jazolashning rolini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari ushbu tamoyillarni ijobiy ijtimoiy o'zaro munosabatlarni rivojlantirish va tegishli mustahkamlash strategiyalari orqali qiyin vaziyatlarni samarali boshqarish uchun qo'llashlari mumkin.

Muhokama. Ushbu psixolog olimlar tadqiqotlarining muhim natijalardan biri bu kasbdagi ijtimoiy va psixologik kompetensiyaning ko'p qirrali xususiyatini tan olishdir. Psixologlar samarali va axloqiy politsiya amaliyotini qo'llab-quvvatlashda hissiy intellekt, muloqot qobiliyatlari, nizolarni hal qilish qobiliyatlari, psixologik chidamlilik, stressni boshqarish va axloqiy qarorlar qabul qilish muhimligini ta'kidladilar. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, kompetensiyaning ushbu turli jihatlarini hal qilish uchun o'qitishga kompleks yondashuv zarur, chunki ularning barchasi huquqni muhofaza qilish rollarida muvaffaqiyatli ishlash uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, psixologlarning ishi ichki ishlar xodimlari duch keladigan o'ziga xos muammolarni, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlarda gender dinamikasi kontekstida yoritib berdi. Irina Vladimirovna Kuznetsovaning tadqiqotlari, ayniqsa, erkaklar ustunlik qiladigan madaniyatda samarali muloqot qilish, etakchilik va nizolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda ayol ofitserlar duch keladigan o'ziga xos ehtiyoj va muammolarni hal qilish zarurligini ta'kidladi. Ushbu topilma huquqni muhofaza qilish organlarida ishlaydigan shaxslarning turli tajribalari va istiqbollarni hisobga olgan holda moslashtirilgan o'quv dasturlari muhimligini ta'kidlaydi. Qo'shimcha ravishda bir qancha ijtimoiy-psixologik konsepsiyalar ichki ishlar xodimlaridagi shakllanadigan kompetensiyani rivojlantiradi va mustahkamlaydi. Ular

1. Boshqalarning nuqtai nazari va his-tuyg'ularini faol tinglash orqali xodimlar o'z hamkasblari va jamiyat a'zolarining ehtiyojlari va tashvishlarini yaxshiroq tushunishlari mumkin, bu esa nizolarni yanada samarali hal qilish va muloqotga olib keladi.

2. O'z-o'zini anglash ichki ishlar xodimlari uchun o'zlarining his-tuyg'ulari va reaksiyalarini, ayniqsa yuqori bosim yoki sezgir vaziyatlarda tan olish va boshqarish uchun juda muhimdir. O'z-o'zini anglashni rivojlantirish xodimlarga psixologik barqarorlikni saqlashga va stressni samarali boshqarishga yordam beradi.

3. Ichki ishlar jamoasida empatiyani rivojlantirish boshqalarning tajribasi va his-tuyg'ularini tushunish va ular bilan bog'lanish uchun juda muhimdir. Bu, ayniqsa, hamdardlik hamkasblar va hamjamiyat a'zolari bilan ishonch va munosabatlarni o'rnatishga yordam beradigan nozik va katta xavf tug'diradigan vaziyatlarda muhimdir.

4. Samarali muloqot ko'nikmalari, jumladan, og'zaki bo'lmagan signallar va tana tili, xabarlarni aniq etkazish va ichki ishlar jamoasida o'zaro munosabatlarni o'rnatish uchun juda muhimdir. Aniq va samarali muloqot tushunmovchiliklarning oldini olishga va ijobiy ish muhitini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Dadillikni rivojlantirish ichki ishlar xodimlari o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini ishonchli va hurmat bilan ifoda etishlari uchun muhimdir. Bu axloqiy qarorlar qabul qilish va jamoada professional chegaralarni saqlash uchun juda muhimdir.

6. Ehtiyotkorlik va stressni boshqarish usullarini mashq qilish ichki ishlar xodimlariga qiyin yoki yuqori bosimli vaziyatlarda asosli va diqqatini jamlashga yordam beradi. Bu jamoada umumiy farovonlik va ish samaradorligiga hissa qo'shishi mumkin.

7. Ichki ishlar jamoasida hissiy intellektni shakllantirish o'zida va boshqalarda his-tuyg'ularni tan olish va tartibga solish uchun juda muhimdir. Bu hamkasblar va hamjamiyat a'zolari bilan ishonch va munosabatlarni o'rnatish, natijada ijobiy ish muhitiga hissa qo'shish uchun juda muhimdir.

8. Mojarolarni hal qilish ko'nikmalari shaxslararo nizolar va ichki ishlar jamoasi ichidagi kelishmovchiliklarni konstruktiv va hurmat bilan hal qilish uchun zarurdir. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish orqali xodimlar jamoada ijobiy munosabatlar va hamkorlikni saqlab qolishlari mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar xodimlarida ijtimoiy va psixologik kompetentsiyani shakllantirish ijobiy ish muhitini, samarali muloqotni va axloqiy qarorlar qabul qilishni rag'batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Faol tinglash, o'z-o'zini anglashni rivojlantirish, hamdardlikni rivojlantirish, muloqot va nizolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali xodimlar ishonchni mustahkamlashlari, ijobiy munosabatlarni saqlab qolishlari va professionallik va qat'iyatlilik bilan qiyin vaziyatlarda harakat qilishlari mumkin. Bundan tashqari, aql-idrok va stressni boshqarish, o'sish tafakkurini rivojlantirish, jamoada hamjamiyat va qo'llab-quvvatlash tuyg'usini yaratish doimiy professional o'sishga va jamoaning umumiy samaradorligiga hissa qo'shishi mumkin. Umuman olganda, ichki ishlar jamoasida ijtimoiy va psixologik kompetentsiyani rivojlantirishga sarmoya kiritish sog'lom va samarali ish muhitini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Emotional Intelligence 2.0" by Travis Bradberry and Jean Greaves (2009).
2. "Social Intelligence: The New Science of Human Relationships" by Daniel Goleman (2006).
3. "Mindset: The New Psychology of Success" by Carol S. Dweck (2006).
4. "Crucial Conversations: Tools for Talking When Stakes Are High" by Kerry Patterson, Joseph Grenny, Ron McMillan, and Al Switzler (2002).
5. "The Power of Now: A Guide to Spiritual Enlightenment" by Eckhart Tolle (1997).
6. "The Social Animal: The Hidden Sources of Love, Character, and Achievement" by David Brooks (2011).

Jumayev Nodir Zayniddinovich

Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida dotsenti v.b,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'QUVCHILARDA INTELLEKTUAL TARAQQIYOTNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilar intellektual taraqqiyotida amaliy psixologik usullardan foydalanishning psixologik mexanizmlari o'rganilgan. Shuningdek o'quvchilar intellektini rivojlantirish muammosi bo'yicha ilmiy adabiyotlar qiyosiy analogik yo'nalishda tahlil qilingan, bolalar intellektini rivojlantirishda doirasidagi tadqiqot metodikalarini tanlash va qo'llash bo'yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan, bolalar intellektini rivojlantirishda o'ziga xos xususiyatlarni empirik jihatdan nazariy va amaliy tahlillar olib borilgan, hamda o'quvchilar intellektini rivojlantirish samaradorlik darajalarini aniqlash haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: intellektuallik, qobiliyat, xarakter, iste'dod, psixologik mexanizmlar, metod, metodologiya, psixokorreksiya, psixodiagnostika, motivatsiya genetik omil, ijtimoiylashuv, dominant.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В данной статье рассмотрены психологические механизмы использования практических психологических методов в интеллектуальном развитии учащихся. Также была проанализирована научная литература по проблеме развития интеллекта учащихся в сравнительно-аналогичном направлении, разработаны предложения и рекомендации по выбору и применению методик исследования в рамках развития интеллекта детей, проведён эмпирический теоретический и практический анализ особенностей развития интеллекта детей, а также определены уровни эффективности развития интеллекта учащихся.

Ключевые слова: интеллектуальность, способности, характер, одарённость, психологические механизмы, метод, методика, психокоррекция, психодиagnostika, мотивация генетический фактор, социализация, доминанта.

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF INTELLECTUAL DEVELOPMENT IN STUDENTS

Abstract. In this article, the psychological mechanisms of the use of practical psychological methods in the intellectual development of students are studied. Also, scientific literature on the problem of developing students' intelligence has been analyzed in a comparative analogical direction, proposals and recommendations have been developed for the selection and application of research methodologies within the development of children's intelligence, empirical theoretical and practical analysis of specific features in the development of children's intelligence has been carried out, and the development.

Key words: intellectuality, Ability, character, talent, psychological mechanisms, method, methodology, psychocorrection, psychodiagnostics, motivation genetic factor, socialization, dominant.

Kirish. Mamlakatimizdagi ijtimoiy maktabgacha muassasalar ta'lim-tarbiyaviy ishning keng dasturini amalga oshirib boalalarni maktabga tayyorlashdek zarur ishni ta'minlaydi. Ya'ni,

bu o'rinda bolalar bog'chasi va maktab ishidagi izchillik katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlash lozim bo'ladi.

Izchillikni amalga oshirishning mavjud imkoniyatlari xalq ta'limi tizimi, uning tarkibiy tuzilishi va amalda bo'lishining asosi hisoblanadi.

Bolalarni ta'lim muassasiga maktabga intellektual tayyorlashning maqsad va vazifalari tarbiyaning bolalar yosh xususiyatlari hisobga olingan umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. Bu bolalar bog'chasi va maktab o'rtasida izchillikni ta'minlashning haqiqiy asosini tashkil qiladi.

Bolalar bog'chasi va maktabdagi ta'lim va aqliy tarbiya, shakl hamda metodlarining turli yosh davrlarida bola shaxsini har tomonlama shakllantirishni amalga oshirish maqsadlarida o'zaro aloqasini qaror toptirishda amalga oshadi.

Ma'lumki, bugungi kungacha juda ko'plab ilg'or ijtimoiy psixologiya vakillari tomonidan Bolalar psixologiyasida intellect va kreativlikni tushuntiruvchi 3 ta nazariya mavjud. D. Veksler, G. Ayzenk, O.K. Tixomirov, S.L. Rubinshteyn, L.L. Gurova, L.S. Vigotskiy, Ya.A. Ponomarev; L. Termen, R. Stenberg, P.A. Bachelor, L.M. Vekker, M.S. Egorova, N.V. Kalacheva, S.N. Orlovalarni tadqiqotlarini misol keltirish mumkin. Intellect kreativlikning yuqori bosqichi hisoblanadi. Bu degani nafaqat ular birlikda, balki ijodkorlik intellektning hosilasi hisoblanadi. Yuqori darajadagi intellect – yuqori darajadagi qobiliyatning asosi hisoblanadi. Gans Ayzenk kreativlikni qobiliyatning o'ziga xos ko'rinishi deb aytgan. Kreativlik intellektning yuqori bo'lishi bilan belgilangan.

Z. Zaporozets bolalarda kognitiv faoliyatning yangi turlarini o'rgangan, bolalarda kognitiv faoliyatning yangi harakatlari va usullarini shakllantirish jarayoni bolaning intellekt rivojlanishi. Shuningdek bolalarda intellektning yangi turlarini tavsiflab bergan qaysi bosqichida ekanligiga qarab turlicha davom etadi, degan g'oyani ilgari surdi. Matematik tasvirlarning shakllanishi hisoblanadi kuchli vosita maktabgacha yoshdagi bolaning intellektual rivojlanishi, uning kognitiv kuci va ijodiy qobiliyatlari va maktabga umumiy tayyorgarlikning bir qismi. Turli matematik muammolarni echish, bolalar ko'rsatadi ixtiyoriy harakatlar, izchil bajarishni o'rganing zarur harakatlar ma'lum bir natijaga erishish, shuningdek, to'plangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, ulardan kundalik va o'yin faoliyati. Turli bilimlarni o'zlashtirib, ular savollarga qisqa va aniq javob berish, xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shunday qilib, elementar matematik tushunchalarni shakllantirish kelajakdagi talaba uchun zarur bo'lgan fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang'ich maktab Yoshi bolalarning matematik tasavurlarini rivojlanishi maktabgacha yosh bolalar tomonidan diagnostika jarayonlarini baholash bilan belgilanadi.

Kreativ jarayonni o'rganish psixoanalitik yo'nalish bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Z. Freyd ijodiy harakatni libidoz energiyaning sublimatsiyasi natijasida tasvirlagan. Demak, shaxsning ijodiy salohiyatini o'rganish uchun proyeksion metodlardan foydalanishning asosligi belgilangan.

Uchinchi yo'nalish kreativlikni bolalarning intellektual rivojlanish usullaridan berilgan qobiliyat muammo sifatida o'rganilgan. Bu sohada birinchilardan bo'lib K. Simpsonning tadqiqot ishini ko'rish mumkin, u kreativlikni stereotipik fikrlash usullaridan voz kechish qobiliyati sifatida baholagan. E. From esa kreativlikni (ijodni) hayratga tushish va o'rganish, nostandart vaziyatlarda yechim topish, yangi narsalarni kashf etish va o'z tajribasini chuqur anglash qobiliyati sifatida ko'rib chiqqan. Chet el psixologiyasida J. Gilford va E. Torrens tadqiqotlari alohida o'rganish muhi sanaladi. J. Gilford kreativlikni bolalarning intellektual rivojlanish usullaridan berilgan qobiliyat deb bilgan va uning tajribalari asosan kreativlik diagnostikasi va shaxsiyatning ba'zi bilish omillari bilan aloqalari darajasini o'rganishga qaratilgan. Torrens tadqiqotlarida kreativlikni bolalarning intellektual rivojlanish usullarida o'rganishga bag'ishlangan. U kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli ta'sir etish ehtimolini qobiliyat sifatida talqin qilgan.

To'rtinchi yo'nalishda K.Goldshteyn, K.Rojers, N.Rojers, A.Maslou va boshqalar ijodiy jarayonni shaxsning "o'zini o'zi aktuallashtirish" bilan bog'lashgan. "O'zini o'zi aktuallashtirgan odamning ijodkorligi madaniyat ta'sirida buzilmagan bolaning kreativligiga o'xshaydi. Kreativlik inson tabiatining eng asosiy xarakteristikasi bo'lib, u tug'ilishidanoq har bir insonga beriladigan salohiyatdir". A.Maslou. R.Stenberg ijtimoiy yo'nalishda kreativlikni "sog'lom aql va intellektning dialektik o'zaro ta'siri" deb hisoblaydi. Intellekt jamoa ehtiyojlarini qondirish uchun keng qo'llaniladi. "Kreativlik o'zini jamoa muammolariga shubha bilan qaraydi va o'zini unga qarshi qo'yadi, yanglilarini taklif qilib boradi. Sog'lom aql esa "eski va yangilar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi", "jamiyat kontekstidagi o'zgarishlar va barqarorlik"ka erishadi.

Intellektni R.Stenberg "atrof-muhitga moslashish qobiliyati" deb hisoblaydi. Muvaffaqiyatli moslashish belgisi esa mukofot olishdir (keng ijtimoiy-iqtisodiy ma'noda). Kreativlik "sifat jihatidan yuqori emas, balki yangi mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati" deb ta'riflanadi. "Intellektli odamlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifati yuqori, lekin, albatta, yangi bo'lishi shart emas". Shundan kelib chiqib, muallif "kreativlik faqat uni hukm qiluvchi tizim kontekstida ahamiyat kasb etadi", "bir tizimda kreativ bo'lgan narsa boshqa bo'lishi mumkin emas", degan xulosaga keladi. Intellektni kreativlikning sharti deb hisoblaydi, "chunki ijodiy mahsulotlar yuqori sifatga ega. Kreativlik qaror qabul qilish bilan bog'liqdir, ya'ni "istalgan kishi kreativ ustanovkani qabul qilishi, kreativ fikrlashi mumkin". Biroq turli sabablarga ko'ra, "odamlar buni qilmaydi". Ba'zilar olomonga yon bosish uchun aqliy qobiliyatlaridan foydalanadi, boshqalari esa olomonga qarshi chiqish uchun bu imkoniyatidan foydalanishadi. Ular, ehtimol, yetakchilik lavozimlarida eng samarali bo'lishlari mumkin, ular o'zgarish zarurligini va barqarorlik o'rtasida muvozanat saqlay olishadi. chunki. "Kreativ odamlar sog'lom fikrlay olmaydilar va hatto boshqa odamlar bilan munosabatlarda ahmoqona ishlarni qilishlari mumkin". R.Stenberg "ijodkorlik" quyidagi xususiyatlarga ega degan xulosaga keldi: hukmlar va harakatlar noan'anaviyligi; rivojlangan estetik ko'nikmaga ega; moslashuvchanlik; "o'yin qoidalariga" ambivalentlik (asosiy noaniqlik)ni kiritish; avtoritetlarga va tan olingan "haqiqatlar"ga qarshi tanqid bilan chiqish.

J.P.Gilford o'z tadqiqotlarida konvergent fikrlash bilan divergent fikrlash o'rtasidagi sifatiy farqqa e'tibor qaratdi. Uning ishlari tufayli bu mavzu tadqiqotchilar e'tiboriga tushdi va amaliy ta'lim muammolarini hal qilish borasida muhokama qilinmoqda. Konvergent fikrlash chiziqli, mantiqiy (diskursiv) fikrlashni nazarda tutadi, bu muammoni yagona to'g'ri yechimini o'z ichiga oladi. Divergent fikrlash butunlay boshqa yo'nalishga ega. Bu holda bir nechta yechimlarning printsiplial imkoniyati birinchi o'ringa chiqadi. "Divergentli" ong innovatsion yo'llar, noan'anaviy g'oyalarni topishga qaratilgan. Dj.Gilfordning bu yondashuvini kreativlik xususiyatlarining asosiy nazariy asosi sifatida baholash mumkin. Bizningcha, ravonlik (tezlik, unumdorlik) ko'rsatkichi so'z yoki chizmalarda ifodalanadigan ko'plab g'oyalarni hosil qilish qobiliyatini aks ettiradi. Bu qobiliyatga ega bo'lgan insonning tafakkuri deyarli qiyinchiliklarsiz amalga oshadi. Biz bu ko'rsatkichni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin:

1) alohidalangan so'z darajasidagi ravonlik. Bunda kishi muayyan harf yoki birikmalarni o'z ichiga olgan so'zlarni osonlikcha topa oladi, berilgan so'z uchun sinonimlarni osonlik bilan tanlaydi;

2) g'oyalar va yechimlarni o'z-o'zidan ishlab chiqarish. Misol uchun, bir vaqtning o'zida qattqlik, oqlik va yegulik belgilari predmetlarni aytish yoki matn mohiyatini ifoda etuvchi sarlavha tanlash kerak bo'ladi.

Bolaning aqliy rivojlanishi quyidagi omillarga bo'g'liq:

1. Genetik omillar. Bola dunyoga kelgandan ota -onasi bergan narsaga ishora qiladi. Bolaning intellektual rivojlanishi sifati, yo'nalishi ko'p jihatdan yuqoridagi omilga bog'liq.

2. Onaning homiladorligi davrida yuzaga keladigan omillar. Homilador onaning turmush tarsi bolaning aqliy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Masalan, tug'ilmagan bolaning aqliy zaiflashishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: noto'g'ri ovqatlanish, onada yod tanqisligi,

homiladorlik paytida kasallik, dori-darmonlarni qabul qilish, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalarni iste'mol qilish, chekish va boshqalar.

3. Ekologik omillar. Go'daklarning aqliy faoliyatiga buzilishlar sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Bolalarda noto'g'ri ovqatlanish, aloqa yetishmasligi, vosita va kognitiv faoliyatga cheklovlar to'liq bo'lmagan oila avval boshqa ta'sir sabab bo'ladi.

4. Katta oila omili metodi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, to'ng'ichlar oiladagi boshqa bolalarga qaraganda ko'proq aqliy qobiliyati rivojlangandir. Biroq, ichida katta oilalar bolalar ijtimoiy jihatdan yaxshiroq rivojlanadi: ular muloqot qilish qobiliyatini osongina egallaydilar va jamiyatga tezda moslashadilar.

5. Oilaning ijtimoiy mavqei. Kambag'al oilalar farzandlari har doim ham ota-onalarini maktabdagi natijalari bilan xursand qilishmaydi chunki ularda ota-onalarda oila turmush tarzini rivojlantirish bilan bog'liqdir.

6. Maktab bolalarning faoliyatiga ta'sir qiladi. Aksariyat umumta'lim maktablarida o'qituvchilar savollarga undan talab qilinadigan tarzda javob beradigan, so'ramasdan hech narsa qilmaydigan yaxshi o'quvchi deb hisoblashadi. Bu xususiyatlar yuqori ijodiy salohiyatga ega bo'lgan bolalarga mos kelmaydi: muammolarni hal qilishda nostandart yondashuvni ko'rsatadiganlar. Ta'limga individual va o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvlar bugungi kunda maktabda bolalarning aqliy rivojlanishini rag'batlantiradi.

7. Bolaning shaxsiy fazilatlarini bolalarning intellektiga ta'sir qiladi. Aqliy qobiliyatlarning rivojlanishiga bolaning xarakteri va temperamenti ham ta'sir qiladi. O'ychan bolalar murakkab vazifalarga e'tiborli, ammo ular ishonchsiz va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqishadi. Qo'zg'aluvchan bolalar biroz yuzaki, lekin o'z-o'zidan ijodiy impulslarni namoyish etishga qodir hisoblanadi.

8. Ota-onalarning shaxsiy fazilatlarini ham bolaning intellektiga ta'sir qiladi. Omili. Ota-onalar intellektual rivojlangan, muvaffaqiyatli, o'ziga ishongan, o'z ishini sevsa yaxshi bo'ladi: bunday sharoitda bolalar tezroq rivojlanadi. Biroq, bu intellekti rivojlangan bolani bolani tarbiyalashning asosiy sharti hisoblanmaydi. Ta'limdagi asosiy narsa ota-onalarning g'amxo'rliigi va bolalarning kuchiga ishonish. Bolaning aqliy rivojlanishining rivojlanish darajasini bilib, siz unga to'g'ri ta'lim usullarini tanlashingiz mumkin. Chaqaloqlar uchun - yorqin rasmlar, qaysini hisobga olgan holda va savollarga javob berib, bola o'z aqlining ma'lum darajasini namoyish etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maxsus topshiriqlar va anketalar yordamida tashxislash mumkin. Maktab o'quvchilarining IQ darajasini tekshirish uchun psixologik testlar qo'llaniladi. Ular turli sohalarda razvedkani o'rganishga qaratilgan bloklar shaklida qurilgan. Natijalarga e'tibor qaratib, u ma'lumotni qanday yaxshi qabul qilishini bilib olishingiz mumkin. Bolaning rivojlanishi uchun uning tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish kerak. Ota-onalar u yoki bu narsani aniqlashga, ob'ektni uzoqdan batafsilroq ko'rib chiqishga yoki erdan qiziqarli narsalarni ushlab harakat qilayotgan qiziquvchan chaqaloqni doimiy ravishda orqaga tortib olishlari odatiy hol emas. Bunday xulqatvor bilan tabiiy qiziqish va izlanish tezda yo'qoladi va bolaning o'rganishga qiziqishi yo'qoladi. Ammo, shu bilan birga, chaqaloq boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlar me'yorlarini singdirishi va olbolalarning intellektual rivojlanish usullaridan ruxsatisiz boshqa birovni tortib olish mumkin emasligini aniq ajratib ko'rsatishi kerak.

Biz, o'qituvchilar va ota-onalar, tafakkurning shakllanishi hayotning birinchi yillaridan boshlanishini unutmashimiz kerak. Fikrlash boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogika, psixologiya, fiziologiya, umumiy tilshunoslik, sotsiologiyavistika, psixologiyavistika kabi turli bilim sohalari vakillarining e'tiborini tortadi. Har bir fan o'zining maxsus muammolarini hal qilishda bir vaqtning o'zida umumiy savollarga ham to'xtaladi. Bolalar tafakkurida bir xususiyat - sinkretizm mavjud bo'lib, u bolaga bir ob'ektni boshqasidan ajratmasdan, butun bloklar bo'yicha fikr yuritish imkonini beradi. Sinkretik xarakter bolalarning fikrlashi, ya'ni butun vaziyatlarda, yaxlit bog'langan qismlarda fikrlash shunchalik kuchliki, u hali ham maktab o'quvchisida og'zaki fikrlash sohasida qoladi va bolada fikrlashning

transformativ shaklidir. Dunyoda jamiyat ravnaqi ko'p jihatdan uning intellektual imkoniyatlari bilan belgilanadi. Chunki ilmiy yutuqlari yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg'or bo'ladi. Jahon davlatlarining ijtimoiy-tarixiy rivojlanishida yoshlarga bo'lgan e'tibor muhim o'rin egallaydi. Yoshlarning huquqlarini himoya qilish, ularga imkoniyatlar yaratish, ularning manfaatlarini ifoda etuvchi huquqiy baza yaratilishi davlatning kelajakda taraqqiyot darajasini belgilab beradi .

Xulosa

Biz intellekt so'zini talafuz qilishimiz bilan, testlarni qo'llash orqali uni ko'z oldimizga keltiramiz. Lekin mana shu teslar qanchalik to'g'ri. Biz ularga qay darajada ishonishimiz mumkin. Bu ko'rinishdagi testlarning savollari barcha soha vakillarining turmush sharitini hisobga olmaganligini kuzatishimiz mumkin. Hattoki, A. Bine ham o'zi kashf etkan intellekt testlarini tahlili ustida ishlash kerakligini aytib o'tgan. Sababi, bu teslarning natijasi haqiqatdan uzoq bo'lishini aniqlagan. Bundan tashqari bunday testlar intellektning faqat bir tomonini tadqiq etishga qaratilgan. Emotsional va amaliy intellekti yuqori rivojlangan shaxslarning natijalari bu testlarda yaxshi natija ko'rsatmayotganligi kuzatishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Талузина Н.Ф., Карпов Ю.В. Педагогическая психология. М: Изд-во. М, Ун-та 2010 г.
2. G'oziev E.G. O'quvchilarning umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. T., 2001 y.
3. Гатанов,Ю. Курс развития творческого мышления (по методике Дж. Гилфорда и Дж. Рензулли): Первый год обучения (болалар учун 6-10 ёш). - СПб: ГП «Иматон», 1996.
4. Козленко, В. Н. Проблема креативности личности / В. Н. Козленко // Психология творчества; под ред. Я. А. Пономарева. - М. : Наука, 1999.
5. Фрейд З. Художник и фантазирование/ Пер. с нем.; Под ред. Р.Ф. Додельцева, К.М. Долгова. - М.: Республика, 1995.

Miraxmetova Laziza Farruxovna

Nizomiy nomidagi Toshkent
davlat pedagogika universiteti
erkin tadqiqotchisi

TALABALARDA TAFAKKURNI TADQIQ ETISHNING PSIXODIAGNOSTIK DETERMINANTLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalarda sanogen tafakkurni tadqiq etishning psixodiagnostik asoslari hamda sanogen tafakkur muammosining dolzarbligi, nazariy asoslari tahlil qilinib, talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirish jarayonining kognitiv, tayyorlov, yakuniy fazalariga ustuvorlik berish asosida sog'lom fikr yuritish va sanogen xulq-atvorga oid tarkibiy komponentlari mazmuni yoritilgan. Shuningdek talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida uni rivojlantirish, talabalarda sanogen tafakkurni rivojlanganlik darajasini va uning komponentlarini tahlil qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** sanogen tafakkur, patogen tafakkur, sanogen refleksiya, sog'lom fikr yuritish, sanogen xulq-atvor, dinamiklik, beqarorlik, ijtimoiy-psixologik mexanizm, ijodiylik, intellekt.*

ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

***Аннотация.** В данной статье анализируются психодиагностические основы исследования саногенного мышления у студентов, а также актуальность, теоретические основы проблемы саногенного мышления, освещается содержание структурных компонентов здорового мышления и саногенного поведения на основе приоритета когнитивных, подготовительных, заключительных фаз процесса развития саногенного мышления у студентов. Также на основе исследования педагогико-психологических особенностей развития саногенного мышления у студентов разработаны практические рекомендации по его развитию, анализу уровня развития саногенного мышления у студентов и его компонентов.*

***Ключевые слова:** саногенное мышление, патогенное мышление, саногенная рефлексия, здравый смысл, саногенное поведение, динамичность, нестабильность, социально-психологический механизм, креативность, интеллект.*

PSYCHODIAGNOSTIC DETERMINANTS OF THINKING RESEARCH IN STUDENTS

***Abstract.** This article analyzes the psychodiagnostic foundations of the research of sanogenic thinking in students and the relevance, theoretical foundations of the problem of sanogenic thinking and highlights the content of the structural components of the process of developing sanogenic thinking in students on the basis of prioritization of cognitive, preparatory, final phases of common sense and sanogenic behavior. Also, on the basis of research on the pedagogical and psychological characteristics of the development of sanogenic thinking in students, practical recommendations for its development, analysis of the degree of development of sanogenic thinking in students and its components have been developed.*

***Key words:** sanogenic thinking, pathogenic thinking, sanogenic reflex, common sense, sanogenic behavior, dynamism, instability, socio-psychological mechanism, creativity, intelligence.*

Kirish. Zamonaviy ijtimoiy hayot dinamiklik, beqarorlik va keskinlik bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar zamonaviy ta'lim sohasini ham tavsiflaydi. Har xil turdagi ta'lim sharoitida psixologik salomatlikni saqlash va mustahkamlash bolalar, o'smirlar va kattalarda samarali, sog'lomlashtiruvchi (Yu.M.Orlovning fikricha, sanogenik) tafakkurni rivojlantirishni talab qiladi, bu esa odamga o'z faoliyatini amalga oshirish va boshqarish imkonini beradi.

Jahonda ta'lim tizimining asosiy maqsadi talabalarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishning ijodiylik, intellektual salohiyat modulli texnologiyalari amaliyotga kiritilgan.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunga kelib, xorijiy psixologiyada odamni salbiy hissiy vaziyatlarda mantiqsiz e'tiqodlarni tan olishga o'rgatish uchun konstruktiv, oqilona fikrlashni rivojlantirishning turli usullari mavjud (Bek, 1967, 1979, 1990; Ellis, 1999, 2002; McMullin, 2001 va boshqalar)). Mahalliy psixologiyada bu borada birinchi bo'lib Yu.M.Orlovning sanogenik tafakkurni o'rgatish uslubi (Orlov, 1993, 1997, 2000) bo'ldi. Uning shogirdlari va izdoshlari kichik yoshdagi maktab o'quvchilari uchun ta'lim texnologiyalari va kattalar uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqdilar (O.S. Grebenyuk, 2000; S.N. Morozyuk, 2000; T.N. Vasilyeva, 1997 va boshqalar).

Zamonaviy psixologik-pedagogik amaliyotda o'qitishning turli shakllaridan foydalangan holda kino nafaqat axborot, balki katta rivojlanish salohiyatiga ega bo'lgan muhim o'rinni egallaydi.

Xorij olimlaridan A.Adler, A.Bek, A.Binet, Z.Freyd, J.P.Gilford, F.Galton, R.B.Kettell, K.Levin, K.Perlet, J.Piaget, J.Renzulli, C.Spearman, R.Sternberg, L.L.Thurstone, K.Heller va boshqalar tomonidan shaxsning taraqqiyotida tafakkurning xususiyatlari, uning psixologik barqarorlikka ta'sirini, bilish jarayonlarida tafakkurning ong osti faoliyatidagi o'rni tadqiq qilingan. Ammo aynan talabalar sanogen tafakkurini rivojlantirish masalalari to'liq tadqiq qilinmagan.

Yosh avlodning mamlakatimiz barqarorligiga, uning ijtimoiy, ma'naviy yuksalishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ekstremistik va terroristik oqimlar, patogen g'oyalar ta'siriga tushib qolmasligi uchun muayyan ijtimoiy-psixologik asosni yaratish, takomillashtirish hozirgi kunda psixologiya fani oldida turgan muhim vazifalardandir. Mazkur masala, yoshlarning sanogen tafakkuri genezisi, mohiyati va mazmuniga mavjud ilmiy nazariyalarga suyangan holda ta'rif berish, tasniflash, tahsil oluvchilarning sog'lom tafakkurini rivojlantirishga bag'ishlangan ijtimoiy-psixologik, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish muammosi alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Hozirgi vaqtda patogen g'oyalar va destabillashtiruvchi guruhlarining paydo bo'lish sabablari, faoliyat doirasi kengayishining oldini olish maqsadida yoshlarning sanogen tafakkurini o'stirish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etib, bu sohada ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni olib borish dolzarb vazifa bo'lib hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Talabalik davrida kasbiy bilimlar bilan bog'liq tafakkurning shakllanishi muhim hisoblanadi. Tafakkurning o'zi esa o'ziga xos xususiyatga ega. "Tafakkur" tushunchasini tahlil etish asosida uning quyidagi asosiy xususiyatlarga ega ekanligi haqidagi xulosaga kelingan:

- 1) tafakkur voqea-hodisalarnianiq va umumlashgan holda aks ettirishga imkon beradi;
- 2) borliqni bilvosita aks ettiradi, ya'ni inson o'zlashtirgan tajribalariga tayangan holda yangi bilimlarni hosil qiladi.
- 3) ijodiy fikr yuritish va faoliyatdagi ijodkorlik inson tafakkurining muhim xususiyati hisoblanadi.
- 4) tafakkur til bilan bevosita bog'liq. Chunki, fikrlashni, tafakkur yuritishni ideal va ijtimoiy hodisa sifatida baholash mumkin. Sababi u faqatgina til vositasida reallikka aylanadi. Natijada, barcha uchun tushunarli va bevosita qabul qilinadigan, his etadigan shaklga kiradi va insonlar o'rtasida o'zaro fikr almashish vazifasini bajaradi [58].

Demak, til inson tafakkurining real voqelik kasb etishiga xizmat qiladi. Tafakkur va uning o'ziga xos xususiyatlari «sanogen tafakkur» va patogen tafakkur tushunchalari mazmunini aniqlashtirish imkonini beradi.

Har bir inson nafaqat o'zining his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini nazorat qilishi, balki muayyan qoidalarga muvofiq fikrlash tarzini ham nazorat qila olishi kerak. Mazkur holat bilan bog'liqlikda pedagog-psixolog olimlar fikrlashning ikkita turini ajratib ko'rsatish adi: sanogen va patogen fikrlash. Talabalik yillarida yoshlarning hayoti va faoliyatida o'zini o'zi kamolotga yetkazish jarayoni muhim rol o'ynaydi, lekin o'z-o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari (o'zini-o'zi tahlil qilish, nazorat etish, baholash, tekshirish va boshqalar) ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Sanogen tafakkur sog'lomlashtiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi va ruhlantiruvchi fikrlash tarzi. Shuningdek, sanogen fikrlash shakli bu ma'lum bir algoritmdan foydalangan holda fikr yuritish va o'rganishning shaxsiy patogen (nosog'lom fikrlash) stereotiplarini qayta ko'rib chiqish va tartibga keltirishdan iborat bo'lib, muayyan faoliyat davomida yuzaga keladigan muammo va qiyinchiliklarni to'g'ri aks ettirish qobiliyatidir. Har bir kishi hayotiy faoliyati davomida tez-tez astenik (yoqimsiz) tuyg'ularni boshdan kechiradi yoki salbiy hissiy kechinmalarni vujudga keltiradigan noqulay vaziyatlarga duch keladi: xafagarchilik, ishonchsizlik, muvaffaqiyatsizlik, umidsizlik, sabrsizlik, aybdorlik va boshqalar. Ba'zilarimiz shu kabi haqiqiy his-tuyg'ular oldida o'zimizni yo'qotib qo'yamiz va aqliy kuchimiz zaiflashadi. Boshqalar esa - o'zlari bilan tez kelishib, bunday noqulay holatlarni tez yengadi va hayotda munosib o'rinni topishga qodir.

Asosan, mualliflar o'z asarlarida sanogenik tafakkur namoyon bo'lishining individual shakllariga, shuningdek, uning elementlarini shakllantirishning o'ziga xos usullariga e'tibor berishadi. Kam hollarda mutaxassislar sanogenik fikrlashning mohiyati, tabiati va mexanizmlariga to'xtalib o'tadilar.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'zining axloq haqidagi risolasida yozishicha, ijtimoiy adolat - inson xatti-harakatlarining eng muhim bezagidir. Adolat - ruhiy lazzatning bosh o'lchovi. Adolat odamga xos sabr, jasurlik, donolik kabi hislatlar orqali namoyon bo'ladi. Bu fazilatlariga ega inson, vijdon amri bilan o'zini yomon xulq-odob, munosabatlardan saqlaydi. Ezgulik, ruhiy poklik, yaxshilikni o'zida mujassam etishga harakat qiladi. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari, ruhiy poklanish, adolat haqidagi g'oyalari uning ijtimoiy va ma'naviy-tarbiyaviy qarashlaridan kelib chiqadi. Bu fikrlarning nazdida albatta sog'lom tafakkur qilish yotadi.

Amir Temur (1336-1405) "Har kimdan kengash oldim. Har kimdan fikr o'rgandim, qaysi biri foydaliroq bo'lsa, uni ko'ngil xazinasida saqlab, ishlata bildim" - deya ta'kidlagan. Amir Temurning ushbu fikrlaridan ma'lum bo'ladiki, har bir jamiyat fikr-mulohaza yuritib, o'zaro fikr almashib, jamiyatni takomillashtirishi mumkinligini tushunish mumkin. "Barcha ishlarimni to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini esa qilich bilan amalga oshirdim" - deya ta'kidlaydi va "Men hayotim davomida besh narsaga qat'iy e'tiqod qo'ydim va xamishalig' ularga amal qildim. Ular ushbulardir: Alloh-ul har narsaga qodir kuch, sidqidildan sig'insang istagan murod-u maqsadingga yetkazadi. Tafakkur - fikrlash va mushohada qobiliyati, quvvat xafizasi kuchli inson har qanday mushkul-u mushkulotni oson qilish yo'lini topa oladi. Qilich-ul yigitning yo'ldoshi, el-yurt osoyishtaligining posboni, har qanday dushmanlarni mavx etish quroli, aning qudrati ila dinsizlarni diniga solmoq mumkin. Imon-ul insonni barcha jonlilardan farqlantirib turguvchi xususiyatdir. Imonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug'lari, elu-xalqning or-nomusini himoya qiladi, halollik va poklikni fazilat biladi. Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir". - deb ta'kidlaydi. Amir Temurdan meros bo'lib hisoblangan o'g'itlari muzokara yuritish, fikr qilish muloqotda ham insonlar o'zaro fikr almashib oqilona tafakkur yuritishini imkoniyatlariga ega bo'lishga ega bo'lishida ijtimoiy-hayotiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, Z.Freyd ruhiy kasallik sifatida nevroz xatti-harakatlarning madaniy aqliy avtomatizmlari tomonidan yaratilganiga ishonch hosil qiladi. K.Yung shaxsning arxetipik xususiyatlari bilan belgilanadigan fikrlash va tushunish usullarini yengib o'tish zarurligini ta'kidlaydi. Ya'ni, har doim ham mantiqiy qoidalariga to'g'ri kelmaydigan sanogenlik qoidalariga muvofiq fikrlashni boshqarishga urg'u beradi. K.Xorning fikricha, inson xatti-harakati ko'pincha madaniy omillar bilan tartibga solinadi, chunki bizning madaniyatimiz oqilona fikrlashga katta ta'sir ko'rsatadi, uni yuksaltiradi va irratsional printsipni pastroq deb hisoblaydi. M.Jeymsning fikricha, sanogenik tafakkurning asosi hozirgi paytda sodir bo'layotgan narsalarni tushunish qobiliyati sifatida xabardorlikdir. Tafakkuri keng odam o'zining ichki histuyg'ulari, fantaziyalari dunyosini biladi, undan qo'rqmaydi va uyalmaydi, uning fikri va tanasi "bu yerda va hozir" vaziyatga to'la to'kis mos keladi.

Ijobiy fikrlash - bu hayotga, o'ziga va sodir bo'layotgan voqealarga ruhiy munosabatning bir turi hisoblanadi.

Agar talabalarda ijobiy fikrlash rivojlangan bo'lsa, hayot baxtli, osoyishta va tabassumlarga to'la ko'rinadi. Bu, shuningdek, yashash uchun zarur bo'lgan narsani topish uchun fikrni ochishga imkoniyat yaratadi.

Insonning kundalik tafakkuri patogen bo'lib, u o'zi bilan, atrof-muhit bilan, sog'liq uchun barcha oqibatlarini bilan hissiy stress va ziddiyatni keltirib chiqaradi. Bu patologik emas, balki juda oddiy fikrlash, ammo bu patogendir.

Sanogenik fikrlash jarayonlarining xilma-xilligini kengaytirish va fikrlash talabalarining ichki imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi, shuningdek, hissiyotlarni kamaytiradigan yangi dasturlarni ishlab chiqishga qo'l keladi. Sanogenik fikrlash doirasini kengaytirish uchun talabalar ko'proq o'zlarida ilmiy dunyoqarashni kengaytirishi va keyin ma'lum bir tuyg'u haqida o'ylash odatini rivojlantirishlari lozim.

Sanogen tafakkur bo'yicha keltirilgan mulohazalar va berilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda uning quyidagi o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari ajratildi:

- O'z fikrlarini tashqi ifodalay olish, ya'ni eksteriorizatsiyaning namoyon bo'lishi;
- Fikrlash jarayonida interiorizatsiya (ichki qabul qilish)ning namoyon bo'lishi;
- Fikrlashda noodatiylik (improvizatsiya) va ijodkorlik;
- Fikrlashning refleksivligi va pozitiv fikrlash;
- Fikrlashda shaxsiy refleksiya va mustaqillikning namoyon bo'lishi;
- Fikriy harakatlarning uyg'un amalga oshirilishi (eshitish, nutq va harakat);
- Fikrlashdagi moslashuvchanlik;
- Fikrlash jarayonida o'z-o'zini ishontirish va nazoratning yuqoriligi;
- Fikrlash jarayonida emotsionallik va aqliy yondashuvning uyg'unligi

Sanogen va patogen fikrlash shakllarining mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun, ularning muhim xususiyatlarini ajratib, bir-biri bilan taqqoslash lozim. Yu.M.Orlov tomonidan sanogen va patogen tafakkurning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinib, ularni bir-biridan farqlanib turuvchi jihatlari ajratib ko'rsatilgan. Ular quyidagilar:

1. Sanogen tafakkur egalari – o'z hissiy kechinmalariga tashqaridan nigoh tashlay oladilar, muhim muammolarga bog'liq fikrlar ham ularni xotirjamligini yo'qolishiga sabab bo'lmaydi, negativ emotsiyalar qaerdan paydo bo'lishini biladilar, fikrlash vaqtida jarayonga butun diqqatlarini jamlay oladilar, tafakkurlari egiluvchan, hamma narsadan pozitiv topa oladilar, fikrlari va harakatlari pozitiv bo'ladigan shaxslardir;

2. Patogen tafakkur egalari – negativ fikrlarni ko'pligidan ularni nazorat qilish ko'nikmasini yo'qolishi, vaziyatni chetdan baholay olmaydilar, doimiy hafa bo'lish va nafrat hissini tuyishning ustunligi, ulardan qutilishni ilojisizligi, hissiyotlarni boshqara olmaslik, negativ fikrlarni salomatligiga ta'sirini kuchayishi kuzatiladigan shaxslardir.

Sanogen (sog'lom) tafakkur inson salomatligini muhofaza qilishning noan'anaviy usullaridan biri bo'lib, yangicha fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlaydi. Shuningdek, sanogen fikrlash ko'nikmasi fikr yuritishning xilma-xil usullarini o'zlashtirish,

unga erkinlik berish, emotsiyalarning keragidan ortiqcha namoyon bo'lishini kamaytirishga imkon beradi. Sanogen fikrlash ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun avvalo shaxs o'zida kechadigan aniq hissiemotsional holatlar (masalan, nafrat, uyat, muvaffaqiyatsizlik, ishonchsizlik, noadekvat baholash va salbiy fikrlar) haqida yangicha tafakkur yuritishni tarbiyalashi lozim. Ana shunda, inson o'zida mavjud bo'lgan muayyan stereotip fikrlar va xulq-atvor ko'nikmalaridan xalos bo'ladi. Insonning atrof-muhitni idrok etish jarayonini kuzatish asosida uning sanogen va patogen (nosog'lom) fikr yuritish ko'nikmalarini tadqiq etish mumkin. Fikrlashning patogenligi shundaki, insonning salomatligiga zarar yetkazuvchi salbiy qarashlar yig'indisi bo'lib, u shaxsning o'z-o'zi va shaxslararo munosabatlar jarayonida vujudga keladigan emotsional beqarorlik va nizolar bilan izohlanadi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlar, nazariy ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirishimiz mumkin:

1. Sanogen tafakkur shaxsning o'z-o'zini nazorat qilishiga, stressogen omillarni rolini adekvat idrok qilishga, ijtimoiy stereotiplarni konstruktiv qabul qilishiga, shaxsning ruhiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi fikrlash turi ekanligi tahlil qilingan;
2. Sanogen tafakkur emotsional barqarorlikni hamda shaxsning psixologik salomatligini ta'minlashda, muloqotdagi nizolarni konstruktiv hal etish bilan bog'liq ijobiy tasavvurlarni namoyon bo'lishida ustuvor harakterga ega ekanligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Спивак И.М. Методы математической обработки в психологии. СПб.: ООО «Речь», 2002. 350 с.
2. Сергиенко Е.А., Рязанова Т.Б. Младенческое близнецовое лонгитюдное исследование: специфика психического развития // Психологический журнал. 1999. № 2. С. 49.
3. Anna Hilman Psychological testing. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall. 1997.// Леонтьев Д.А. Самореализация и сущностные силы человека Психология с человеческим лицом: гуманистическая перспектива в постсоветской психологии. М.: Смысл, 1997.С. 156-177
4. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. T.: "Fan", 1975. – 134-bet
5. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. – T.: Fan. 1968. – 24 b.
6. Дубровина И.В. Школьная психологическая служба: вопросы теории и практики. М.: Педагогика, 1991. 221с.

Miralimov Mirjamol Yuldashevich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

JINOYAT MOTIVLARINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar hamda o'smirlar xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishida salbiy omillardan himoya qiluvchi zamonaviy-psixologik mexanizmlar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari voyaga yetmagan o'smirlarda jinoyat motivlarini shakllanishiga doir o'zbek va xorij olimlari olib brogan nazariy hamda amaliy faoliyat natijalari o'rganilgan. Shuningdek o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishini tub sabablari va mohiyatini aniqlashga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnomalar ishlab chiqilgan va natijalar tahlili olib borilgan.

Kalit so'zlar: xulq-atvor, voyaga yetmagan shaxslar, zamonaviy-psixologik mexanizmlar, jinoiy xulq motivatsiyasi, psixokorreksion tarbiya, huquqiy ong, individuallik, demografik guruhlar.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ МОТИВОВ ПРЕСТУПЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье разработаны психологические факторы, влияющие на формирование преступных мотивов у несовершеннолетних, а также современные психологические механизмы защиты от негативных факторов формирования преступных мотивов в поведении подростков. Кроме того, изучены результаты теоретической и практической деятельности узбекских и зарубежных учёных по формированию преступных мотивов у несовершеннолетних подростков. Также разработана социально-психологическая анкета, направленная на выявление коренных причин и сущности формирования преступных мотивов у подростков, проведён анализ результатов.

Ключевые слова: поведение, несовершеннолетние личности, современные психологические механизмы, мотивация преступного поведения, психокоррекционное воспитание, правосознание, индивидуальность, демографические группы.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF CRIMINAL MOTIVES

Abstract. This article develops psychological factors that influence the formation of criminal motives in minors, as well as modern-psychological mechanisms that protect against negative factors in the formation of criminal motives in adolescent behavior. In addition, the results of theoretical and practical activities brogan conducted by uzbek and foreign scientists on the formation of criminal motives in underage adolescents have been studied. Also, a socio-psychological questionnaire was developed, aimed at determining the root causes and essence of the formation of criminal motives in adolescents, and an analysis of the results was carried out.

Key words: behavior, minor persons, modern-psychological mechanisms, motivation of criminal behavior, psychocorrectional upbringing, legal consciousness, individuality, demographic groups.

Kirish. Jahonda inson hayotida yuzaga keladigan muammolarni shakllanish qonuniyatlarini psixologik tahlil qilish, unga nisbatan zarur psixologik chora-tadbirlarni belgilab ularga oqilona yechim topish va natijalarni to'g'ri baholash hamda ilmiy asosda

qarorlar qabul qilish muammolarini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Jenevada Millatlar Ligasining Beshinchi Assambleyasida qabul qilingan "Bolalar huquqi to'g'risidagi Deklaratsiya"da bolalarga jismoniy va ma'naviy rivojlanishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilishi", "gunoh qilgan bola to'g'ri yo'lga solinishi", "og'ir damlarda bola mehr ko'rib voyaga yetishi va himoya qilinishi" ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida "bugungi kunda mahalladagi, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning taqdiri bilan kim qiziqayapti? Bolalar kimlar bilan hamsuhbat bo'layotgani, o'qishga qachon borib, qachon kelayotganini kim nazorat qilayapti? Yoshlar, xususan, o'smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar soni ortishiga qanday omillar sabab bo'layapti? Ba'zi yoshlarimiz uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo'lib borayotgani, ularda befarqlik, mas'uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko'rishga intilish kabi illatlar paydo bo'layotgani – achchiq bo'lsa-da, haqiqat" degan edilar. Shuningdek, jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlarida "profilaktika inspektorlari, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha ishlovchi mas'ul xodimlar va jamoatchilik vakillari uchun yoshlar, o'quvchilar va ularning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan ishlash bo'yicha axborotnomalar va metodik qo'llanmalar ishlab chiqish" kabi vazifalar belgilanib, bu borada o'smirlarda huquqbuzarlik va jinoat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiya sinining samarali metodikalarini aniqlash, tashkiliy chora-tadbirlar mazmuni, hamda barkamol yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan va jinoyat motivlarining oldini olishga qaratilgan ilmiy-psixologik tavsiyalar ishlab chiqishga oid ilmiy tadqiqotlarni samarali amalga oshirishni talab etadi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Voyaga yetmagan o'smirlar xulqi og'ishganligi muammosi bo'yicha turli soha vakillari, jumladan faylasuflar, sosiologlar, psixologlar, psixofiziologlar va pedagoglar B.G.Ananyev, G.M.Andreyeva, A.A.Bodalev, Ye.V.Shoroxova, A.V.Vedenov, Yu.M.Zabrodin, A.G.Kovalev, I.S.Kon, T.A.Kitvel, V.S.Merlin, V.N.Myasixev, I.P.Pavlov, QQPlatonov, Ye.D.Parigin, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, V.A.Yadov, I.Aizen, M.F.Fisehbein, T.Maslay va boshqalar o'z tadqiqot maqsadlariga asoslanib munosabatning turli yo'nalishlar bo'yicha tadqiqot obyektiga aylantirganlar va ma'lum darajada munosabat mezonini talqin qilishning nazariy-fundamental asoslarni yaratganlar. E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, N.S.Safoyev, Sh.R.Barotovlar, N.A.Yaxyarovlarning rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlarda o'smirlar xulqi og'ishganligining ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatidagi talqinlariga ma'lum darajada e'tibor qaratilgan. Shunday bo'lsada, maktab yoshidagi o'quvchilar uchun o'ziga xos qiyosiy tipik xarakterga ega bo'lgan xulq og'ishganligi ko'rsatgichlarini tadqiq qilish masalasi alohida ilmiy tadqiqot predmeti sifatida ko'rib chiqilgan.

Bu muammolar yechimiga ilmiy psixologik nuqtai nazardan yondashsak, axir, har qanday xatti-harakat (va hatto harakatsizlik) deyarli har doim o'z motiviga ega. Unda motivatsiya nima? Bu savolga ilmiy va asosli javob topish uchun jahon psixologiya fanida motiv va motivatsiya muammolari qanday tadqiq etilganligini tizimli o'rganish maqsadga muvofiqdir. Motiv va motivatsiyaga doir nazariyalarni o'rganar ekanmiz, bu tushunchaning aniq mazmuniy mohiyatini yoritish zarurati yuzaga keladi.

Chet el psixologiyasida motivlar va motivatsiyani o'rganishga bag'ishlangan qator tadqiqotlar mavjud bo'lib ular jahon psixologiyasiga qo'shilgan katta hissadir.

G'arb psixologiyasida motivatsiya muammolari dastlab Spinoza, Gobbs, Dekart asarlarida o'z ifodasini topganligini ko'ramiz. Ushbu masalalar bilan assosionistik, introspektiv, bixeviorizm, geshtalt psixologiya, psixoanaliz kabi psixologiya maktablarining namoyandalari keng ko'lamda shug'ullanganlar (U.Djeyms, E.Tolmen, K.Xall, K.Levin, S.Freyd va boshqalar).

Aslida, psixologiyada motiv (nemischa-“motive”, fransuzcha-“motif”, lotincha-“movere” so‘zidan kelib chiqadi)- harakat qilaman degan ma‘noni anglatadi. Zamonaviy psixologiyada motivatsiya atamasi sub’yektni faollikka undovchi yoki faolligini ta‘minlovchi kuch sifatida ishlatiladi. Motivatsiya ehtiyoj va instinktlarga, ehtiros va hissiyotlarga, munosabat va ideallarga mazmun bag‘ishlaydi.

Motivatsiyaning bir necha ta‘rifi mavjud:

Motivatsiya-bu harakat qilishga undovchi kuch;

Motivatsiya - har qanday faoliyat orqali insonning ehtiyojlarini qondirish qobiliyati;

Motivatsiya - bu insonning xatti-harakatini boshqaradigan va uning faoliyatini tashkiliy yo‘nalganligini, barqarorligini belgilaydigan dinamik psixofiziologik jarayon.

Motiv bu g‘oyaviy-ma‘naviy yoki moddiy ob’yektga yo‘nalgan harakatlar bo‘lib, uning muvaffaqiyati faoliyatning barqaror maqsadi va mazmundorligi bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda motivatsiya konsepsiyasiga munosabat turli olimlar tomonidan turlicha farqlanadi. Kimdir motivatsiyani inson faoliyatini yuzaga keltirgan jarayonlarning to‘plami deb mulohaza qiladigan bo‘lsa, boshqalari motivatsiyani maqsadga erishishga yo‘nalgan harakatlarning bir qismi deb baholaydi.

Ba‘zi nazariy tahlillarda motiv tez-tez ehtiyoj yoki maqsad bilan aralashib ketganligini kuzatamiz, ammo ehtiyoj bu noqulaylikni bartaraf etishga qaratilgan anglangan kechinmadir. Motiv - maqsadni belgilashning ongli jarayonidir. Misol uchun, ochlik ehtiyojni yuzaga keltiradi, ovqatlanish xohishi bu motivdir. Odamning qo‘li yetadigan, foydalanishga mo‘ljallangan mavjud oziq-ovqat esa maqsad hisoblanadi.

Motivatsiya yoki motiv o‘zining xilma-xilligi bilan farqlanuvchi murakkab psixologik hodisa hisoblanadi.

Motivatsiya nazariyasini o‘rganish va insonning ehtiyojlarini tahlil qilish, ularning mazmuni va uning motivatsiya bilan qanday bog‘liqligini aniqlash hamda ular odamni muayyan faoliyatga nimaga undashi kerakligini tushunish mazkur muammoni ilmiy asoslash va yechimini topishga yordam beradi. Ushbu ehtiyojlarni o‘rganish uch asosiy yo‘nalishning paydo bo‘lishiga olib keldi:

- motivatsiyaning tayanch (muhim) nazariyalari;
- motivatsiyaning prosessual nazariyalari;
- insonlarning o‘ziga xos qiyofasini o‘rganishga asoslangan motivatsiya nazariyalari.

Z.Freyd motivning qonun-qoidalarini faqat dinamik energetik holat tariqasida talqin qiladi. Bir guruh chet el psixologlarining fikriga qaraganda, motiv - bu tajriba va reaksiyalarning energetik jabhasidan iboratdir.

G.Ollport inson motivatsiyasi mohiyatini ochishda shaxsning shakllanishi va ijtimoiy mohiyatiga yo‘naltirilgan yondashuvni tatbiq etish g‘oyasini ilgari suradi. Uning o‘zini-o‘zi namoyon qilish nazariyasida shaxs motivatsiya sub’yekti tariqasida tahlil qilinadi. O‘zining shaxs konsepsiyasida shaxsni "ochiq tizim" sifatida talqin qilib, motivni quyi (biologik ehtiyoj) va yuqori (ma‘naviy rivojlanish) darajalarga ajratadi. Ollport motiv shaxsda o‘zak ekanligini ta‘kidlaydi, lekin ma‘naviy motivlarni ijtimoiy - tarixiy sharoitlar bilan uzviy aloqasi mavjudligini biroq diqqat -e‘tibordan chetda qoldiradi.

Nil Miller o‘z tadqiqotlarida motivatsiya muammosiga alohida e‘tibor bilan qarab, maqsadga sub’yekt qanchalik yaqinlashsa, unga erishishga yo‘nalganlik shunchalik kuchayadi: stimullarga sub’yekt qanchalik yaqinlashsa, unga ziyon keltirishdan chekinish, diskomfort hissa shunchalik ortadi. Noxush holatlardan chekinishning ifodalanganligi ehtiyojning kuchiga bog‘liqdir. Uning fikricha, motivatsiya nazariyasi quyidagi ko‘rinishga ega: ehtiyoj - kodlashish - mustahkamlanish. Ehtiyoj faollikni keltirib chiqaradi, agarda javob mustahkamlanmasa, u holda uni chiqarib tashlash tendensiyasi hukm suradi. Mabodo javob mustahkamlansa, puxtalashtirilsa, javob bilan kod o‘rtasida aloqa va mazmun-mohiyat tezroq vujudga keladi. Nazariyaning negizida ehtiyoj tizimi - kod - javob - mustahkamlash yotadi.

Amerikalik psixologlar Leyman Porter va Edvard Loulerlarning motivatsiya to'g'risidagi kompleks nazariyasi Broomning kutish nazariyasi va Adamsning adolat nazariyasi elementlarini o'z ichiga olishi bilan xarakterlanadi. Ushbu modelda beshta parametr mavjud: sarflangan kuch, aql idrok, olingan natijalar, mukofot va qoniqish darajasi. Ushbu nazariyaga ko'ra, natijalar insonning yo'nalgan xatti harakatlariga, qobiliyatlari va insoniylik xususiyatlariga, shuningdek, uning o'z o'rnini (mavqeini) aniqlashga bog'liqdir. Ish kuchi darajasi mukofotning qiymatini va amalga oshirilgan harakatlar muayyan mukofotni olib keladigan ishonch darajasini belgilaydi. Bu yerda ham inson o'z ehtiyojlarini muayyan natijaga erishish uchun mukofot bilan qondiradi.

Agar Porter-Louler nazariyasining barcha tarkibiy qismlari batafsil o'rganib chiqilsa va tahlil qilinsa, unda yanada yuqori darajada motivatsiya mexanizmini tushinish imkoniyati yuz beradi. Biror kishining sarflagan sayi-harakatlari unga yutuqqa erishishning qanchalik qimmatli bo'lishiga va insonning munosabatlariga bo'lgan ishonchiga bog'liq. Biror kishining muayyan natijalarga erishishi, unda qoniqish va o'z-o'zini hurmat qilishini ta'minlaydi.

Motivlarning falsafiy-metodologik ahamiyati shundan iboratki, ular sabab - oqibat, ichki murakkab bog'lanishlar tuzilishini yuksak darajada rivojlangan moddiy tizimning oliy mahsuli ekanligi to'g'risidagi xulosaga olib keladi. Motivlar tuzilishini amaliy (tatbiqiy) yo'nalishga qaratish inson shaxsiga motivasion, irodaviy, axloqiy, hissiy, kognitiv, regulativ ta'sir o'tkazishning omilkor shakllarining ilmiy asosi yuzaga kelishiga muhim imkon va zarur shart-sharoitlar yaratadi. Insonning mehnat faoliyati tizimining murakkablashuvi ishlab chiqarishda axloqiy, ma'naviy, nafosat, ruhiy tarbiya jabhalari hamda radio, televideniye va targ'ibot-tashviqot ta'sirini samarali olib borishi, kasbiy tayyorgarlikning ekstremal holatlarning sharoitlari barqarorlashuvi, takomillashuvi, yaxshilanuvi, maqsadga muvofiqlashuvi kabi omillarning barchasi shaxs motiv doirasining o'zgarishiga bog'liq. Shaxsning motiv doirasi uning ehtiyojlarida, irodaviy sifatlarida (aktlarida) va funksional imkoniyatlarida o'z aksini topadi.

Muhokama va natijalar tahlili. Avvalo shuni aytish kerakki, biz o'rganayotgan muammo doirasida ayrim olimlar tomonidan ko'pgina metodikalar milliy-madaniy muhitda qo'llanilgan bo'lsa-da, lekin ular foydalangan metodlar psixologik tadqiqotlar uchun yetarlicha axborot bera olmagan.

O'smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostik va psixokorreksion qonuniyatlarini chuqurroq, obyektiv ravishda tadqiq etish uchun izchillik bilan quyidagi psixologik metodlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bildik.

O'smirlarni o'zini tutishi, odamlarga, voqea-hodisalarga, narsalarga bo'lgan munosabati, dunyoqarashi va tarbiyalanganlik darajasini o'rganishga yo'nalgan kuzatish, taqqoslash, suhbat, ular faoliyati natijalarini tahlil qilish metodlaridan foydalanish mumkin. IPS (ijtimoiy psixologik so'rovnoma) tuzish va o'smirlarning motiv va motivatsiyasi, xususan, ularda jinoyat motivlari shakllanishiga ta'sir etuvchi tabiiy-biologik, moddiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik xususiyatli omillar va qonuniyatlar o'rganish mumkin.

Dastlab, biz o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishini ijtimoiy-psixologik asoslarini aniqlashga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (IPS)ni tayyorladik va undan foydalandik (mualliflar: prof A.Nazarov va tadqiqotchi M. Miralimov).

O'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishini tub sabablari va mohiyatini aniqlashga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (IPS) quyidagicha ilmiy-uslubiy tuzilishga ega. «Quyida sizga berilayotgan savollarga o'ylab, o'zingiz aynan to'g'ri deb bilgan sabab va omillarga tayanib aniq javob berishingizni (munosabat bildirishingizni) so'raymiz. Javoblaringiz hayotiy va real voqelikka asoslanib, ilmiy nuqtai nazardan baholanadi».

Tadqiqot uchun o'rganilayotgan (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7- jadvallardagi) o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishiga ta'sir etadigan muhim sabablar, omillar va manba'larni aniqlash uchun o'smirlar va ularning tarbiyasi uchun mas'ul kishilar tomonidan omillarning ahamiyatiga qarab tanlanishi aytiladi. Ular tomonidan tanlanganlik darajasi (o'rni) 1-o'rin (maksimal) dan 5-o'rin

(minimal)gacha belgilandi. Tadqiqot o'tkazilgandan so'ng yoshlarda uchrab qolayotgan jinoiy xatti-harakatlar manba'larini aniqlash uchun yoki belgilarning ahamiyat darajasi (o'rni)ni aniqlash va shunga nisbatan foiz imkoniyatini chiqarish maqsadida biz quyidagi tahlil (formula)dan foydalandik. 1-darajali deb tanlangan belgilar 5 imkoniyatga, 2-darajalilar 4 imkoniyatga, 3-darajalilar 3 imkoniyatga, 4-darajalilar 2 imkoniyatga, 5-darajalilar 1 imkoniyatga ega ekanligini belgiladik.

**O'smir xulq-atvorida jinoyat motivlari yuzaga kelishining manbalari n=150
(1-jadval)**

№	M A N B A L A R	Tanlov natijalari	
		O'rin	Foiz
11.	O'smirlardagi mavjud ehtiyojlarning qondirilmay qolishi ta'sirida	1	87,8
22.	Hayotiy zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy narsalarga o'zi xohlaganidek erishish maqsadida	2	80,9
33.	Tengdoshlari va jamoa orasida o'z mavqeini saqlash va barqarorlashtirish maqsadida	3	70,5
44.	O'zini namoyon qilish, o'z ta'sirini o'tkazish va o'zini tan oldirish uchun	4	72,6
55.	«Kuchlilik»ni qo'lga kiritish, boshqarishga erishish, o'z mavqeini ortirish hamda boshqalarga ta'sir doirasini kengaytirish maqsadida	5	63,3

Ijtimoiy-psixologik so'rovnomma (IPS) o'smirlar xulq-atvorini aniqlash va atroflicha o'rganishga yo'naltirilgan savollardan tarkib topgan bo'lib (1-jadval), ularning hayoti va faoliyatida ko'proq qaysi motivlar (xususan jinoyat motivlari) yetakchilik qilishi aniqlandi. So'rovnomma shunday tuzilganki, uni tashkil etgan savollar yordamida inson mohiyatini, uni shaxs sifatida shakllanishi va taraqqiyotini ta'minlaydigan tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-psixologik va tarbiyaviy-pedagogik omillarning ta'sir doirasini, ular o'rtasidagi qonuniyatlarning mushtarakligini, zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarning ahamiyatini baholash o'rganildi.

Natijalarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, o'rganilayotgan o'smirlarning xulq-atvorida jinoiy xatti-harakatlarni shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan motivlardan quyidagilar boshqa omillarga nisbatan ustunlik qilayotganligi aniqlandi.

Mazkur jadvalda bayon qilingan natijalar tahlili bizga o'smirlarda jinoyat motivlari yuzaga kelishining sabablari, manbalari va yo'nalganligini aniqlashga doir yaqqol tasavvurga ega bo'lishimiz uchun zarur edi.

Biz o'rgangan respondentlar tomonidan o'smirlar (11-15yosh) xulq atvorida yuzaga keladigan jinoyat motivlarining sabablari (manbalari) ulardagi mavjud ehtiyojlarning o'z vaqtida qondirilmay qolayotganligining ta'siri natijasi (1-o'rin 87,8%), sifatida baholandi. Bunda, birinchi navbatda o'smirning ota-onasi, yaqin qarindoshlari, o'qituvchilar va boshqa bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishi uchun mas'ul kishilar o'smirlarda kechadigan jismoniy-biologik, ma'naviy-psixologik va tarbiyaviy-pedagogik qonuniyatlarni bilishlari, shunga amal qilib yoshlar tarbiyasida doimiy nazoratda bo'lishlari, tarbiyada o'zgarishlar yoki yutuqlar bo'lganda muntazam kuzatish orqali ularni qayd qilib borishlari, o'smirning keyingi bosqich tarbiyaviy taraqqiyotini ta'minlash va to'g'ri yo'nalish olishi uchun kundalik zarur tarbiyaviy shart-sharoitlarni maslahatli va kengashilgan holda tashkil qilib takomillashtirib borishlari lozim bo'ladi.

Ana shunday tarbiyaviy jarayon va tarbiyaviy bosqichlarda (oilada, maktabda va mahallaguzarda) o'smirlardagi mavjud ehtiyojlarni qondirilmay qolishi yoki bu ehtiyojlarga

e'tiborsizlik, loqaydlik, o'zi bo'larchilikka qoldirish ular tarbiyasida qator muammolar shakllanishiga, eng muhimi o'smirlar xulq-atvorida ulardagi mavjud qondirilishi zarur bo'lgan ehtiyojlarni "O'smirlarga xos vaziyatdan chiqish" yoki muammoni yechish maqsadida noqonuniy yo'llar bilan, jamiyatda odamlar orasida, xususan o'smirlar o'rtasida amal qilib turgan qadriyatlar, urf-odatlar va me'yorlarga (xalq psixologiyasiga) amal qilmay, jinoiy xatti-harakatlarga tayanib, ulardan foydalangan holda amalga oshiriladi (erishiladi). Bunday holatda maqsadga osonlikcha erishish yoki noqonuniy xatti-harakatlarning tez-tez takrorlanib turishi o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishiga asos bo'ladi. O'smirlarda bunday chora va usullarning yuzaga kelishi, takrorlanishi natijasida sterotiplashishi (barqaror sifat va xususiyatlarga aylanishi) o'smirlar uchun hayotiy zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy narsalarga o'zi xohlaganidek erishish maqsadini motivasion tizimini shakllantiradi.

Biz olib borgan tadqiqotlarimiz tahlillariga ko'ra, respondentlarning (2-o'rin, 80,9%) o'smirlar xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishining muhim sabablaridan yana biri o'smirlar kundalik hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy narsalarga o'zi xohlaganidek erishish yo'llarini o'zi belgilashidir.

O'smirlarlik yoshida ko'zga tashlanadigan eng muhim xususiyatlardan biri, bu ularning o'zini-o'zi anglashga bo'lgan e'tiborlarining kuchayishidir. Bu o'rinda o'smir o'zida mavjud bo'lgan, endi yuzaga kelayotgan va yuzaga kelishi kutilayotgan (orzu qilgan) xususiyatlar, sifat va fazilatlariga o'rganadi, aynanlashtiradi, nazorat qiladi, baholaydi va ulardan amaliy turmushida va faoliyatida foydalanib ko'radi. O'zidagi mavjud imkoniyat va imkoniyatsizliklarni yaqinlari, tengdoshlari va boshqa yoshlarniki bilan taqqoslaydi farqlar va imkoniyatlarni baholaydi. O'smirlardagi bu xususiyat tengdoshlari va jamoa orasida o'z mavqeini saqlash va barqarorlashtirish choralarini ko'rishni taqozo etadi. Tadqiqotlarimizda o'rganilgan o'smirlarga xos ana shunday xususiyatlar ham ular xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishiga muhim sabab sifatida ta'sir qilishi aniqlandi (3-o'rin 70,5%).

O'smirlarda xulq-atvor rivojlanishining bunday tus olishi, motivasion yo'nalganlik o'z tengdoshlari va jamoa orasida "o'zini namoyon qilish, ularga o'z ta'sirini o'tkazish va o'zini tan oldirish" munosabat tizimini shakllantirib boradi. O'rganilgan respondentlar tomonidan o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishi uchun ana shunday xususiyatlarning mavjudligi (4-o'rin 72,6%) eng muhim sabablar sifatida e'tirof etilgan.

O'smir xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishining yuqori bosqichi sifatida yuzaga keladigan "Kuchlilikni qo'lga kiritish, boshqarishga erishish, o'z mavqeini ortirish hamda boshqalarga ta'sir doirasini kengaytirish"ga intilish (5-o'rin 63,3%) jinoiy xatti-harakatlarga tayyorgarlik, yo'nalganlik, natijalarga erishishni ta'minlash bosqichini ham ifodalaydi.

Bu holatlar aynan shunday o'smirlar yashayotgan oilalarda ota-ona munosabatlaridagi beqarorlik, tarbiyaviy jarayonlarga yengil-yelpi qarash oqibatida tarbiyaning yaxshi kechmayotganligi, oilaning moddiy va ma'naviy taqsimotidagi kamchiliklar, uzilishlar eng muhimi, oilaviy tarbiyada loqaydlik, beparvolik, o'zi bo'larchilikka qoldirish, e'tiborsizlik holatlarining hukm surishi natijasidir.

Tadqiqotlarimiz maqsadiga ko'ra 1-jadvalda bayon qilingan natijalar tahlili bizga o'smir xulq-atvorida jinoyat motivlari yuzaga kelishining manbalari va yo'nalganligini aniqlash maqsadida yaqqol tasavvurga ega bo'lishimiz uchun zarur edi. Biz shunga tayanib, o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining asosiy sabablarini aniqlashga harakat qildik. O'zbek milliy-madaniy muhitida shakllanayotgan o'smir yoshlar, ularning ota-onalari, o'qituvchilari, tarbiya uchun mas'ul huquq-tartibot organlari va jamoatchilik bilan o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining asosiy sabablarini aniqlash maqsadida tadqiqot ishlari olib borildi.

Xulosa. O'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi muammosini tadqiq qilishda hozirgi zamon psixologiyasi amaliyotida samarali qo'llashga mo'ljallangan insonning shaxslilik xususiyatlari, motivasion yo'nalganligi, hissiy-irodaviy holatlari va individual-tipologik imkoniyatlarini hamda ularning aqliy, axloqiy-ma'naviy, huquqiy tarbiyalanganlik darajasi va dunyoqarashini o'rganishga yo'nalgan ijtimoiy

psixologik so'rovnomalardan foydalanildi. Metodologik pozitsiyalarni birlashtirish esa bugungi kun o'smirlarining xulq-atvori, motivasion yo'nalganligi, tarbiyalanganlik darajasi va tarbiyaning istiqbolli andozalarini izchilroq o'rganish imkoniyatini yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. - Toshkent: O'zbekistan, NMIU, 2016. -56 b.
2. Norqulova N.T. Affiliatsiya motivi – talabalar ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omil // Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. T.: 2017, - 144 b.
3. Rasulova F.F. O'smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari // Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. T.: 2018, - 49 b.
4. Доценко Е. Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. – М.: ЧеРо, Издательство МГУ, 1997. - 344 с.
5. Макшанов С. И. Профессиональный тренинг // Психология профессиональной подготовки. - СПб.: Речь, 1993.- 154 с.
6. Miralimov M.Y. Voyaga yetmagan shaxslarda jinoyat motivlari shakllanishining psixologik xususiyatlari //Yosh avlodning psixologik salomatligi – davlat siyosatining ustuvor vazifasi ” mavzusida ilmiy – amaliy konferensiya materialllari. – Toshkent: 2023 13- noyabr. B 237-240.

Rustamov Shavkat Shuxrat o'gli

Buxoro davlat universiteti

Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Dehqonboyev Shohjahon Oybek og'li

Buxoro davlat universiteti

Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida magistranti

SUD PSIXOLOGIK EKSPERTIZASINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISHNING INNOVATSION VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada sud psixologik ekspertizasini tashkil qilish va o'tkazishning innovatsion va ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish borasidagi samarali faoliyat olib borish tartibi tahlil qilingan. Bundan tashqari sud psixologik ekspertizasini olib borish bosqichlari bo'yicha tavsiya va xulosalar ishlab chiqilgan. Shuningdek psixologik ekspertizaning asosiy vazifalari, ekspertga qo'yilgan talablar, psixolog ekspertining faoliyat olib boorish tartibi, huquqlari, majburiyatlari, burchlari haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** Ekspert, qobiliyat, psixik hodisalar, Sud tibbiy ekspertisasi, Kompleks ekspertizalar, tergov, affekt, stress, jinoiy ish.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО И ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

***Аннотация.** В данной статье анализируется порядок организации и проведения судебно-психологической экспертизы для осуществления эффективной деятельности с использованием инновационного и передового зарубежного опыта. Кроме того, разработаны рекомендации и выводы по этапам проведения судебно-психологической экспертизы. Также речь идёт об основных задачах психологической экспертизы, требованиях к эксперту, порядке осуществления деятельности экспертом-психологом, его правах, обязанностях, обязанностях.*

***Ключевые слова:** эксперт, способность, психические явления, криминалистика, комплексные экспертизы, следствие, аффект, стресс, уголовное дело.*

THE USE OF INNOVATIVE AND ADVANCED FOREIGN EXPERIMENTS IN THE ORGANIZATION AND CONDUCT OF FORENSIC PSYCHOLOGICAL EXAMINATION

***Abstract.** This article analyzes the procedure for organizing and conducting a forensic psychological examination and conducting effective activities on the use of innovative and advanced foreign experiments. In addition, recommendations and conclusions have been developed on the stages of conducting a forensic psychological examination. It also talks about the main tasks of psychological examination, the requirements for the expert, the procedure for conducting activities of the psychologist's expert, rights, obligations, duties.*

***Key words:** expert, ability, psychic phenomena, forensic medical examination, comprehensive examination, investigation, affect, stress, criminal case.*

Kirish. Respublikamiz hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlar hamda qadriyatlarimizning qayta tiklanayotganligi, milliy, madaniy va ma'rifiy meroslarimizdan xalqimiz hayotida, bolalar tarbiyasida keng foydalanilayotganligi kishilar o'rtasida mehr-oqibat, insoniylik, muruvvatlilik va olijanoblik kabi yuksak fazilatlarining

shakllanishiga zamin yaratish bilan bir qatorda yurtimiz fuqarolari turmush faravonligining oshishiga, ularda ertangi kunga nisbatan bo'lgan ishonch hissining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiy va siyosiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar bilan bir qatorda, o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, ertangi kuni, jismoniy va aqliy jihatdan barkamol rivojlanishlari borasida ham kishini quvontiradigan darajadagi ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylandi.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlariga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat.

Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari, qonun osti hujjatlari jumladan farmonlar, farmoyishlar, qarorlar va buyruqlar kabi tashkiliy huquqiy hujjatlar qo'llanilmoqda.

Yuridik psixologiya fanining nazariy va amaliy muammolari, fanni o'qitishdagi innovatsiyalar, o'quv dasturi, ma'ruza matnlari, keyslar, amaliy topshiriqlar, nazorat savollari shu kunga qadar oliy ta'lim muassasalarini professor-o'qituvchilari tomonidan etarli darajada o'rganilmaganligi yuridik psixologiya fani muammolarini, xususan sud psixologik ekspertiza mavzusi muammolarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Sud psixologik ekspertiza bugungi kunda huquqshunoslik amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud psixologik ekspertizasining mohiyatini to'laroq anglash va amaliyotga keng tadbiq etish uchun esa uning shakllanish yo'lini, tarixini bilish talab etiladi.

Huquqbuzarlik jarayonidagi ishtirokchilarning (ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchi) psixik xususiyatlarini tadqiq qilish va o'rganishga qiziqish qadim-qadimdan mavjud bo'lgan.

Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi, bir ijtimoiy tuzumning ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o'rnini bo'shatib berishi jamiyatda bir qator yangiliklarni, o'zgarishlarni keltirib chiqargan. Shu tariqa jamiyat rivoji barcha sohalar singari psixologiya ilmining ham rivojlanishiga turtki bo'ldi. Natijada huquqshunoslik amaliyotida psixologik sinovlarning ahamiyati yanada ortib, uni o'tkazish usullari takomillashib bordi. Bu o'z navbatida, tergov va sudlov jarayonlarining oshkoralik asosida, odilona olib borilishini ta'minladi. Biroq, tergov va sudlov jarayonlarining oshkora va odilona olib borilishi ko'p hollarda faqat sudya yoki tergovchining tajribasiga, ilmiga, malakasiga va vijdoniga bog'liqligicha qolaveradi. Bunday holat tabiiy ravishda sudlov va tergov jarayoniga boshqa sohalarning ham aralashishi zaruriyatini keltirib chiqardi. Dastlab sudlov jarayonida psixologlar voyaga yetmaganlarning psixik rivojlanishi xususiyatlarini, xotira, tafakkur jarayonlarini tadqiq qilish bilan shug'ullana boshladilar.

Sud psixologik ekspertiza bugungi kunda huquqshunoslik amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud psixologik ekspertizasining mohiyatini to'laroq anglash va amaliyotga keng tadbiq etish uchun esa uning shakllanish yo'lini, tarixini bilish talab etiladi.

Huquqbuzarlik jarayonidagi ishtirokchilarning (ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchi) psixik xususiyatlarini tadqiq qilish va o'rganishga qiziqish qadim-qadimdan mavjud bo'lgan.

Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi, bir ijtimoiy tuzumning ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o'rnini bo'shatib berishi jamiyatda bir qator yangiliklarni, o'zgarishlarni keltirib chiqargan. Shu tariqa jamiyat rivoji barcha sohalar singari psixologiya ilmining ham rivojlanishiga turtki bo'ldi. Natijada huquqshunoslik amaliyotida psixologik sinovlarning ahamiyati yanada ortib, uni o'tkazish usullari takomillashib bordi. Bu o'z navbatida, tergov va sudlov jarayonlarining oshkoralik asosida, odilona olib borilishini ta'minladi. Biroq, tergov va

sudlov jarayonlarining oshkora va odilona olib borilishi ko'p hollarda faqat sudya yoki tergovchining tajribasiga, ilmiga, malakasiga va vijdoniga bog'liqligicha qolaveradi. Bunday holat tabiiy ravishda sudlov va tergov jarayoniga boshqa sohalarining ham aralashishi zaruriyatini keltirib chiqardi. Dastlab sudlov jarayonida psixologlar voyaga yetmaganlarning psixik rivojlanishi xususiyatlarini, xotira, tafakkur jarayonlarini tadqiq qilish bilan shug'ullana boshladilar.

Huquqshunoslik amaliyoti tarixidan ma'lum bo'lishicha, ilk marta 1810 yilda Napoleon "jinoyat kodeksi"ga o'z xatti-harakatlarini boshqara olish yoki boshqara olmaslik (vnmenyaemost, nevmenyaemost) layoqatini aniqlash tushunchasini kiritdi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bir qator mamlakatlarning jinoyat protsessual kodekslariga ayblanuvchining o'z xatti-xarakteriga javob bera olish yoki javob bera olmasligini aniqlashga doir tibbiy tushunchalar ham kiritila boshlandi.

Rossiyada 1864 yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlov nizomiga psixiatrik ekspertiza o'tkazish zarurligi to'g'risidagi kodeks qo'shilgan edi. Ushbu psixiatrik ekspertiza tarkibida psixologik ekspertiza o'tkazish ham ko'zda tutilgan. Shu vaqtdan e'tiboran Rossiyada psixologik ekspertiza o'tkazila boshlandi.

Asrimizning o'rtalariga kelib, eksperimental psixologiya sohasi bo'yicha erishilgan yutuqlardan sud amaliyotida ham foydalanila boshlandi. Ushbu yo'nalish bo'yicha laboratoriyalar tashkil etilib, ularda jinoyatchi shaxs xulqi o'zgarishlari, fiziologik affekt holati va shu kabilar o'rganila boshlandi.

1922 yilda Rossiya Federatsiyasida birinchi marta jinoyat protsessual kodeksi qabul qilindi. Asrimizning boshlarida sobiq ittifoqning bir qator shaharlarida jinoyatchi shaxsini o'rganish bo'yicha markazlar ochilib, ularda sud psixologik ishlari olib borila boshladi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, psixologik ekspertiza xizmati yana rivojlana boshladi. Psixologik ekspertiza sohasining rivojlanib borishi natijasida asta-sekin uning vazifasi, tergov va sud jarayoniga aralashuv chegarasi aniqlashib bordi. Bugunga kelib psixologik ekspertizaning vazifasi, o'rganuvchi sohasi xususidagi anglashilmovchilik, tushunchovchiliklar barham topdi.

O'zbekistonda XX asrning 70-80-yillaridan boshlab, psixologiya, huquqshunoslik psixologiyasi, kriminal psixologiya fanlari muayyan darajada rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bu sohadagi o'zgarishlar yanada yaqqol sezila boshladi. Qonunchiligimiz asosi rivojlangan dunyo mamlakatlari tajribasidan foydalanilgan holda xalqaro talablar asosida qayta ko'rib chiqilib, yangilandi va takomillashtirildi. Sud ekspertizalari va shu jumladan, sud psixologik ekspertizasiga nisbatan yangicha yondashuvlar yuzaga keldi.

Sud-psixologik ekspertizasini o'tkazish

Sud psixologik ekspertisasi O'zbekiston Respublikai JPKning tegishli moddasiga binoan tergovchi tomonidan chiqarilgan qarorga ko'ra tayinlanadi. Sudda esa ko'rilayotgan ishda psixologik mazmundagi vaziyatlarning mavjudligi haqida va ularning tergov jarayonida o'z yechimini topmaganligiga shubha tug'ilgan holatlarda sudya tomonidan chiqarilgan qarorga binoan sud psixologik ekspertisasi tayinlanadi. Bu xildagi protsessual hujjatlarda ekspertizadan o'tkazilishi lozim bo'lgan shaxs, uning sodir etgan jinoiy xatti-harakati haqidagi qisqacha bayonnoma hamda ushbu sodir etilgan jinoiy xatti-harakatda psixologik mazmundagi holatlarning mavjudligiga asoslanib, sud psixologik ekspertizasini tayinlash zarurligi to'g'risidagi fikr aks etgan bo'lishi lozim. Shuningdek, ushbu hujjatda ekspert aniqlanib, uning oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan savollar qo'yilishi kerak.

Jinoyat protsessual qonun talablariga ko'ra tergovchi tayinlangan barcha ekspertizalarda, jumladan, sud psixologik ekspertisasi o'tkazish jarayonida ham qatnashish huquqiga ega. Biroq qonunni inkor qilmagan holda, bizning nazarimizda, tergovchining sud psixologik ekspertizasida qatnashishini har doim ham maqsadga muvofiq deb bo'lmaydi. Chunki ayrim

hollarda psixologik eksperiment o'tkazish jarayonida tergovchining qatnashishi sinaluvchi uchun teskari ta'sir qilishi, ya'ni uning ko'nglidagi fikr-mulohazalarini ochiq-oydin ayta olmasligiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ayblanuvchi o'z jinoyatini tergov jarayonida tan olmagan bo'lsa, psixologik ekspertiza jarayonida jinoyatni sodir etganligini bo'yniga olishi mumkin. Bunday vaziyatda ekspert ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini tan olganligini ta'kidlab, jinoyatning sodir etilish holatlarini ekspertiza xulosasida ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Bizning nazarimizda, psixologik ekspertizaning bunday vaziyatlarni yoritib berishi ko'rilayotgan ishning muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, unutmazlik kerakki, psixologik ekspert ushbu xulosalarni faqat o'rganilayotgan ayblanuvchiga nisbatangina berishi zarur. Agarda ekspertiza uchun qo'shimcha ma'lumotlar olinishi lozim bo'lsa, ekspert-psixolog boshqa mutaxassislarni ham ekspertizaga taklif qilish huquqiga ega. Sudda sud psixologik ekspertizasini o'tkazish dastlabki tergov jarayonida o'tkaziladigan psixologik ekspertizaga qaraganda bir qator o'ziga xosliklarga egadir. Xususan, sudda ekspert-psixolog jinoyat ishiga taalluqli bo'lgan holatlar bo'yicha, ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini isbotlash jarayonida, uni so'roq qilishda va hokazolarda bevosita ishtirokchi sifatida qatnashadi. U psixologik tadqiqot jarayoniga zarur boshqa kishilarni taklif etishi va ish yuzasidan yangi daliliy ko'rsatmalarni talab qilishi ham mumkin.

Sud psixologik ekspertizasini tayinlashdagi muhim jihatlardan biri ekspert tanlashdir.

Shuning uchun biz quyida psixolog ekspertlar tanlash masalasi bo'yicha batafsilroq fikr yuritamiz.

1. Ekspert komissiyasi tarkibi kamida uchta mutaxassisdan iborat bo'lishi lozim. Chunki mutaxassislar hamkor va hamfikir bo'lib birgalikda ishlashadi, buning natijasida ekspertizadagi xatoliklarning oldi olinadi.

2. Psixologik ekspertiza o'tkazishga 5 yildan kam bo'lmagan mehnat stajiga ega bo'lgan psixologlar, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining psixologiya kafedrasida ishlayotgan xodimlar yoki ilmiy tadqiqot institutlarining psixolog ilmiy xodimlari jalb qilinishi maqsadga muvofiqdir.

3. Ekspert komissiyasi tarkibida huquqshunoslik psixologiyasi bo'yicha mutaxassis xodim hamda huquqshunos bo'lishi shart. Chunki, oliy o'quv yurtlari psixologiya bakalavriat yo'nalishini tugatgan psixologlar ko'pincha ekspertizaning huquqiy asoslariga, protsessual mohiyatiga taalluqli bo'lgan huquqiy tushunchalarni yetarlicha bilmasliklari mumkin.

4. Katta yoshdagi shaxsni sud psixologik ekspertizasidan o'tkazishga umumiy va yuridik psixologiya mutaxassislarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Voyaga yetmagan yoshlarni sud-psixolog mutaxassisi bilan birgalikda bolalar psixologiyasi mutaxassisi, keksa yoshdagi kishilarni esa gerontopsixologiya yo'nalishidagi mutaxassislar ishtirokida sud-psixologiya ekspertizasidan o'tkazish lozim.

Psixologik-psixiatrik kompleks ekspertizasini o'tkazishda komissiya tarkibiga umumiy psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, sud patopsixologiyasi mutaxassislari va psixiatrlar kirgani ma'qul.

Tibbiy-psixologik ekspertiza komissiyasi tarkibiga esa yuqoridagi mutaxassislardan tashqari sinaluvchining kasalligi bo'yicha (agar u mavjud bo'lsa) nevropatolog, logoped, seksopatolog, okulist va boshqa mutaxassislarning qatnashishi ayni muddaodir.

Psixolog-texnik ekspertizalar injenerlik, mehnat psixologiyasi mutaxassislari va albatta, texnik mutaxassis ishtirokida o'tkazilishi shart.

Sud psixologik ekspertizasining bosqichlari. Sud psixologik ekspertizasi bir qator bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Ekspertlarning jinoyatni isbotlash maqsadida o'tkazilgan jarayonidagi ishtiroki;
2. Tadqiqotni o'tkazish;
3. Xulosa uchun ahamiyatli bo'lgan vaziyatlarni oydinlashtirish;
4. Tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish va xulosani bayon etish;
5. Ekspertlarni so'roq qilish.

Ekspert psixolog vazifasi nuqtai nazaridan ekspertizani ishga doir materialni o'rganishdan boshlanadi. Shuningdek, taqdim qilingan ish bo'yicha maxsus adabiyotlar bilan tanishish va metodika tanlash jarayoni ham amalga oshiriladi. So'ngra dastlabki asosiy eksperiment o'tkaziladi. Eksperiment natijalarini qayta ishlash va uni asoslash, xulosa qilish hamda uni sud yoki tergovga taqdim qilish ham psixolog-ekspertning vazifasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Березин Ф.Б., Мирошников Н.П., Рожанес Р.В. Методика многостороннего исследования личности. М., 2005.
2. Богданов В.М. Психологические особенности профессионального мышления работников уголовного розыска. Омск. 1994.
3. Zokirov I.B. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi (1-qism). Darslik. - Toshkent: TDYuI, 2009.
4. R.Qobilov, A.A. Otajonov va boshqalar Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik.– T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.
5. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) Darslik. Usmonaliyev M, Bakunov -T., "Nasaf" 2012.

Абилова Гавхар Уринбековна
Исследователь Навоийского государственного
педагогического института

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИНФОРМАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ ВЕБИНАРОВ

Аннотация. В данной статье рассмотрены педагогические возможности информационной образовательной среды при организации вебинаров. Информационные и коммуникационные технологии заключаются в том, что новизна и оригинальность технологий с точки зрения человеческого развития проникают во все их сферы, что делает их доступными для неограниченного пространства и целей. Сообщается, что подобные информационно-коммуникационные технологии позволяют преодолевать препятствия в процессе развития человечества с огромным эффектом, которого раньше не было в трёх направлениях.

Ключевые слова: вебинар, докладчик, материал, аудитория, общение, индивидуальное и групповое консультирование, электронные библиотеки, сайты, система образования, электронные сети, инновации, традиционные методы.

VEBINARLARNI TASHKIL QILISHDA AXBOROT TA'LIM MUHITINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada vebinarlarni tashkil qilishda axborot ta'lim muhitining pedagogik imkoniyatlari hamda vebinarlarni tashkil etishda ta'lim muhitining pedagogik imkoniyatlari o'rganilgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o'ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat. Shu kabi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uch yo'nalishda ilgari bo'lmagan juda katta samara bilan insoniyat rivojlanishi jarayonidagi to'siqlarni yengib o'tish imkon berishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: vebinar, ma'ruzachi, material, auditoriya, muloqot, individual va guruh maslahati, elektron kutubxonalar, saytlar, ta'lim tizimi, elektron tarmoqlar, innovatsiyalar, an'anaviy usullar.

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF THE INFORMATION EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN THE ORGANIZATION OF WEBINARS

Abstract. This article discusses the pedagogical possibilities of the information educational environment in the organization of webinars, as well as the pedagogical possibilities of the educational environment in the organization of webinars. Information and communication technologies consist in the fact that the novelty and originality of technologies from the point of view of human development penetrate into all their spheres, which makes them available for unlimited space and purposes. It is reported that such information and communication technologies make it possible to overcome obstacles in the process of human development with a huge effect, which was not previously in three directions.

Key words: webinar, speaker, material, audience, communication, individual and group counseling, electronic libraries, websites, education system, electronic networks, innovations, traditional methods.

Введение. Само слово “вебинар” пришло в русский язык из английского. В оригинале “webinar” – слияние двух английских слов “web” и “seminar”, что очень точно описывает суть любого вебинара - семинар в сети интернет.

Вебинары – это семинары в онлайн-режиме, не требующие личного присутствия слушателей в аудитории. Всё, что необходимо – стабильное подключение к сети интернет. Вебинары по своей сути мало чем отличаются от лекций: докладчик готовит материалы, слайды и иные наглядные пособия; взаимодействует с аудиторией, отвечая на вопросы и помогая лучше усвоить информацию.

Для тех, кто постоянно совершенствует профессионализм, осваивает новые горизонты, вебинар - возможность обучиться не выходя из дома, получать концентрированную информацию, качественный материал из первых рук, независимо от географического местонахождения, в режиме онлайн. Во время лекции студент обеспечен качественной и оперативной обратной связью, благодаря чему информация усваивается активнее и эффективнее.

Формат обучающих вебинаров предполагает: использование наглядных материалов, методических пособий, нередко даже выполнение и проверку домашних работ, экзамены с выдачей соответствующих сертификатов. Это мало чем отличается от академического образования – разве что, не приходится ходить на лекции и выезжать на сессии.

Подготовка вебинара. Без предварительной тщательной подготовки качественно провести вебинар не получится. В подготовку входят: сбор материалов по теме; написание контента – хотя бы тезисно; разработка слайдов и иных пособий.

Но начинать, конечно, следует с плана мероприятия. Если вебинар предполагает участие нескольких спикеров, необходимо пригласить соведущих заранее и обязательно скоординировать действия. В роли соведущих могут выступать как эксперты в заявленной теме, так и люди без регалий и официальных званий, имеющие в ней опыт и готовые им делиться.

Анализ. Вебинаром называют онлайн-семинар, который организован путём использования web-технологий. Проводится он в режиме прямого эфира, предусматривает взаимодействие между участниками двух сторон. Ведущим вебинара является преподаватель, роль которого заключается в предоставлении информации. Также при необходимости он даёт ответы на возникшие вопросы. Второй стороной или слушателями выступают ученики – аудитория может состоять из 2-х и более человек.

В учебном процессе функции вебинара и обычного урока схожи:
обучающая (предоставление и объяснение слушателям учебного материала);
консультативная (любой ученик может задать вопрос в чате);
контролирующая (интерактивный опрос или голосование).

Для проведения вебинаров существуют разные платформы, которые позволяют не только прочесть лекцию, но и выполнить опрос, демонстрацию графического контента, совместную работу с учениками. Сочетание всех возможностей гарантирует решение разнообразных дидактических задач.

К плюсам использования данной формы образовательного процесса относят:

- ✓ возможность проведения обучения на удаленном расстоянии, что удобно для педагогов и детей, которые по определенным причинам не могут присутствовать в учебном заведении;
- ✓ наличие незамедлительной обратной связи – в любой момент преподаватель может проконсультировать слушателя по интересующему вопросу;
- ✓ педагогу проще использовать целый спектр технического обеспечения для проведения урока;
- ✓ комфортные условия обучения (просмотреть вебинар можно в любом месте);
- ✓ экономия средств и времени;

Не всем детям легко самостоятельно изучать учебный материал, который преподаватель просто высылает на почту. Вебинары стирают обезличенность обучения и делают дистанционный процесс более приближённым к очной форме, что помогает многим ученикам существенно повысить свою успеваемость. Также при необходимости ребёнок может в любое время просмотреть запись урока.

Виды вебинаров:

По своей организации вебинары делят на следующие виды:

- обучающий – в форме лекции, на которой показывают презентацию материала по конкретной теме, включает несколько опросов в течение занятия;
- инструктаж – тренинг по особенностям и правилам выполнения лабораторных работ;
- опрос – семинар проводят с целью получения у учеников устных ответов на вопросы по темам, изученным ранее;
- практическое занятие – на данном вебинаре педагог показывает детям, как правильно выполнять задания по выбранной дисциплине;
- коммуникативный (консультация) – индивидуальное или групповое общение с учениками по интересующим их вопросам.

Рекомендации педагогам.

При подготовке вебинара эксперты рекомендуют соблюдать некоторые нюансы:

Время проведения урока не должно превышать стандартную продолжительность очного занятия. Преподносимая информация должна быть рассчитана именно на такой период, чтобы не спровоцировать перегрузку у учеников.

Темы для вебинаров преподаватель должен выбирать, исходя из учебной программы и рекомендаций по выполнению индивидуальных заданий. Проведение онлайн урока на стороннюю тему должно быть согласовано с руководством образовательного учреждения.

Во время проведения вебинара педагог должен обязательно выделить ключевые проблемные моменты темы. Также в конце урока рекомендуется выделить типичные ошибки учеников при выполнении практических и контрольных работ.

Перед аудиовизуальным контактом педагогу важно проконтролировать свой внешний вид. Важно настроиться на позитивное общение, поэтому лучше начинать урок с улыбки.

Не стоит сразу начинать тему урока. Особенно это правило касается первого вебинара. На первом слайде преподаватель может разместить информацию о себе. Далее можно перейти к вводно-мотивационному этапу. В нём педагогу необходимо рассказать, почему данная тема важна. Для повышения мотивации к участию в вебинаре часто используют тематические иллюстрации.

При проведении онлайн урока старайтесь держать визуальный контакт с аудиторией, а не смотреть только на клавиатуру или экран. У слушателей при этом возникает впечатление, что от них «прячут глаза». В психологическом контексте такое поведение расценивается как неискренность. Постарайтесь хотя бы периодически направлять взгляд на видеокамеру и задавать вопросы по типу «Всё ли вам понятно?», «Хорошо меня слышно?».

После объяснения определённого момента темы нужно подождать, пока ученики напишут вопросы в чате. Не все обладают быстрой скоростью печатания, поэтому допустимо уточнить, все ли успели написать вопросы.

Чтобы оформить презентацию, часто используют PowerPoint. Изучить правила работы с данной программой и методику создания электронных лекций можно в специальном онлайн пособии, также данная информация представлена на разных сайтах.

Вебинар не должен представлять собой монотонное зачитывание материала, как часто происходит на лекциях. Преподавателю нужно выбрать познавательные слайды и

комментировать их, делая упор на проблемах, возникающих при непонимании материала. В процессе занятия детей необходимо вовлекать в него с помощью различных вопросов по увиденному.

Когда идёт трансляция слайдов, лучше отключать видеокамеру. Это сэкономит трафик слушателей.

Перед первым онлайн уроком учеников нужно научить безбоязненно общаться в чате. Для этого допустимо провести небольшой опрос на отвлечённую тему, а затем педагог должен прокомментировать его результаты.

Если во время подачи материала приходится растянуть окно презентации на весь экран, то оно скроет чат вопросов. По окончании обсуждения обязательно нужно вернуть стандартную форму вебинара.

Чтобы ученики смогли сохранить важные слайды, предложите им сделать скриншоты и разместить их в вордовском документе. Оптимальным вариантом будет создание электронного конспекта по каждой дисциплине.

Заключение. В заключительной части вебинара нужно подвести итог путём повторения главных вопросов, поставленных в начале занятия, и дачи на них ответов. Также для лучшего усвоения материала рекомендуется выдать одно или несколько задания по ключевым моментам темы.

Педагогу не стоит забывать, что перед вебинаром лучше все материалы дополнительно просмотреть. Это позволит выявить возможные недочёты или нестыковки, возникшие при создании презентации.

Недостатки. В отличие от стандартной формы обучения педагогу придётся затратить больше времени на подготовку к занятию. Кроме поиска нужного материала ему предстоит разобраться в особенностях создания презентаций и других нюансах работы на конкретной платформе, адаптировать учебный курс к интерактивному варианту преподавания.

Не все люди могут самостоятельно быстро освоить подходящий вариант программного обеспечения для проведения вебинаров. Некоторым приходится обращаться к специалистам, чтобы разобраться во всех вопросах.

Также первое время учителя, привыкшие к стандартному образовательному процессу, не могут вести онлайн лекцию без присущей им эмоциональности. Педагогам приходится адаптироваться совместно с учениками, поэтому они не всегда чувствуют себя комфортно.

Некоторые преподаватели считают, что вебинар ограничивает связь с учениками, так как нет визуального контакта. При этом всё приходит с опытом. Желание обучиться новым технологиям позволит за короткий период преобразить вашу лекцию в живое занятие.

Список использованной литературы

1. Бережнова Е.В. Университетская лекция и её роль в повышении качества магистерских диссертаций // Педагогическое образование в России. 2015. №1. С. 16–21.
2. Воевода Е.В. Использование мультимедиа технологий в профессиональной языковой подготовке специалиста-международника. Монография. М.: МГУП, 2009. 146 с.
3. Калинина С.Д. Предпосылки использования дистанционных образовательных технологий в системе высшего профессионального образования // Педагогическое образование в России. 2015. №1. С. 11–15.
4. Педагогические технологии дистанционного обучения. Под ред. Е.С.Полат. М.: Академия, 2008. 400 с.

5. Раицкая Л.К. Учебно-познавательная деятельность студентов в информационно-образовательной среде Интернет. Учебно-методическое пособие. М.: МГОУ, 2012. 144 с.

6. Сайт E-SOFT Development. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: [http://www.web-learn.ru/biblioteka-online/52-вебинар-\(webinar\)](http://www.web-learn.ru/biblioteka-online/52-вебинар-(webinar)). Дата обращения 22.02.2015.

7. Форсайт «Образование-2030». [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.slideshare.net/asi_mp/2013-931?utm_source=slideshow02&utm_medium=sememail&utm_campaign=share_slideshow_loggedout Дата обращения: 21.02.2015.

8. Фролов Ю.В. Подготовка и проведение вебинаров. Учебно-методическое пособие для преподавателей, студентов и слушателей системы повышения квалификации. М.: МГПУ, 2011. 30 с.

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich

Buxoro davlat universiteti
Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar
kafedrası dotsenti, (PhD)

INFORMATIKA O'QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK KOMPETENTLIK OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari hamda, tashkiliy-pedagogik kompetentlikning tuzilishi, komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlari hamda informatika o'qituvchilarining tashkiliy faoliyatiga oid turli xil adabiyotlar tahlili olib borilgan.

Kalit sozlar: tashkiliy-pedagogik kompetentlik, axborot-kommunikatsiya, metodik tayyorgarlik, kasbiy faoliyat, pedagogik kuzatuv, ntervyu, modellashtirish, suhbat, pedagogik eksperiment, qobiliyat.

ФАКТОРЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ

Аннотация. В данной статье проведён анализ педагогико-психологических факторов развития организационной компетентности у будущих учителей информатики, а также структуры, компонентов, критериев и показателей организационно-педагогической компетентности и различной литературы, касающейся организационной деятельности учителей информатики.

Ключевые слова: организационно-педагогическая компетентность, информационно-коммуникативная, методическая подготовка, профессиональная деятельность, педагогическое наблюдение, НТВ-интервью, моделирование, беседа, педагогический эксперимент, одаренность.

FACTORS OF PEDAGOGICAL COMPETENCE IN INFORMATICS TEACHERS

Abstract. This article carried out an analysis of pedagogical-psychological factors for the development of organizational competence in future teachers of informatics, as well as various literature on the structure, Components, criteria and indicators of organizational-pedagogical competence and the organizational activities of teachers of Informatics.

Key words: organizational and pedagogical competence, information and communication, methodological training, professional activity, pedagogical observation, ntervyu, modeling, conversation, pedagogical experiment, admission.

Kirish. Mamlakatimizda so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini tubdan takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, masofali ta'lim olish mazmunining takomillashtirilishi, pedagogik jarayonni tashkil etishda Informatika sohasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishda bo'lajak o'qituvchi shaxsining informatik kasbiy tayyorgarligining tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi.

Dunyo ta'limi va ilmiy tadqiqot muassasalarida maxsus tashkil etilgan platformalarda auditoriya va undan tashqari faoliyat jarayonida pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, aksiologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni tashkiliy-pedagogik faoliyatiga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik tizimini ishlab chiqishga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak informatika o'qituvchilarini

tayyorlashda axborot va internet texnologiyalari, ta'lim, jamiyatni axborotlashtirishning global jarayonlari, shaxsiy axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlashning kooperativ ta'limga asoslangan texnologiyalarini takomillashtirish, globallashtirish sharoitida talabalarda tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish, informatsion texnologiyalar vositasida jamiyatni hamda o'z shaxsiyatini rivojlantirishga imkon beruvchi ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Turli xil mamlakatlaridan O.Jigalova, V.Koropovskaya, V.Kotenko, G.Kruchinina, A.Kurbatskiy, M.Lebedeva, N.Listopad, N.Nurmagomedova, A.Pimenova, O.Sadikova, V.Suranov, T.Sepik, N.Tolstova, I.Falina, T.Shastun kabilarning tadqiqotlarida informatika o'qituvchisining kasbiy, metodik tayyorgarligi, pedagogik shart-sharoitlari, informatika o'qituvchisining kasbiy, maxsus-texnologik, tashkiliy-pedagogik kompetentligi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyalarining xususiyatlari yoritib berilgan.

D.M.Esonbayevaning "Informatika va hisoblash texnikasi asoslaridan noan'anaviy darslar va ularni o'tish metodikasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-9-sinflarida informatika ta'limida noan'anaviy darslar tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan va noan'anaviy dars texnologiyalarining mazmun-mohiyati ochib berilgan [1].

D.B.Abduraximovning "Kasb-hunar kollejlari informatikani ta'lim turlari aloqadorligida o'qitish metodikasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida kichik mutaxassislarining malakasini oshirishda informatika sohasida internet va masofaviy ta'lim asosida o'qitish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan[3].

M.E.Mamarajabovning "Kasb-hunar kollejlari informatika fanining "Amaliy dasturiy ta'minoti" bo'limi mazmuni va o'qitish metodikasi (Excel va Power Point dasturlari misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishida kasb-hunar kollejlari informatika fanida "Excel va Power Point dasturlari" mavzularini o'qitish metodikasi va "Excel dasturi" mavzusiga oid elektron darslikdan tashkil topgan yangi avlod o'quv metodik materiallar majmuasi ishlab chiqilganligini ko'rishimiz mumkin [7].

A.G.Haitovning "Umumiy o'rta ta'limda informatika va hisoblash texnikasi asoslarini o'qitishni kompyuterlashtirish nazariyasi va amaliyoti" mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishida kompyuterli ta'lim, kompyuterli o'qish faoliyati, kompyuter bilan bog'lik jihatlarni tahlil etish pedagogik dasturiy vositalarning samaradorligini ta'minlashda ahamiyatli ekanligi nazariy jihatdan isbotlab berilgan.

M.Aripovning tadqiqot ishlarida fizika-matematika yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun MathCad dasturi bazasida virtual laboratoriyalar yaratilgan. Shuningdek, muallif tomonidan oliy ta'lim muassasalari kafedralarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning faollik reytingi tizimi ham ishlab chiqilganligini ko'rishimiz mumkin[6].

Ilmiy manbalarning nazariy tahlili zamonaviy o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi tizimini shakllantirishda asos qilib olingan asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatish imkonini berdi. Ularning kaliti zamonaviy o'qituvchining "umr bo'yi ta'lim" sharoitida kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini shakllantirish g'oyasidir. Ushbu yo'nalish zamonaviy o'qituvchining doimiy o'zini o'zi rivojlantirish va o'z-o'zini o'rganishga tayyorligini shakllantirish orqali shaxsiy va kasbiy rivojlanishini o'z ichiga oladi.

Bo'lajak informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati mazmunini o'rganish natijasida uning tarmoqlangan tuzilishga egaligi, faoliyat turlari va tegishli shaxsiy xususiyatlarni aks ettirishi ma'lum bo'ldi.

Qidiruv faoliyati kasbiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plashdan iborat bo'lib, u ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qilishi, natijada yangi ilmiy bilimlar "tug'ilishi" mumkin.

Konstruktiv faoliyat qidiruv faoliyatining yakuniy bosqichi bo'lib, yangiliklarni izlash natijasida texnik obyektlarni qurish (tashkil etish)ni o'z ichiga oladi.

Loyihalash faoliyati o'rganilayotgan hodisalarning dastlabki shartlarini, omillarini va xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish, va modelni yaratishdan iborat.

Analitik faoliyat dizayn faoliyatidan keyingi faoliyat sifatida strukturani baholash va tushunish, munosabatlarni aniqlash, obyektlarning individual xususiyatlarini hisobga olish, shuningdek, kasbiy mahorat darajasini aniqlash imkonini beradi.

Kommunikativ faoliyat muloqot jarayonida kerakli ma'lumotlarni olishdan iborat bo'lib, u muloqot, axborot almashish, tushunish uchun so'z yasashdan iboratdir[4].

Ijtimoiy faoliyat oldingi faoliyatning ijtimoiy natijalarini baholashni va individual bosqichlarni mumkin bo'lgan moslashtirishni ta'minlaydi. U mutaxassisning umume'tirof etilgan qadriyatlar, huquq, davlat va jamiyatga munosabatini qamrab oladi, shuningdek, ijtimoiy tajribani o'z qadriyatlari va yo'nalishlariga aylantirish jarayoniga hissa qo'shadi.

Fikrlash faoliyati o'z fikrlarini rivojlantirish va mavjud qarashlarni qo'shimcha ravishda o'zgartirish jarayonini o'z ichiga olib reproduktiv bilimlarni to'ldiradi[4].

Tahlil va natijalar. Psixologik-pedagogik adabiyotlar asosida mualliflar oliy ta'lim muassasalarida malakalarning turlicha tasnifini beradilar. Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahliliga asoslanib, bo'lajak informatika o'qituvchisiga xos bo'lgan ko'nikmalar guruhiga quyidagilarni kiritish mumkin deb hisoblaymiz:

1) gnostik ko'nikmalar - ishlab chiqarish bilimlarini o'zlashtirish, yangi ma'lumotlarni olishni ta'minlash, undagi asosiy, muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish, ilg'or tajribalarni umumlashtirish va tizimlashtirish sohasidagi kognitiv ko'nikmalar;

2) konstruktiv-texnik ko'nikmalar – integrativ dizaynga oid ko'nikmalar;

3) umumiy pedagogik ko'nikmalar – sxemalarni o'qish va tuzish, hisob-kitob va grafik ishlarni bajarish, informatika va axborot texnologiyalari kursining mazmun yo'nalishlarini o'rganishning uslubiy xususiyatlarini aniqlash;

4) texnologik ko'nikmalar – uslubiy vaziyatni tahlil qilish, texnologik jarayonni rejalashtirish va oqilona tashkil etish, texnik qurilmalarni ishlatish bo'yicha pedagogik mahorat;

5) ishlab chiqarish va operativ ko'nikmalar – turdosh kasblar bo'yicha umumiy mehnat ko'nikmalarini anglatadi;

6) maxsus ko'nikmalar – milliy iqtisodiyotning istalgan tarmog'i doirasidagi mutaxassislik bo'yicha ko'nikmalar.

Ilmiy-nazariy tahlillar asosida, kompetentlik nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarning yig'indisi, balki motivatsion, ijtimoiy va xulq-atvor kabi tarkibiy qismlarni ham o'zida ifodalaydigan kompetensiya rivojining yuqori darajasi deb izohlashimiz mumkin. Ushbu holatda kompetensiya shaxsning integral sifatlarini o'z ichiga olgan kompetentlikka "aylanadi" va shaxsning ma'lum bir sohadagi faoliyat tajribasini anglatadi.

Jamiyatning rivojlanishi ta'lim tizimini jadal rivojlantirishni, uning asosiy paradigmasini qayta ko'rib chiqishni ham taqozo etmoqda va bu jarayon bo'lajak informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga ham ma'lum talablarni qo'yadi.

Ma'lumki, informatika fanini o'qitishdan maqsad axborot madaniyatini shakllantirish, pedagogik faoliyat sohasida ishlash uchun zarur bo'lgan axborot madaniyatining muhim tarkibiy qismi axborotlashtirish vositalari va infokommunikatsiya texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. A.S.Sharovning tadqiqotlarida bo'lajak informatika o'qituvchisining pedagogik faoliyatda axborotlashtirish vositalari va infokommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga tayyorlashning nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, tadqiqotchi tomonidan nazariy bilimlardan amaliyotga o'tishning ta'lim oluvchilar faoliyatining uchta asosiy shakli orqali yuzaga chiqishi ta'kidlanadi. Bular: belgilarni aks ettira olish (bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish va qo'llash), o'zgartirish-modellash (olingan bilim, ko'nikma va malakalarni tushunish, rivojlantira olish va amalga oshirish) va prognostik-amaliy faoliyat (olingan va "ishlab chiqilgan" bilim, ko'nikma va malakalarni tuzatish va tizimlashtirishni o'z ichiga oladi).

Nazariy tahlillar asosida o'qituvchi va informatika o'qituvchisining pedagogik kompetentligining komponentlari sifatida olimlar tomonidan quyidagi tarkibiy qismlar ajratib ko'rsatilganligini ko'rishimiz mumkin:

- motivatsion-irodaviy, funksional, kommunikativ va reflektiv (S.A.Drujilov).
- kasbiy-ta'lim, kasbiy-faoliyat va kasbiy-shaxsiy (H.N.Lobanova, M.B.Yesaulova).
- maxsus, kasbiy, uslubiy, ijtimoiy-psixologik, differensial-psixologik va avtopsixologik (N.V. Kuzmina).
- ijtimoiy, maxsus va individual (A.SHelten).
- kognitiv, motivatsion-qadriyatli, operativ-faoliyatli va ijtimoiy-psixologik (Tatur, Y. G.).
- motivatsion-shaxsiy, kognitiv-faollik va reflektiv-baholash (V.I.Kudzoyeva).

Xulosa. Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili asosida bo'lajak informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati va kasbiy tayyorgarligi mazmunini quyidagicha izohlashimiz mumkin: informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati mutaxassisning malakasi va ta'lim darajasini o'zida namoyon etib, iqtisodiy, sotsiologik kasbiy faoliyatning psixologik tomoni va axloqiy jihatlarni nazarda tutsa, kasbiy tayyorgarligi zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, mutaxassisning butun faoliyati davomida ma'naviy-axloqiy hamda kasbiy sifatlarining yanada takomillashishi, kasbiy kompetentlikning shakllanishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni.

2. Добудко Т.В. Формирование профессиональной компетентности учителя информатики в условиях информатизации образования. – Самара: СамГПУ, 1999. – 340 с.

3. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход к образованию // Образование и наука. – М., 2005. – № 3. – С. 27-35.

4. Зимняя И.А. Общая культура и социально-профессиональная компетентность человека // Высшее образование сегодня. – М., 2005. – № 11. – С. 16.

5. Толстова Н.А. Формирование организационно-педагогической компетентности будущего учителя информатики в образовательном процессе вуза: дисс.канд.пед.наук. – Белгород – 2013. – 255 с. – 47 стр.

6. Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari // Monografiya. – T.: Fan, 2004. – 73-80 bet.

Arzimbetov Tileubergen Tilepbergenov

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Nukus filiali tadqiqotchisi

Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar

fanlar kafedrası o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)

O'SMIRLARNI DESTRUKTIV G'OYALAR TA'SIRIDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh davrlari inqirozi hamda shu davrda yuzaga keladigan psixologik xususiyatlar haqida so'z boradi. Shuningdek yoshlarning destruktiv g'oyalar, guruhlar ta'siriga tushib qolishining sabab va motivlarini aniqlash hamda mazkur holatning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tizimini yaratilgan. Bundan tashqari rivojlanish davrida o'smirlarda destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalash ijtimoiy - psixologik xususiyatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: individuallik, psixologik xususiyatlar, inqiroz, iroda kuchi, jasurlik, qat'iylik, destruktiv g'oyalar, psixologik test, ekspert baholash, xulq-atvor, psixologik himoya, pedagogik texnologiyalar.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАЩИТЫ ПОДРОСТКОВ ОТ ВЛИЯНИЯ ДЕСТРУКТИВНЫХ ИДЕЙ

Аннотация. В этой статье рассматривается кризис возрастных периодов, а также психологические особенности, возникающие в этот период. Также создана система профилактических мер, направленных на выявление причин и мотивов деструктивных идей, группового воздействия на молодёжь и предотвращение данной ситуации. Кроме того, изучены социально-психологические особенности защиты подростков в период развития от воздействия деструктивных идей.

Ключевые слова: индивидуальность, психологические особенности, кризис, сила воли, смелость, настойчивость, деструктивные идеи, психологическое тестирование, экспертная оценка, поведение, психологическая защита, педагогические технологии.

PEDAGOGICAL ASPECTS OF PROTECTING ADOLESCENTS FROM THE INFLUENCE OF DESTRUCTIVE IDEAS

Abstract. This article will talk about the crisis of age periods as well as the psychological characteristics that occur during this period. Also created a system of preventive measures aimed at identifying the causes and motives of youth falling under the influence of destructive ideas, groups, and preventing this situation. In addition during development, the socio-psychological characteristics of protection against the influence of destructive ideas in adolescents are studied.

Key words: individuality, psychological characteristics, crisis, willpower, courage, determination, destructive ideas, psychological test, expert assessment, behavior, psychological protection, pedagogical technologies.

Kirish. Mamlakatimizda keyingi yillarda ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, dunyodagi global o'zgarishlar davlat hamda jamiyat oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator vazifalarni qo'yimoqda.

Destruktiv axborot oqimining ko'payayotganligi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining o'zgarayotganligi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining axboriy-psixologik xavfsizligini

ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib, individual, guruhiy va jamiyat darajasida tegishli ishlar olib borilishini taqozo etmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur".

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Turli g'oyalarning inson xatti-harakatiga ta'siri, yoshlarni destruktiv g'oyalardan himoyalash muammosiga doir ijtimoiy-psixologiya yo'nalishidagi ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, AQSHning Yel universiteti (Yale University, USA), Stenford universiteti (Stanford University, USA), Chikago universiteti (University of Chicago, USA), Irlandiyaning Dublin Triniti kolleji (Trinity College Dublin, Ireland), Germaniyaning Vuppertal universiteti (Universität Wuppertal, Deutschland), Avstraliyaning Tasmaniya universiteti (University of Tasmania, Australia), Janubiy Federal universitet (Rossiya Federatsiyasi, Rostov-Don)da olib borilmoqda.

Mazkur tadqiqotlarda guruhiy bosim va inson asosiy ehtiyojlarining shaxs ijtimoiylashuviga ko'rsatadigan ta'siri (Yale University), turli guruhlarining psixologik tavsifi, ijtimoiy xulq-atvorning fundamental tamoyillari (Stanford University), pedagogika va amaliy psixologiya yo'nalishida o'smirlar, yoshlar bilan olib boriladigan xulq og'ishlarining oldini olish (University of Chicago), psixoanalitik psixoterapiya, kognitiv xulq-atvor psixoterapiyasi (Trinity College Dublin), muayyan jamiyatda shaxs shakllanishi va rivojlanishi jarayonida o'zini namoyon etish imkoniyatlari (University of Tasmania), muhitga nisbatan ijtimoiy-psixologik nomuvofiqlik shaxs xulq-atvorida asosial xususiyatlarni namoyon etishi, umumiy ijtimoiy faollikni amalga oshirishda psixologik ta'sir ko'rsatish (Janubiy Federal universitet) singari muammolarni o'rganishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Inson destruktiv faoliyati mohiyatini uning biologik, neyrofiziologik va psixik asosini tahlil qilmasdan tushunib bo'lmaydi. Eng avvalo, "Destruktivlik sof insoniy fenomenmi yoki boshqa jonzotlarga ham xosmi?" degan savolga javob topish zarur. Shuningdek, destruktiv faoliyatning irsiy jihatdan shartlanganligi masalasini ham o'rganish, destruksiyaning namoyon bo'lishida kishiga gormonal va asab tizimi sifatleri, psixik xususiyatlarning ko'rsatadigan ta'sirini tadqiq etish ham lozim.

Destruktiv faoliyat biologik va neyrofiziologik asoslarini tahlil etishning mushkulligi mazkur muammoga bag'ishlangan alohida amaliy ishning deyarli yo'qligi bilan izohlanadi, shuning uchun ushbu masalani ko'rib chiqishda insonlar va hayvonlarning tajovuzkorligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalariga hamda qotillar va suisidal harakatlarni amalga oshirishga uringan kishilar o'rtasida o'tkazilgan tajribalar natijalariga murojaat etish maqsadga muvofiqdir.

Hayvonlar xatti-harakatini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha [2], inson destruktiv faoliyatining ayrim jihatlari hayvonot olamida ham uchraydi, biroq bir butun holda destruktivlik boshqa jonzotlarga xos emas. Ko'pchilik hayvonot olami vakillaridagi populyasiya, ko'payish instinkti o'z turiga mansub hayvonlarni qirg'in qilishga to'sqinlik qiladi. Hayvonlarning turlararo kurashini destruksiya deb qabul qilish o'rinli emas, chunki bu kurash o'z turini saqlab qolishga qaratilgan bo'ladi. Tur ichidagi tajovuzkorlik (bir turiga mansub vakillar orasidagi raqobat) ham xuddi shu maqsadga qaratiladi. U hayvonlarning keng geografik hududga tarqalishiga hamda eng kuchli individuumlarning kurashda g'olib bo'lishi tufayli genofondning yaxshilanishiga sabab bo'ladi. Oxir-oqibatda kuchli hayvonlar o'z nasllarini saqlab qolish va himoya qilishning uddasidan chiqadilar [3]. Tur

ichidagi tajovuzkorlikdan farqli o'laroq, destruktiv faoliyat turni saqlab qolishga yo'naltirilmaydi. Hayvonlardagi destruktiv faoliyatni eslatuvchi hodisalar juda siyrak kuzatilib, asosan hasharotlarda uchraydi. Misol uchun, asalarilar, chumolilar va termitlar o'z to'dalaridagi a'zolari hididan farqlaydilar va bostirib kelgan har qanday "begona"ni darhol o'ldiradilar [9].

Tahlil. Destruktiv xulq - jamiyat tomonidan qabul qilingan, e'tirof etilgan me'yor va rollarga mos kelmaydigan, muqobil nuqtai nazarlarga radikal ravishda qarshi yo'naltirilgan xulq-atvor. Bu holatda ayrim olimlar me'yor sifatida muayyan xatti-harakatdan kutiladigan natija, samarani, boshqalari esa ma'lum bir xulq-atvor attityudi (andoza, shakli)ni nazarda tutadilar. Boshqa tadqiqotchilar esa nafaqat xatti-harakat, xulq-atvor, balki g'oya, qarashlar ham destruktiv bo'lishi mumkin, degan fikrni bildiradilar.

Ota-onalar, pedagoglar, nisbatan yoshi katta avlod vakillarining yoshlarga xos mustaqillikka intilish, hech bo'lmaganda tashqi ko'rinishi (kiyinishi, soch turmagi, yurish-turishi va h.k.) bilan ajralib turishga, zamonaviy ko'rinishga harakat qilish kabi xatti-harakatlarni inobatga olmasliklari, butunlay qoralashlari noo'rindir. Bu jihatni tarbiyaning eng muhim vositalaridan birini bee'tibor qoldirish sifatida baholash mumkin. Chunki doim ham har bir avlodga xos muayyan qadriyatlar katta avlod vakillari tomonidan to'liq qabul qilinmagan (bu jihatni O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov "Hozirgi yoshlar" she'rida yaxshi tasvirlagan). Ayni hollarda taqiq, ma'muriy jazolash tizimlari faoliyati samarasiz bo'lib, yoshlarga tegishli darajada maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishda ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, psixologik xususiyatlari va qadriyatlari yo'nalishiga mos holda ish olib borish afzaldir.

Ushbu fikrlarni tasdiqlash uchun juda ko'plab misollarni keltirish mumkin. Turli jamiyatlarda yoshlar majburan singdirilmoqchi bo'lgan xulq-atvor ko'rinishlariga nisbatan ko'pincha namoyishkorona rad javobini berib, o'z noroziliklarini turli yo'llar bilan bildirganliklari ma'lum. Bu albatta, mazkur yosh guruhi vakillarida isyonkorlik xususiyatlarining mavjudligidan darak beradi. Shuning uchun psixolog, pedagog va faoliyati yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq mutasaddi, rahbarlar yoshlar bilan muloqot qilish yo'llarini, ularga zarur bo'lganda kerakli darajada psixologik ta'sir o'tkaza olish malaka va ko'nikmalarini puxta darajada egallagan bo'lishlari lozim. Ayni paytda ijtimoiy-madaniy omillarning shaxs shakllanishi va rivojiga, qadriyatlar tizimiga ko'rsatadigan ta'sirini inobatga olgan holda yoshlarni destruktiv guruhlar va g'oyalar ta'siridan himoyalash masalasini hech qachon nazardan qochirish zarur.

O'smirlar davriga xos shaxs xususiyatlari va psixologik himoya.

Yoshlik davri yosh davrlari psixologiyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yosh davri xususiyatlarining tarkib topishi ko'plab individual-psixologik va ijtimoiy omillarga bog'liq. Adabiyotlarda mazkur davrga bolalikdan yetuklikka o'tish bosqichi sifatida ta'rif beriladi. Turli madaniyatlarda inson yoshining o'ziga xos bosqichlari farqlanadi. Yoshlik shaxs shakllanishida juda muhim ahamiyat kasb etadigan mas'uliyatli davrdir. Inson yakka holda rivojlanmaydi, bunda ijtimoiy muhit, yon-atrofdagilarning ta'siri kuchli bo'ladi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yakunlanib, mustaqil hayotga qadam qo'yilgach, jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatidagi faoliyat boshlanadi.

Destruktiv targ'ibot bir necha yo'nalishlarda olib boriladi:

- millat tarixini kamsitish, erishilgan muvaffaqiyatlar, amalga oshirilgan ijobiy o'zgarishlarni tan olmaslik;

- milliy yetakchilar, qahramonlarni badnom qilish;

- rasmiy, milliy mafkurani obro'sizlantirish;

-muqobil mafkuralarni targ'ib qilish, yoyish, tarqatish;

-asosiy xulq-atvorga nisbatan tanqidiy munosabatni yo'qotish.

Destruktiv faoliyat oqibatlarini ayirmachilik, emigratsiya, jinoiy xatti-harakatlar, alkogolizm, giyohvandlik, fohishabozlik, axloqiy buzulq, ruhiy og'ishlar, anomiya,

addiktivlik va hokazolarda namoyon bo'ladi. Har qanday destruktiv guruh mafkurasining zamirida aldov yoki firibgarlik yotadi.

Yoshlar hayotiy qadriyatlarining o'ziga xos jihatlari ulardagi ekstremistik kayfiyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardandir. Yigitlar va qizlar kelajakda nima qadrli nima esa aksincha bo'lishi mumkinligi, kelajak, istiqbol xususida bosh qotira boshlaydilar. Ontogenezda qadriyatlar shakllanayotgan kezda inqirozli vaziyatlarga tushish, tajribali insonlar tomonidan yordam qo'lining o'z vaqtida cho'zilmasligi yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Xulosa va tavsiyalar. Destruktiv faoliyat mohiyatini tadqiq etishda insonning biologik, neyrofiziologik va psixik xususiyatlariga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, destruktiv faoliyatning irsiy jihatdan shartlanganligi, destruksiya namoyon bo'lishida gormonal va asab tizimining tutgan o'rni, mazkur jarayonga psixik xususiyatlarning ko'rsatadigan ta'siri masalasi ham tahlil qilinishi lozim. Insonning destruktiv faoliyatiga baho berishda asosiy e'tibor ijtimoiy-madaniy kontekstda sodir bo'ladigan neyrofiziologik jihatlarga qaratilishi maqsadga muvofiq. Shunga ko'ra, destruksiya biologik jihatdan asosiy, determinantlashgan emas, balki, biologik jihatdan ahamiyatli omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017.
2. Ананьев Б.Г. О принципах современного человекознания. - М.: Наука, 1977.
3. Beti Readon. Bag'rikenglik: tinchlik sari olg'a qadam. YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi. – Almati, 2002.
4. Геген Н. Психология манипуляции и подчинения. - СПб. Питер, 2005.
5. Козлов Н.Н. Практическая психология на каждый день: или как относиться к себе и людям. - М., 1999.
6. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. - М.: Наука, 1984.
7. Лоренс К. Обратная сторона зеркала. – М.: Республика, 1998.
8. Oila psixologiyasi. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. /Professor G'.B.Shoumarov tahriri ostida. – Toshkent, 2011.
9. Qodirov U. Yoshlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalash-dolzarb muammo. “Oliy ta'lim tizimida psixologiya fanlarini o'qitishning ilmiy-uslubiy muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, – Toshkent, 2011.

Sharopov Mirjon Nurxon o'g'li
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

TALABALARNI AXBOROT TA'LIM MUHITIDA TEXNIK IJODKORLIK FAOLIYATINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarni axborot ta'lim muhitida texnik ijodkorlik faoliyatida tayyorlash metodikasini takomillashtirish chora tadbirlari ochib berilgan. Texnik ijodkorlik jarayonida o'quvchilar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, innovatsiya va ixtiro asoslari bilan tanishish, ijodiy muammolarni hal qilish usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Texnik ijodkorlik, texnik fikrlash, konstruktorlik texnologik faoliyat, texnologik vazifalar, intellekt, qobiliyat, faoliyat, metodika.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕХНИЧЕСКОЙ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В ИНФОРМАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация. В данной статье раскрыты мероприятия по совершенствованию методики подготовки студентов к технической творческой деятельности в информационной образовательной среде. В процессе технического творчества студенты развивают свои творческие способности, знакомятся с основами новаторства и изобретательства, рассказывают о методах решения творческих задач.

Ключевые слова: техническое творчество, техническое мышление, конструкторская, технологическая деятельность, технологические задачи, интеллект, способности, деятельность, методика.

PEDAGOGICAL FEATURES OF THE ACTIVITY OF TECHNICAL CREATIVITY OF STUDENTS IN AN INFORMATION EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Abstract. This article reveals measures to improve the methodology of preparing students in the activities of technical creativity in the information educational environment. In the process of technical creativity, students talk about the development of their creative abilities, acquaintance with the basics of innovation and invention, ways to solve creative problems.

Key words: technical creativity, technical thinking, constructoring technological activity, technological tasks, intellect, ability, activity, methodology.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, tatbiq etilayotgan yangiliklar, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, xalqimizning yashash va mehnat qilish sharoitining yaxshilanishi, umuman olganda, erishilgan moddiy va ma'naviy salohiyat erkinligi mamlakat mustaqilligining tuhfasini bo'lib, erkin mehnat qilish va yashash, mustaqil fikrlash, e'tiqod va so'z erkinligi, diniy bag'rikenglik, ijodiy faollik, umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf-odatlarining hurmat qilinishi va qadrlanishi, kuchli ijtimoiy himoya hamda bularning huquqiy asoslarining yaratilishi yoshlarni mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini ob'ektiv baholashga o'rgatish yo'nalishida o'ziga xos vazifalar yuklaydi.

Bular, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarida talabalarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, ko'proq erkin va innovatsion fikrlashga o'rgatish, ularning subyektivligini oshirish, mustaqil ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil

olgan ma'lumotlarini o'rganish asosida ularning ilmiyligi, yangiligi va ishonchliligini tahlil qilish, eng yangi va ishonchli axborotlar bilan ta'minlash, talabalarning faoliyatini muvofiqlashtirishda axborotlar almashinuviga alohida e'tibor qaratish va raqamli texnologiyalarda samarali foydalanish zaruriyatini belgilaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish yo'nalishlarida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun zaruriy va yetarli shart-sharoitlarni yaratib berilishi oliy o'quv yurtlari rahbarlari va professor-o'qituvchilariga ham o'ziga xos mas'uliyat yuklaydi.

Talabalarni ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga AK va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim o'rin tutadi. Talabalarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish – bu, birinchi navbatda, faoliyatga ijodiy munosabatni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Ijodkorlik mehnatga ijodiy munosabat jarayoni bilan integrativ yo'naltirilgan bo'lib, talabalarni shaxsiy va kasbiy sifatlarni tarkib toptiradi, bunda qat'iyatlilik, kreativlik, kognitivlik, tashabbuskorlik, mustaqillik kabi fazilatlar tarkib topib boradi. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish, ularning o'z qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat”, – degan fikrlari o'rinlidir.

Ixtirochilik ijodkorligini amalga oshirishda kompyuteriami qo'llashning shakl va usullarini belgilashda, awalo ular yordamida talabaning ixtiro qilishni emas, balki yangi texnik yechimni yaratishdagi axborotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish va uni amalga oshirishning samarali yo'llarini ishlab chiqishda foydalanishni e'tiborga olish lozim. Bundan kelib chiqqan holda ixtirochilik ijodkorligini takomillashtirishdagi vazifalar tahlili asosida, bu jarayonda kompyuteriami qo'llashning quyidagi asosiy yo'nalishlarga amal qilinadi:

1. Ta'lim jarayonini aniq masalalarini hal qilishga yordam beruvchi didaktik vosita sifatida.
2. Talabalar ilmiy-texnik ijodkorligining axborot bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishga xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida.
3. O'qituvchilarni tayyorlashda politexnik yo'nalishni amalga oshirishni ta'minlovchi vosita sifatida.

Ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning asosi sifatida kompyuterlar vositasida amalga oshiriladigan dasturiashtirilgan ta'lim metodidan foydalandik. Bunga ko'ra talabalar ixtirochilik ijodkorligiga oid bilimlarini kompyuter axborot kadrlari orqali o'rganadilar va operatsion kadrlar vositasida sinab ko'radilar. Dasturiashtirilgan ta'limni amalga oshirishda kompyuterlardan foydalanishning yana bir afzalligi test savoliga noto'g'ri javob berilgan holda, talabada ishlab chiqilgan bilimlar bankidan qo'shimcha ma'lumotlar olib vazifani bajarishga qayta kirishish imkoniyatining mavjudligidir. Bundan tashqari, displeyda shaklni chizishni mustaqil bajarish talabaning chizmachilik elementlari, masshtab, o'lcham, koordinata to'g'risidagi tushunchalarni mukammal o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Ixtirochilik ijodkorligini amalga oshirishdagi asosiy vazifalardan biri axborotlarni topish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lganligi sababli kompyuterlarning axborot bilan ta'minlovchi didaktik vosita sifatida qo'llanishi alohida dolzarblik kasb etadi. Ma'lumki, kompyuterlar axborotlarni yig'uvchi, saqlovchi va uzatuvchi qurilma sifatida ishlaydi. Ma'lumotlar talab darajasida qayta ishlanib, hajm jihatidan qanchalik keng, aniq, asosli va foydalanish uchun qulay shaklga keltirilsa, ilmiy imkoniyatlardan foydalanish samaradorligi va erishiladigan ijodiy yutuqlar soni hain ortib boradi. Bu boradagi kompyuterlar imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish maqsadida talabalar ixtirochilik ijodkorligini amalga oshirishning avtoniatlashtirilgan o'quv-axborot tizimini ishlab chiqdik va joriy qildik.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamizda yoshlarning iste'dodi hamda qobiliyatlarini aniqlashning o'ziga xos psixologik jihatlarini pedagog – psixolog olimlardan A.F.Azimova, M.Vohidov, M.Davletshin, E.G'oziyev, T.S.Jo'rayev, V.M.Karimova, J.X.Mavlonov,

Z.T.Nishonova, B.R.Qodirov, K.B.Qodirov, E.Z.Usmonova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.B.Brushlinskiy, L.S.Vigotskiy, Ye.A.Klimov, B.F.Lomov, N.S.Leytes, A.M.Matyushkin, V.S.Merlin, L.S.Rubinshteyn, A.V.Savenkov, B.M.Teplov, M.Xolodnaya, N.I.Chuprikova va boshqalar iqtidorli talabalar aqliy faoliyatini muvaffaqiyatini ta'minlovchi individual-psixologik xususiyatlari hamda iste'dodning asosini tashkil etuvchi faollik va o'z-o'zini boshqarishning individual uslublarini tadqiq etishgan.

Xorij olimlaridan G.Eysenck, A.Binet, F.Galton, J.P.Gilford, R.B.Kettell, J.Locke, K.Perlet, J.Piaget, J.Renzulli, C.Spearman, R.Sternberg, L.L.Thurstone, K.Heller va boshqalar tomonidan talabalar iqtidorning ko'p faktorli murakkab psixologik tuzilmasi masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Iste'dod muammosi keng ko'lamdagi psixologik-pedagogik tadqiqot predmeti sifatida ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ushbu muammo bir necha jabhalarda o'rganilgan bo'lsa ham psixikaning muntazam rivojlanib borishi sababli ushbu mavzuni tadqiq qilish hamda o'rganishga doimo ehtiyoj sezilaveradi. Shuningdek, tajribalar shuni ko'rsatdiki, biror sohaga tegishli iste'dodlarga ega odamlar ushbu soha uchun zarur bo'lgan bilim ko'nikma va malakalarni osongina o'zlashtiradilar hamda olingan natijalar samaradorligi bilan boshqalardan farq qiladilar. Insondagi mavjud iste'dod uning hayoti va faoliyatida muhim rol o'ynaydi hamda uni qaysi faoliyat sohasi uchun ko'proq mos kelishini aytishga imkon beradi. Lekin, qobiliyat bilim, ko'nikma yoki malaka emas, chunki, jamiyatda biror natijaga erishmagan uquvsiz deb baholangan insonlar keyinchalik biron-bir sohaning yetakchi mutaxassisi sifatida elga tanilishi, yuqori lavozimni egallashi, tadbirkor shaxs sifatida kamol topishi hodisasi tajribada ko'p uchraydi. Shu sababdan, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida qobiliyatlar namoyon bo'lsa-da, biroq ular bir-biriga bevosita taalluqli emas. Bilim ko'nikma, malakalar insonni o'z ustida tinmay ishlashi va mashq qilish natijasida egallanadigan aniq voqelik, deb tasavvur qilinsa, qobiliyatlar shaxsning hali ro'yogba chiqmagan ichki imkoniyatlari (layoqatlar) sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil. Tadqiq etilayotgan masala bo'yicha mamlakatimiz olimlarining ilmiy tadqiqot ishlarining aksariyati qobiliyat va moyillik (B.R.Kadirov, V.M.Karimova, E.G'oziyev va h.k.), talabalarning qobiliyatlari (M.G.Davletshin, N.S.Safayev, D.G.Muxamedova) va boshqalar tadqiqotlarida o'rganilgan va o'rganilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ijodkorlik masalasiga bag'ishlangan yoki shunga to'xtalib o'tilgan mavjud nazariy ham amaliy tadqiqotlarda o'rganilayotgan hodisani bir xil talqin qiladigan umumlashtiruvchi konsepsiyalar yetishmaydi. Bu holatlar iste'dodga oid ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish yo'lida juda ko'p to'siqlarni keltirib chiqaradi. Shu munosabat bilan, ularning natijalarini umumlashtirish va shu asosda o'rganilayotgan hodisani kelgusida o'rganish, olimlarning asosiy nuqtai nazarlarini ta'kidlash uchun mavjud zamonaviy yondashuvlarni chuqur tahlil qilish zarurati juda dolzarbdir.

V.M.Karimovanning tadqiqotlarida odamlarning o'quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iste'dod masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi. Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Iste'dod - har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. U tinimsiz mehnat, o'z qobiliyatini takomillashtirib borish yo'lida barcha

qiyinchiliklarni yengish va irodasi, butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo'lga kiritiladi deb beriladi [77].

Texnologiya fanining mazmunini o'zlashtirish talabalarga quyidagilarga imkon berishi kerak:

- tabiat, jamiyat va shaxsning o'zi uchun oqibatlarini hisobga olgan holda ko'plab muqobil yondashuvlar ichidan transformativ faoliyatning maqbul usullarini ongli va ijodiy tanlash;

- tizimli, har tomonlama fikrlash;
- faoliyatni axborot bilan ta'minlashga bo'lgan ehtiyojlarni mustaqil ravishda aniqlash;
- doimiy ravishda yangi bilimlarni egallash, ularni o'zgaruvchan faoliyat usullari va vositalari sifatida qo'llash.

Talabalarni ijodiy xarakterdagi amaliy ishlarga jalb etish usullaridan biri buyum ishlab chiqarishdagi muammoli masalalarni, hatto eng oddiylarini ham hal qilishdir.

Ushbu usulni amalga oshirishning to'rt bosqichi mavjud:

- topshiriq shartlarini tahlil qilish (mahsulotning maqsadi, unga qo'yiladigan talablarni aniqlash);

- mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasini loyihalash, ishlab chiqish (eskiz yoki chizma tayyorlash, operatsiyalar ro'yxati va ketma-ketligini aniqlash, materiallar, asboblari, moslamalar va boshqalarni tanlash);

- mahsulot ishlab chiqarish (qidirish, ish jarayonida, eng maqbul texnikani, qayta ishlash usullarini va boshqalarni izlash);

- tayyor mahsulot sifatini nazorat qilish, uning kamchiliklarini aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llari.

O'quv ijodiy faoliyati, birinchi navbatda, ijodiy shaxsning butun fazilatlarini majmuasini rivojlantirishga yordam beradigan faoliyat sifatida qaraladi:

- aqliy faoliyat;
- tez o'rganuvchi;
- zukkolik;
- aniq amaliy ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilimlarni olishga intilish;
- muammoni tanlash va hal qilishda mustaqillik;
- qiyin ish;
- umumiy, asosiy narsani har xil va o'xshash hodisalarda turlicha ko'rish qobiliyati va hokazo.

Olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan asosiy jihatlarni tahlil qilish orqali 20-asrning boshlarida ma'lumotlarni to'plash orqali texnik ijodga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni, xususan, bolalar texnik ijodini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Texnik ijodkorlikning asosi tasavvurdir, uning zarurati har qanday ijodkorlikni shakllantirishda kuzatiladi.

2. Ijodkorlik va ixtiro metodologiyasini o'rganish mumkin, ya'ni har qanday odam ushbu turdagi faoliyatni o'zlashtirishga qodir bundan tashqari, shaxsning ixtiro va texnik ijodga mansubligi intuitiv jarayonga tegishli bo'lib, miya faoliyatining ongsiz namoyonidir.

Talabalar texnik ijodini rivojlantirishning samarali jarayoni uchun o'qituvchi bilimli bo'lishi, qiziquvchanlik, texnik xotirani rivojlantirish hamda o'quvchilarni kuzatish usullarini bilishi kerak. Muayyan sharoitlarda ijodiy faoliyatni tashkil etish shakllari va usullarini tanlash qobiliyati ijodiy izlanishga bo'lgan qiziqish shakllanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Pedagogik tadqiqotlar va katta amaliy ishlar natijasida O.V. Volkova bir qator samarali usullarni aniqlashga muvaffaq bo'ldi, ular orasida:

- narsa-buyumlarni konstruktirlash (modellash);
- manipulyativ konstruksiya;
- qisqartirilgan ma'lumotlar berilgan texnik hujjatlarni qo'llash;
- ijodiy vazifalarni hal qilish;

- ijodiy vazifalarni bajarish;
- tasavvurdagi tajriba;
- ilgari ishlab chiqarilgan konstruksiyalarni almashtirish orqali ta'mirlash ishlari;
- texnik vositalardan foydalangan holda nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish.

Texnik ijodkorlik - bu bilimlarni sintez qilishning kuchli vositasi bo'lib, tizimli fikrlash uchun mustahkam poydevordir hamda uning shakllanishi, xususan, zamonaviy muhandis kasbi uchun muhimdir. Ushbu kasb ko'p qirralidir, chunki u dizayn, izlanish, ijodiy, dizayn va h.k. kabi ishlarni o'z ichiga oladi. Bu muhandislik ma'lumotiga ega bo'lishni istagan bitiruvchilarga tegishli bo'lishi kerak. Buning uchun ba'zi imkoniyatlar yosh texniklar to'garaklarida, bolalarning texnik ijodiyoti markazlarida va hokazolarda qo'shimcha ta'lim berish orqali ta'minlanadi.

Xulosa. Talabalarda fizika, matematika, informatika, texnologiya va boshqa fanlarni o'qitishni takomillashtirish va samaradorligini oshirishda pedagogik va innovasion texnologiyalaridan foydalanishga doir adabiyotlar tahlil qilingan. Ularda talabalarda ta'limni tashkil etishning mazmuni, vositalari va pedagogik va innovasion texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari o'rganilgan, o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy texnika va texnologiyalarning pedagogik ta'siri muammosiga doir nazariy materiallar berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 fevraldagi "2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4190-sonli qarori.

2. Маслоу А. Самоактуализация личности // Психология личности. – М.: Просвещение, 2014. – 136 с.

3. Бердяев Н.А. Смысл творчества. / Бердяев Н.А. — Москва: Правда, 1989. —608с.

4. Андрианов П. Н. Техническое творчество учащихся: Пособие для учителей и руководителей кружков: Из опыта работы. / Андрианов П. Н. — Москва: Просвещение, 2010. — 127 с.

5. Филиппов С. А. Робототехника для детей и родителей. / Санкт-Петербург: НАУКА, 2011. — 340с.

6. L.E.Bobomurodova. "Texnik ijodkorlik va dizayn" fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish. – Samarqand.: 2019 y.

Sharifova Mahliyo Zarif qizi

Buxoro viloyati Kogon shahar 42-maktab psixologi

TALABALARDA O'Z USTIDA MUSTAQIL ISHLASH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda o'z ustida mustaqil ishlash faoliyatini shakllantirishning psixologik xususiyatlari hamda talabalarda o'z ustiga ishlash borasidagi nazariy ma'lumotlar tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek yosh va pedagogik-psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning bilim faoliyatini oshirish muammosi muhokama qilingan. Talabalarda o'z ustida mustaqil ishlash jarayonini tarkibiy qismlari ishlab chiqilgan: talaba tomonidan o'z oldiga o'quv topshirig'ining qo'yilishi; talaba tomonidan topshiriq yechimini qabul qilinishi; o'tilayotgan fani bilan bog'liqlikni izlash maqsadida talaba tomonidan o'quv topshirig'ining qayta ko'rib chiqilishi kabilar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. mustaqil ta'lim, o'quv dasturi, ko'nikma darajasi, elektron konspekt, talaba, yosh xususiyatlari, kognitiv faoliyat, kuzatish, introspeksiya, bilish jarayonlari.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЕ НАД СОБОЙ

Аннотация. В данной статье рассмотрены психологические особенности формирования у студентов самостоятельной трудовой деятельности, а также теоретические данные о работе у студентов над собой. Обсуждалась также проблема повышения познавательной активности обучающихся в высших учебных заведениях с учётом возрастных и педагогико-психологических особенностей. У студентов вырабатываются компоненты процесса самостоятельной работы над собой: постановка студентом перед собой учебного задания; речь идет о таких аспектах, как принятие студентом решения задачи; пересмотр студентом учебного задания с целью поиска связи с изучаемым предметом.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, учебная программа, уровень умений, электронный конспект, ученик, возрастные особенности, познавательная деятельность, наблюдение, самоанализ, познавательные процессы.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF THE ACTIVITY OF INDEPENDENT WORK ON ONESELF IN STUDENTS

Abstract. This article develops recommendations on the psychological features of the formation of independent work activities in students, as well as theoretical information on working on themselves in students. Also discussed is the problem of increasing the cognitive activity of students studying in higher education institutions, taking into account age and pedagogical-psychological characteristics. In students, components of the process of independent work on oneself have been developed: the imposition of an educational assignment by a student to oneself; the acceptance of the assignment solution by the student; there is talk of such as a revision of the assignment by the student in order to seek a connection with the subject being studied.

Key words: independent education, curriculum, skill level, electronic synopsis, student, age characteristics, cognitive activity, observation, introspection, cognitive processes.

Kirish. Talabalik yoshi - bu oliy o'quv yurtining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan hodisa. K. D. Ushonskiy bu yoshni "eng hal qiluvchi" deb atadi, chunki aynan shu davr insonning kelajagini belgilab beradi, bu o'z ustida intensiv ishlashning juda faol davri.

L. D. Stolyarenko talabalar jamoasini oliy ta'lim instituti tomonidan tashkiliy jihatdan birlashtirilgan odamlarning o'ziga xos ijtimoiy toifasi, o'ziga xos jamoasi sifatida tavsiflaydi [1]. I. A. Zimnaya ta'rifiga ko'ra, talabalar tarkibiga eng yuqori ta'lim darajasi, madaniyatni eng faol iste'mol qilish va kognitiv motivatsiyaning yuqori darajasi bilan ajralib turadigan bilim va kasbiy ko'nikmalarni maqsadli, tizimli ravishda o'zlashtiradigan odamlar kiradi. B.G. Ananievning fikricha, 17 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan hayot davri shaxsni shakllantirishning yakuniy bosqichi va professionallashtirishning asosiy bosqichi sifatida muhim ahamiyatga ega. B. G. Ananyevning so'zlariga ko'ra, 17 yoshga kelib, shaxs o'z-o'zini tarbiyalash faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish uchun maqbul sub'ektiv sharoitlarni yaratadi.

Institutning zamonaviy talabasi, birinchi navbatda, keyingi rivojlanish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'lgan yigitdir. Jamiyatning eng muhim intellektual salohiyati bo'lgan birinchi kurs talabasi kechagi talaba bo'lib, u zarur tajribaga ega emas va uni sotib olishga shoshilinch ehtiyoj sezadi. Shu munosabat bilan o'qituvchi birinchi kurs talabasi faoliyatini mustaqil ishlarga imkon qadar tezroq moslashishga yo'naltirishi juda muhimdir. Bu kognitiv faoliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi. Talabaga ushbu faoliyatni nafaqat imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirish uchun, balki bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni egallash uchun olib borishini tushuntirish kerak.

Asosiy qism. Ta'lim psixologiyasi shaxsning bilimlarni egallash, mustahkamlash uslublaridan iborat faoliyat jarayonini qamrab oluvchi qator savollarning tuzilishini o'rganadi, shuningdek, ularning natijasida individual tajriba, bilim, malaka va ko'nikmalari shakllanadi. Inson dunyo bilan hamkorlikdan nimadir yangi narsa o'rganish va o'z ehtiyojlarini qondirish uslublarini takomillashtirib borganligi sababli ham bilim olishga bo'lgan intilish insonning butun umri davomida ta'qib etib boradi, chunki odam har bir amaliy bilimni hayotdan o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim olish har bir faoliyatda mavjud bo'lib, u subyektning shakllanish jarayonini o'z ichiga qamrab oladi. Shunday qilib, ta'lim olish yetarli darajada keng tushunchadir, u o'z ichiga nafaqat ta'lim olishning uyushtirilgan shakllarini, (maktab, kurslar, oliygoh), balki inson tomonidan kundalik hayotda egallanayotgan bilim va malakalarni ham o'z ichiga oladi.

Boshqa faoliyat turlari bo'lmish o'yin va mehnatdan o'zining maxsusligi mohiyati bilan ajralib turuvchi bu faoliyatni psixologik faoliyat sifatida yondashilganda, o'qish faoliyatining uyushgan shakllarini ko'riladi. Uning eng muhim jihati shuki, u istalgan boshqa bir faoliyatga insonni tayyorlaydi va uning asosi bo'lib hisoblanadi.

Psixologlarning bu boradagi izlanishlariga ko'p bo'lgani yo'q va bu sohada hali u darajada sezilarli ishlar qilingan emas. Ammo o'z ustida ishlash faoliyatini tashkil qilish uchun asos yetarli darajada shakllangan va ular o'qitish nazariyasining aniq savol-muammolariga psixologiyaning bir yoqlama yondashishiga yo'l qo'yadi.

Talabalarda o'z ustida ishlash faoliyati nazariyasining asosi nima va u psixologiya o'qitish metodikalarini ishlab chiqishda qanday ahamiyatga ega?

Avvalambor, psixologiyaning qaysi sohasida ishlashdan qat'iy nazar, o'qituvchi o'qish faoliyati nazariyalarining asosiy qonun qoidalarini bilishi zarur. Bu bilim egallab olish qoidalari va o'qitish metodikalarini to'g'ri tuzish uchun juda muhim. O'qish faoliyati psixologiyada ilmiy tushuncha sifatida bir yaqqol ifodaga ega erpas. Rus pedagogikasi va psixologiyasining «klassik» nazariyalarida - bu «kichik maktab yoshdagi yetakchi faoliyat», «ijtimoiy faollikning asosiy shakli» sifatida e'tirof etiladi.

D.B.Elkonin va V.Davidovning ta'kidlashicha, o'qish faoliyati - bu talabalarning nazariy bilimlar-o'zlashtirishga qaratilgan va fikrlashning o'sishini ta'minlaydigan faoliyatlaridan biri sifatida ko'rsatiladi. O'z ustida ishlash faoliyati o'quvchining o'zi amalga oshirib o'zini o'zgartirish uchun maxsus tashkil qilingan faoliyat bo'lagidir. Talabalarda o'z ustida ishlash faoliyatining muhim qismi o'quv topshirig'i hisoblanadi. Topshiriq yechilish jarayonida, har bir amaliy mashg'ulotdagi kabi, o'quvchi tomonidan o'rganilayotgan obyektga yoki bu haqdagi tasavvurda ma'lum bir o'zgarishlar yuzaga keladi, ammo natijada subyektning o'zi o'zgaradi.

O'quv topshirig'i subyektda oldindan berilgan o'zgarish sodir bo'lgandagina yechimi topilgan deb hisoblash mumkin. Talabalarda o'z ustida ishlash faoliyati jarayonida yosh avlod kattalarning tarbiyasiga tayanadi, o'rganadi. Har bir yosh avlod dunyo haqidagi bilimlarni bevosita uni o'rab turgan borliqdan oladi, ammo yoshlar bu bilimlarni o'zi yaratmaydi, balki ularni katta avlodlardan «narsa (buyumlar), maxsus tashkilot va yangi avlodning bu narsalar bilan bog'liq faoliyati orqali» oladi.

Talabalar tomonidan psixologiyani o'rganilayotganda o'qituvchi ularga inson faoliyati bilan bog'liq bir qator topshiriqlarni tuzishi va ularga berishi mumkin. Uning barcha savoli bir xil, ya'ni «Bu faoliyat bo'lib hisoblanadimi?». Buning natijasida talabalar faoliyat tushunchasini o'zlashtirib olishlari lozim. Biz bilamizki, o'quv fanlar tizimida, haqiqatan ham bilimni o'zlashtirish uchun o'quv jarayonini o'quv topshiriqlarini yechish tizimiga aylanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda o'quv topshirig'ini yechish epizodik emas, balki o'qish faoliyatida egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llab, o'rganishi, o'qituvchi tomonidan berilayotgan tayyor bilimlarni kitoblardan olishi emas, balki talabalarning o'zi faol faoliyat yuritishi lozim.

Talaba tomonidan o'quv topshirig'ini yechilish jarayonining o'zi - bu o'z ustida ishlash faoliyati deyiladi. Bu jarayonning tarkibiy qismi bolib, a) talaba tomonidan o'z oldiga o'quv topshirig'ining qo'yilishi; b) talaba tomonidan topshiriq yechimini qabul qilinishi; d) o'tilayotgan fani bilan bog'liqlikni izlash maqsadida talaba tomonidan o'quv topshirig'ining qayta ko'rib chiqilishi; e) ajratilgan munosabatni modellashtirish; bu munosabatni «sof holda» o'rganish uchun modelni o'zgartirish; g) umumiy usul bilan yechiladigan topshiriqlar tizimining qurilishi; h) avval bajarilgan harakatning nazorat qilinishi va keyingi harakatga o'tishi; i) baholash (o'z-o'ziga baho berish) hamma harakatlarning yaxshi bajarilish uslubini o'quv topshirig'i yechilishining umumiy uslubini o'zlashtirish va boshqalar.

Barcha yuqoridagi elementlarning ketma-ketligi o'quv topshirig'ining bajarilishida talabaning o'qish faoliyatini tashkil etadi.

Eksperimental va nazariy tekshirishlar o'tkazilgan maktablarda o'qish faoliyatining asosiy nazariy muammolarini ishlab chiqqan jamoat psixologlari nazariyasi faoliyat va psixikaning birlik prinsipidan samarali foydalanganlar. Ammo umumiy nazariyani o'qitish mumkin, qo'llanilishi ma'lum oldini olish choralari nafaqat maktab ta'limining, balki o'qitishning boshqa turlariga talabalar tajribasi asosida qurilgan.

Talabalarda o'z ustida ishlash faoliyati tushunchasining paydo bo'lganligiga ko'p bo'lgani yo'q, ko'pi bilan 20 yil avval, bu o'quvchilarning bilim saviyasi kriteriyalari tavsiyanomasini ishlab chiqilishi bilan bog'liq bo'lgan. Talabalarda o'z ustida ishlash faoliyatining to'laligicha ko'rib chiqish zarurati bilan u nafaqat bilim, ko'nikma, malaka va ular ortidagi usullar, o'quvchilarning o'quv materiali bilan harakat operatsiyalarini, balki, o'quvchi tomonidan o'quv materialining qabul qilinishi, uning o'zi tomonidan nazorat qilinishi, o'z-o'ziga baho berishini ham o'z ichiga oladi.

O'qish - bu mustaqil faoliyatni bajarish, buni o'quv materialiga ijodiy yondashmasdan, o'quv topshirig'ini o'zini tahlil qilish va o'zini baholay bilmasdan bajarib bo'lmaydi. O'qishga o'rganish - bu o'quv faoliyatini bajarish talaba uchun zarur topshiriq bo'lib hisoblangan.

Har bir oliygohdagi psixologining oldiga qo'yilgan muhim topshiriq - talabaning o'quv faoliyatini shakllantirish yoki uni psixologiyasini o'rganishga qaratilgan. Talaba o'zi mustaqil ishlashni, o'zining idroki, aqli bilan ish yuritishni bilmas ekan, u doimo o'qituvchining og'zidan chiqqan tayyor bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga harakat qiladi va kitobdagi ilmiy, tushunchalarni mexanik tarzda yodlab oladi, ammo lining o'zi biror marta ham bu bilimlarni amaliyotda qo'llay olmaydi. Bu esa uning kishilar bilan ongli, to'g'ri psixologik muloqot o'rnatishga va faoliyatni yo'lga qo'yishga, psixologik fikr yuritishga o'rgana olmasligiga sabab bo'ladi.

P.Ya. Galperin ta'kidlashicha: «Insonning har bir harakatining nazorat, bajaruv va mo'ljal qismlari mavjuddir. O'quv jarayonida o'quvchi yo'l-yo'riqni mo'ljalga qarab faoliyatni

bajaradi va bu o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi. Yo'riqnoma ham o'qituvchi tomonidan beriladi».

Bu konsepsiya asosida o'qitish faoliyatini tashkil etishning yaxshi natija berishi nafaqat P.Ya. Galperin izdoshlari tomonidan, balki uning maktabi tomonidan ham isbotlangan.

Psixologiyani o'qitish metodikasida bu borada erishilgan imkoniyatlarni ishlatish ehtiyoji mavjud. Birinchidan, pedagogik oliygohlarda (fakultet yo'nalishiga qarab) maxsus maktab fan sohalariga moslab talabalar tomonidan laboratoriya va amaliy darslarda metodikalar ishlab chiqish;) ikkinchidan, psixologiya fanini oliygohlarda aynan shu metodika va nazariyalar asosida o'tish; uchinchidan, psixologiya o'qituvchisi tashviqot ishlarini olib borishda, yuqoridagi konsepsiya asosida va umuman o'qitishning faol metodlari asosida amalga oshirishda cheksiz imkoniyatlari mavjud.

Ta'lim psixologiyasining yana bir yo'nalishi bo'lib nazariy yuksaltirishga asoslangan subyektning faolligi shakli deb aytiladigan o'quv faoliyati hisoblanadi, u avlodlarning ijtimoiy tajribasi natijasida individual rivojlanish shartiga qaratilgan bo'ladi. D.B.Elkonin o'quv faoliyatining muhim qismi bo'lgan o'quv topshirig'ining yechimini topish natijasida faoliyatni bajaruvchi subyektning o'zgarishi, uning dunyoqarashi, bilimi, malakalarini shakllanishiga sabab bo'lishini ko'rsatib bergan. V.V.Davidov, o'quv faoliyati - bu nazariy bilimni egallashni o'zi, o'qish faoliyatining shakllanishiga esa mustaqil o'qish va ijodiy yondashish sabab bo'lishini aniqlagan.

D.B.Elkonin va V.V.Davidov 1960-1970-yillarda o'qitishni rivojlantirish tizimini ishlab chiqadilar va oliy ta'lim amaliyotida sinab ko'rdilar. Uning asl mohiyati bo'lib nafaqat o'qituvchilarni o'quv jarayonida ma'lum bir bilimlar bilan qurollantirish, balki ularni har qanday ilmiy ma'lumot bilan ishlay olishga o'rgatish bo'lib ham hisoblanadi. Bu maktab namoyondalarining asosiy maqsadi insonlarni fikr yuritishga o'rgatish lozimligidan iborat, shuning uchun talabalarda zamonaviy fikr yuritish asoslarini egallashlari ilgari suradilar. Boshqacha qilib aytganda, o'qishni shunday tashkil etish kerakki, doimo u «rivojlanuvchi xarakterga» ega bo'lishi lozim.

D.B.Elkonin - Davidov sistemasi bo'yicha eksperimental sinflarda «asosan o'quv faoliyatining shakllanish jarayonining tavsifnomasi, intellektual rivoji, o'quvchilar jamoasi va shaxsning rivojlanish sifati bilan bu o'qitish jarayonlarining an'anaviy sharoitdagi rivojlantirish, o'qitish g'oyasi tizimi tavsifnomasi bilan ko'rib chiqilganda to'g'ri keladi». Bu natijalar tavsifnomasi an'anaviy o'qitish tizimida odatda, rejalashtirilmaydi va o'qitish natijasi sifatida yuzaga chiqmay baholanadi.

D.B.Elkonin - Davidov g'oyaviy tizimida o'qitish natijalari tavsifnomasi o'z ichiga quyidagi ko'rsatkichlarni oladi; a) o'qish faoliyatining shakllanganlik darajasi; b) o'quvchilarning intellektual rivojlanish darajasi; d) o'quvchilar jamoasining va shaxsni rivojlanish darajasini; e) o'qitish oxirida o'quvchilarning bilim, malaka va egallagan ko'nikmalar darajasi.

Biz ko'rganimizdek, tavsifnomalar ichida, deyarli yakka va asosiy an'anaviy tizimda o'qitishning sifati ko'rsatkichida bilim hajmi darajalari mavjud emas. Bundan ko'rinadiki, rivojlantiruvchi o'qitish tizimi tomonidan bilimning zarur va keraklilari inkor etiladimi? Albatta yo'q, bu yerda e'tibor bilim soniga emas, shaxsning qanday bilim, malaka va ko'nikmalar, uslublari va boshqa sifatli jihatlarni egallaganiga qaratiladi. Axir bilim shaxsni rivojlanishiga hissa qo'shish va faqatgina o'qitish maqsadi bo'lib qolmasligi kerak.

Shunday qilib, o'quv faoliyati - subyekt faoliyatini o'zgartiruvchi, hech narsani bilmagandan biluvchiga bilim, malaka va ko'nikmalarni egallagan shaxsga aylantirishdir. Shuning uchun ham o'quv faoliyati o'z-o'zini o'zgartirish, o'zini namoyon etish faoliyati deb aniqlanishi mumkin va buning predmeti sifatida o'quvchilarning ijtimoiy tajriba orttirish orqali egallagan tajribalarini olish mumkin. Ijtimoiy tajribaning egallangan bo'lagi va bu avvalgi tajribani o'zgartirish hisobiga o'quv faoliyatining mahsulini tashkil etadi.

Xulosa. Bizning fikrimizcha, kognitiv faoliyat keng ko'lamli vazifalarni o'z ichiga oladi. Bu tanlagan mutaxassisligi bo'yicha bilim doirasini chuqurlashtirish va kengaytirishga yordam beradigan talabalarning turli xil o'quv va sinfdan tashqari faoliyatining ajralmas qismi bo'lishi mumkin. Biz, asosan, talabada shaxsning ijodiy fazilatlarini, o'rganilayotgan materialdan tashqariga chiqish ehtiyojlari va imkoniyatlarini, o'z-o'zini rivojlantirish va uzluksiz o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatini shakllantirish zarurligidan kelib chiqamiz. Umuman olganda, talabalar rivojlanishining eng muhim omili bo'lib xizmat qiladigan kognitiv faoliyat umumiy ufqni kengaytirish, intellektual darajani oshirish zarurati bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, faqat talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, biz ularning bilim faolligini samarali rivojlantira olamiz. Ikkinchisi kelajakda talabaning yuqori darajadagi mustaqilligi va javobgarligini ta'minlaydigan etakchi mexanizmlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Зимняя И.А. Педагогическая психология: уч. для студентов по пед. и психол. направ. и спец. — М.: Логос, 2000. — С. 384.
2. Павлова Л.Н. Содержание и организация самообразовательной деятельности по формированию субъективной активности студентов: Автореф. Дис .канд.пед.наук. - Красноярск, 2000. — С. 19
3. J.G.Yoldoshev Zamonaviy dars. Malaka oshirish; muammolar, izlanishlar, yechimlar. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOM.-T.; 2017 yil.
4. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma.-T.; 2013 yil.
5. S.I.Tursunova, Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kichik yoshdagi o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish. Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi, (matn).
6. Турсунова, С. (2022). Методика обучения русскому языку младших школьников // Общество и инновации, 3(8/S), 179-186.

Usmonova Surayyo Muhiddinovna
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

STRESSLI HOLATLARGA PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada stress holatida shaxs o'z o'zini boshqarish imkoniyatlari va stressli holatlardan chiqish yo'llari yoritib berilgan. Bundan tashqari pedagoglarda stressli holatlarga barqarorlikni shakllantirishining ijtimoiy-psixologik omillari hamda kasbiy stressni boshdan kechirish intensivligi professional va noprofessional stress omillarini kognitiv baholash. Individual psixologik xususiyatlar, shu jumladan shaxsiy fazilatlar, o'z-o'zini namoyon qilish omillari, motivatsion tuzilma bo'lajak pedagoglarning kasbiy stressining yengish usullari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: qobiliyat, zehn, bilish jarayoni, psixik xususiyat, tafakkur, tarbiya, Stress, shaxs, boshqarish, motivatsion.

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ К СТРЕССОВЫМ СИТУАЦИЯМ

Аннотация. В данной статье освещаются возможности самоконтроля личности в состоянии стресса и пути выхода из стрессовых ситуаций. Кроме социально-психологических факторов формирования устойчивости педагогов к стрессовым ситуациям, а также интенсивности переживания профессионального стресса, проводится когнитивная оценка профессиональных и непрофессиональных стрессоров. Выделены индивидуально-психологические особенности, в том числе личностные качества, факторы самовыражения, мотивационная структура способов преодоления профессионального стресса будущих педагогов.

Ключевые слова: способности, разум, познавательный процесс, психическая характеристика, мышление, воспитание, стресс, личность, контроль, мотивация.

FEATURES OF THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL STABILITY FOR STRESSFUL SITUATIONS

2018-yilda O'zbekiston Parij bitimini ratifikatsiya qildi va 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari emissiyasini 2010 -yilgi darajadan 10 foizga kamaytirish bo'yicha milliy majburiyat oldi. O'zbekiston Respublikasining 2019-2030-yillarga mo'ljallangan "yashil" iqtisodiyot (bioiqtisodiyot)ga o'tish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, O'zbekiston 2030-yilga borib elektr energiyasining umumiy ishlab chiqarish hajmida qayta tiklanadigan energiya ulushini 25 foizdan oshirishni maqsad qilgan[3]. Energiya samaradorligi ko'rsatkichini ikki barobar oshirish, yalpi ichki mahsulotni oshirish, butun aholi va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiyadan foydalanishni ta'minlash. Shunga qaramasdan, biyoresurslardan foydalanish darajasi hanuzgacha pastligicha qolmoqda. Raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak, bir yilda mamlakatning biyoresurslaridan foydalanish imkoniyatining atigi 19%dan foydalanib kelinmoqda. Biyoresurslar faqat qishloq xo'jaligining rivojlanishiga tasirini ko'rsatib qolmay, tibbiyot va sanoat, atrof-muhit uchun ham ahamiyatli va u tabiiy ekotizimlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi[4].

Yerning energiya resurslarini tejash, muqobil energiya manbalarini rivojlantirish va energiya samaradorligini oshirish, chiqindilardan samarali foydalanish va ularni qayta ishlash, biologik qayta tiklanadigan energiyani yaratish va rivojlantirish, qishloq xo'jaligi barqarorligini oshirish va shu kabi ko'plab masalalar yuzasidan bioiqtisodiyot tarmoqlari vujudga keldi. [1] Dunyo aholisining doimiy o'sib borishi sharoitida vujudga kelayotgan oziq-ovqat tanqisligi hamda ekologik muammolarni hal etish bioiqtisodiyot rivojlanishining asosiy omili bo'ldi. Bundan tashqari foydali qazilmalar, xom ashyo va energiya resurslarining cheklanganligi; atrof-muhitning ifloslanishi va atrof-muhitga zarar yetkazilishi; kosmik tadqiqotlarni jadallashtirish; to'rtinchi sanoat inqilobi, biotexnologiyaning fan sifatida jadal rivojlanishi, nanotexnologiya va nanotexnologiyaning paydo bo'lishi; texnologik rivojlanish sur'atlarini individual tezlashtirish kabi omillarni ham kiritish mumkin. [2] Bioiqtisodiyotni rivojlantirish asosan 2 yo'nalishda amalga oshiriladi 1- chiqindilarni qayta ishlash; 2 - tabiiy materiallarda tayyorlangan ekologik parchalanadigan bio mahsulotlar ishlab chiqarish.

Bio parchalanuvchi (Biodegradable) aslida nima? Bu biologik parchalanadigan plastmassalar - turli polimerlarning katta oilasi. Ular o'simlik xom-ashyosidan ishlab chiqariladi va tabiatga zarar yetkazmasdan zararsiz moddalarga parchalanadi. Ulardan ba'zilari tabiiy sharoitda, asosiy qismi esa kompostlash jarayonida parchalanadi. [4]

Biologik parchalanadigan tuvaklar asosan o'simliklardan olingan tolalardan, o'simlik ildizlaridan, oziq-ovqat chiqindilaridan, hayvonlar yungi va go'ngidan ishlab chiqarilishi mumkin. Biologik parchalanadigan tuvaklarni tayyorlashda ishlatiladigan ba'zi ekologik toza materiallarga yog'och, bambuk, barg xazonlari va qog'oz kiradi. [5]

Xulosa va takliflar. Mustaqillikka erishgandan so'ng, O'zbekiston Sovet Ittifoqidan chiqqan davlatlar orasida keng tarqalgan ishlab chiqarishning qisqarishi va deindustrializatsiyaning katta qismini chetlab o'tdi. 2015-yildan buyon mamlakatda iqtisodiyotni ochish, valyuta, sarmoya va savdodagi cheklovlarni jadal sur'atlarda olib tashlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi [23]. Garchi bu o'sish va investitsiyalarni keltirib chiqargan bo'lsa-da, bu o'sishni ta'minlash qiyinroq bo'ladi. Joriy o'sish omillari tugamoqda va O'zbekiston past qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tovarlar eksportiga bog'liq bo'lib qolmoqda, chunki narxlar o'zgarib turadi, tarmoqlar bo'yicha katta mahsuldorlik farqlari va bozor raqobatining yo'qligi. Bu kabi muammolarni chetlab o'tish uchun mamlakatda bioiqtisodiyotni joriy etishni tezlashtirish maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2030 йилгacha бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг атроф муҳитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ5863-сон (30.10.2019) фармони

2. Saydullaeva, F. (2023). Innovative Solutions to Increase Dietary Diversity of Rural Households. *American Journal of Agricultural Science, Engineering, and Technology*, 7(2), 16-20. <https://doi.org/10.54536/ajaset.v7i2.1552>.

3. N. Laibach, J. Börner, and S. Bröring, "Exploring the future of the bioeconomy: An expert-based scoping study examining key enabling technology fields with potential to foster the transition toward a bio-based economy," *Technol. Soc.*, vol. 58, p. 101118, 2019.

4. Лыжин Д.Н. Перспективы развития биоэкономики в условиях глобализации // Проблемы национальной стратегии. 2014. № 2(23). С.79-94 // [Электронный ресурс] URL: <https://riss.ru/images/pdf/journal> . (12.05.2019).

Smamutova Roza Xabibulla qizi
Xalqaro osiyo universiteti magistranti

QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'IDA IQTISODIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINI RIVOLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda qishloq xo'jaligi tarmog'ida iqtisodiy kooperatsiya munosabatlarini rivolantirishning ustuvor yo'nalishlari hamda qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida so'z boradi. Bundan tashari mamlakatimizning iqtisodiy rivojida, aholi bandligini ta'minlashda, qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishda kooperatsiyalarning rolini oshirishga doir xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, kooperativ, qishloq xo'jaligi kooperativi, sub'yekt, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, xorijiy seleksiya.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ОТНОШЕНИЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КООПЕРАЦИИ В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОМ СЕКТОРЕ

Аннотация. В данном исследовании речь идёт о приоритетных направлениях развития отношений экономической кооперации в сельскохозяйственной отрасли, а также о мерах по совершенствованию системы государственного управления в сельскохозяйственной сфере. Кроме того, разработаны выводы и рекомендации по повышению роли кооперативов в экономическом развитии нашей страны, обеспечении занятости населения, созданию цепочки добавленной стоимости в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: сельское хозяйство, кооператив, сельскохозяйственный кооператив, субъект, экономика сельского хозяйства, зарубежная селекция.

PRIORITIES FOR RIVALLING ECONOMIC COOPERATION RELATIONS IN THE AGRICULTURAL SECTOR

Abstract. In this study, the priority areas for the reproduction of economic cooperation relations in the agricultural sector and measures to improve the system of Public Administration in the agricultural sector will be discussed. From this, conclusions and recommendations have been developed to increase the role of cooperatives in the economic development of our country, in the provision of population employment, in the creation of a value added chain in agriculture.

Key words: agriculture, cooperative, agricultural cooperative, subject, agricultural economy, foreign selection.

Kirish. O'zbekiston prezidenti "Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni imzoladi.

Farmonga ko'ra, quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgilandi:

✓ qishlok xo'jaligini raqamlashtirish, qishloq xo'jaligi sub'yektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda bozor tamoyillarini joriy etish, ilg'or tajriba va fan yutuqlarini, zamonaviy resurs tejovchi va intensiv agrotexnologiyalarni joriy etishni nazarda tutuvchi qishlok xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

✓ qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotishda zamonaviy kooperatsiya munosabatlarini kengaytirish orqali qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining qo'shilgan qiymati zanjiri yaratilishini rag'batlantirish;

✓ agrobiznesning klaster modelini keng joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, klasterlash jarayonining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish;

✓ agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy barqarorligi, hosildorligi past yerlar unumdorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini oshirishga ko'maklashadigan qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish;

✓ keng ko'lamlı zamonaviy moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish va sifatli qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish imkoniyatini oshirish orqali qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni rag'batlantirish;

✓ qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini tayyorlash, foydalanish va eksport qilishning zamonaviy tizimini shakllantirish, mahalliy va xorijiy seleksiya navlari, shu jumladan biotexnologik navlarning birlamchi urug'chiligini tashkil etish va rivojlantirish;

✓ o'simliklarni himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, zararkunandalar va begona o'tlarga qarshi kurashish, agrokimyoviy xizmat ko'rsatish va tuproqni muhofaza qilish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

✓ ta'lim, fan va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tizimli asosda uzviy integratsiyalashuvini, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining yuqori malakali soha mutaxassislariga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlash.

✓ Vazirlik Iqtisodiyot va sanoat, Moliya vazirliklari bilan birgalikda xalqaro moliya institutlari ekspertlarini jalb qilgan holda don mahsulotlari narxlarini tartibga solishning bozor mexanizmlarini joriy etish bo'yicha takliflarni;

Suv xo'jaligi vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birgalikda xalqaro (xorijiy) moliya institutlari va maslahatchilarni jalb etgan holda 2019-2021 yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun foydalanilmayotgan yer maydonlarini o'zlashtirish qonsepsiyasi loyihasini kiritishi belgilab qo'yildi.

Asosiy qism. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi asosan fermer xo'jaliklari tomonidan ifodalanadi. Bir qator mamlakatlarda ushbu faoliyat sohasi 100% fermer xo'jaliklari tomonidan ta'minlanadi. Keng ma'noda samaradorlikni oshirish uchun fermer xo'jaliklari kooperativlarga birlashtiriladi. Hamkorlik iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashga yordam beradigan maxsus vositadir. Rossiya Federatsiyasida qishloq xo'jaligi kooperativi deganda o'z qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bo'yicha birgalikdagi faoliyat uchun tashkil etilgan kooperativ tushuniladi.

Kooperatsiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, qishloq xo'jaligi ob'ektlari o'z faoliyatini amalga oshiruvchi mustaqil elementlar bo'lib qoladi. Kooperativ fermer xo'jaliklarining huquq va manfaatlarini davlat oldida himoya qilishga yordam beradi. Qishloq xo'jaligi kooperativlari qishloq xo'jaligi korxonalarining eng yirik guruhini umuman tashkil etadi. Shunga ko'ra, qishloq xo'jaligi kooperativlarining roli o'z manfaatlarini himoya qilish sifatida belgilanishi kerak.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojida, aholi bandligini ta'minlashda, qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishda kooperatsiyalarning roli oshar ekan, biz kooperatsiya haqidagi bilimlarimizni va uning iqtisodiy ahamiyatini har bir qishloq xo'jaligida faoliyat olib boruvchi shaxs bilishi zarur deb hisoblaymiz.

Kooperatsiya (lot. cooperatio — hamkorlik, birgalikda ishlash) - bu o'z-o'zini tashkil etuvchi jamoadir, bunda kooperativ a'zolari - o'zlarining shaxsiy qiziqishlarini, kooperativ faoliyatini olib borishda va boshqarishda, hamda faoliyatning huquqiy masalalarini mustaqil hal qilishda namoyan etadilar.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi - qishloq xo'jaligining shunday bir tarmog'iki, u qishloq joylarda Davlatning bir qism sotsial - ijtimoiy vazifalarni bajaradi, ya'ni faol qishloq aholisiga ijtimoiy yordam berishda qatnashadi hamda

qishloq hududlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni amalga oshirish maqsadida tashkil etiladigan tashkilotdir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish kooperativi - bu fuqarolarning birlashmasi, uning asosiy vazifasi - ishlab chiqarish va u bilan bog'liq faoliyat-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish hisoblanadi.

Rivojlanishning hozirgi bosqichida kooperatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi birinchi navbatda - qashshoqlikka qarshi kurashish va o'z -o'zini mehnat bilan band qilish.

Qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi korxonalarini faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bozorda muayyan ulushni egallash va ushlab turish;
- sifatni oshirish;
- muayyan iqtisodiy afzalliklarga erishish,
- xizmat ko'rsatish darajasi yaxshilash,
- xarajatlarni kamaytirish;
- mavjud moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish evaziga samaradorligini oshirishni ta'minlash;
- sanoatning etakchi mavqeini egallash istagidagi texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish.

Hozirda kooperatsiya eng muhim kategoriya hisoblanadi iqtisodiyot va ishlab chiqarishni tashkil etishda u ko'p qirrali - mehnat, kapital, resurslar, vositalarning kooperatsiyasi, u ishlab chiqarishni tashkil etish va olib borishning deyarli barcha sohalariga, masalan, boshqaruv, sotish, ta'minot, xizmat ko'rsatish va boshqalarda faoliyat ko'rsatadi. Kooperatsiya barcha ijtimoiy tuzilmalarning markazida va nafaqat jismoniy shaxslarning "birlamchi" kooperativlari shaklidagi ixtiyoriy birlashmalarni qamrab oladi balki yuridik birlashmalar ham mavjud shaxslar, iqtisodiyotning turli tarmoqlari korxonalarida faoliyatini amalga oshiradi yoki birgalikdagi faoliyatning boshqa turlari vujudga keladi.

Kooperatsiya o'z-o'zini rivojlantiradigan tizim bo'lib, tashkil etish va boshqarishni aniq talab qiladi, chunki uning rivojlanishi xo'jalik yurituvchi subyektlar funksiyalarini kengaytirishga, faoliyatini diversifikatsiya qilishga, ishlab chiqarishning yangi sohalarini egallashga olib keladi va shuning uchun ma'lum darajada tovarlarni ishlab chiqarish va sotish monopoliyasiga olib kelishining oldini oladi.

Bugungi kundagi iqtisodiyotning globallashuvi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxining o'sishi agrar sohada kooperatsiya xususiyatlarining rivojlanishiga olib keladi:

- Ishlab chiqarish kooperatsiyasi - bu tadbirkorlik sub'ektlarini birlashtirish jarayoni bo'lib, ishtirokchilarga ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kontsentratsiyalash afzalliklaridan foydalanishga imkon beradi. Istalgan natijaga erishish (masalan, naslchilik, sut ishlab chiqarish korxonalarini) imkoniyatlari mavjud. Bu yerda kooperatsiya shunisi bilan xarakterlidirki bunda yagona ishlab chiqarish jarayonining alohida bo'g'inlari o'rtasidagi barqaror ishlab chiqarish va iqtisodiy aloqalar muhim hisoblanadi.

- kooperativ o'z shaklini boshqa shakllardan ajratib turadigan tadbirkorlik faoliyatini va belgilarni korxonaning tashkiliy va ishlab chiqarish-biznes jihatlarini bilan bog'liq holda ko'rishimiz mumkin.

kooperativ deb belgilasak uning birinchi belgisi - umumiy mulk kooperatsiyaning asosini tashkil etadi. Kooperativda korxonaning mulki va nazorati kimning qo'lida bo'lsa xizmatlaridan va natijasidan o'shalar foydalanadi. Tadbirkorlik faoliyatining boshqa shakllarida bunday munosabatlar mavjud emas. Bu shuni anglatadiki, kooperativ korxonaning asosiy maqsadi maksimal darajada foydani oshirish va uning barcha ishtirokchilarining manfaatlarini qondirishga intiladi.

- Haqiqiy kooperativ korxonaning ikkinchi belgisi xo'jalik operatsiyalarining tannarxga yondashuv bilan amalga oshirilishi va undan ortiq qismi daromadning a'zolari tomoniga qaytarilishidir.

Qishloq xo'jaligi kooperatsyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ixtiyoriylik asosida ishtirok etish;
- ishlab chiqarish va boshqa iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ishtirokchilarga imtiyozlar berish;
 - foyda va zararlarni kooperatsiya ishtirokchilari o'rtasida ularning hissalarini yoki umumiy natijalardagi ishtirokini hisobga olgan holda taqsimlash;
 - kooperativ faoliyatini demokratik asosda boshqarish tamoyillari (kooperativning bir a'zosi -bir ovoz);
 - yuqori hokimiyat tuzilmalarining bevosita ma'muriy aralashuvini istisno qilish (qonundan tashqari);
 - xo'jalik faoliyatini o'zini-o'zi ta'minlash va o'zini-o'zi moliyalashtirish asosida tashkil etish;
 - umumiy mulkni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, foydada ishtirok etish, dividendlar va foizlarni hisoblash orqali mulk va kapitalni to'plash orqali ishtirokchilar mehnatini rag'batlantirishni oshirish imkoniyatlarini amalga oshirish.
 - kooperatsiyadan ko'zlangan asosiy maqsad tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlari, yuqori sifatli ishlar va xizmatlar sotish hajmini kengaytirish asosida foyda olish, shuningdek, ishchilarning mehnat va ijtimoiy faolligining rivojlanishi, ularning moddiy farovonligining oshishi hisoblanadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini isloh qilish va bu sohada bozor mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda Mamlakatimiz Prezidentining 2019-yil 14- martdagi Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4239-son qarori qabul qilindi, bundan tashqari "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-121-son, 08.02.2022y.) qabul qilindi. Bu qarorga muvofiq kooperatsiya usulida go'sht va sut etishtirish va qayta ishlashni yo'lga qo'yish choralari belgilab berildi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni e'tirof etsak bo'ladiki, kooperatsiya - xodimlarning turmush darajasini oshirishni ta'minlaydi, ijtimoiy muammolarni hal etishga hissa qo'shadi, ishtirokchilarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi, qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga xizmat qiladi, qishloq joylarda eng muhim vazifalardan biri bo'lgan bandlikni ta'minlaydi. Uning sanoat bilan integratsiyasi mamlakat eksport salohiyatini oshiradi, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ichki va tashqi ehtiyojlar bozorini qoplashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-121-son qarori.

2. Ярославцев А.В., Ярославцева Т.А. Кооперация: понятие, виды, механизмы создания. Условия для эффективной деятельности потребительских обществ. - Методические рекомендации. Хабаровск, 201

3. Abdullayeva I.M. Qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning afzalliklari // "Ўзбекистон статистика ахборотномаси" илмий электрон журналі. 2021 йил, 2- сон.

4. Nuno Geada Change "Management in the Digital Economy: Model Proposal" // International Journal of Innovation in the Digital Economy (IJIDE) 11(3) 2020 DOI: 10.4018/IJIDE.2020070103

5. Малинин А.И. Инновационное развитие аграрной сферы экономики // Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. И.Я. Яковлева. 2013. № 3 (79). С. 81-86.

Safarov Zafar Bobirovich
Xalqaro osiyo universiteti magistranti

MILLIY IQTISODIYOT MUHITIDA MOLIYA BOZORINING TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tushunchalarni mohiyatini olimlar, ekspertlar tomonidan tortishuv(diskussiya)lar, ilmiy-nazariy tahlillar natijalari keltirilgan. Bundan tashqari milliy iqtisodiyot muhitida moliya bozorining rivojlanishi tendensiyalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Jahon moliya bozori, xalqaro moliya bozori, kapital akkumulyasiyasi, qayta taqsimot, qarz kapitali, qarz vositalari, iqtisodiy agentlar manfaati.

ВЛИЯНИЕ ФИНАНСОВОГО РЫНКА НА СРЕДУ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА

Аннотация. В данной статье представлены результаты дискуссионной работы, научно-теоретического анализа учеными, экспертами сущности экономических понятий в условиях рыночной экономики. Кроме того, освещены тенденции развития финансового рынка в условиях национальной экономики.

Ключевые слова: мировой финансовый рынок, Международный финансовый рынок, накопление капитала, перераспределение, заемный капитал, долговые инструменты, интересы экономических агентов.

INFLUENCE OF THE FINANCIAL MARKET IN THE ENVIRONMENT OF THE NATIONAL ECONOMY

Annotation. This article presents the essence of economic concepts in a market economy with the results of disputes(discussions), scientific and theoretical analysis by scientists, experts. In addition, trends in the development of the financial market in the environment of the national economy are highlighted.

Key words: World Financial Market, international financial market, capital accumulation, redistribution, debt capital, debt instruments, interest of economic agents.

Kirish. Jahonda investisiya faoliyatini tashkil etish bo'yicha moliyaviy axborotlarni shakllantirish va tahlil qilish mezonlari xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu mezon talablari asosida davlat milliy kompaniyalarining boshqaruv tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq, hozirgi global pandemiya sharoiti dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining inqirozga yuz tutish ehtimolini keskin oshirmoqda. Jumladan, Yevropa Ittifoqi iqtisodchi olimlari va ekspertlari, "iqtisodiy inqirozning "Talafot davri"da hamda iqtisodiy o'sish sur'atlari keskin pasayishi yuz berganda, iqtisodiy faoliyatni tiklashga eng katta hissa qo'shuvchi omil, bu - investisiyalar ekanligini ta'kidlamogdalar"[1]. Bunday sharoitda korxonalar investisiya faoliyatini tahlilini amalga oshirish asosida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning ahamiyati ortib bormoqda.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan milliy hamda xorijiy korxonalarining investisiya faoliyatini natijalari aks etgan hisobotlari xalqaro standartlar darajasida, haqqoniy va shaffofligi ta'minlangan holda shakllantirilmoqda. Bu mamlakatimizda biznes yuritish muhitini yaxshilash bilan birga, tadbirkorlar manfaatini ham oshirmoqda. Xususan, BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) tomonidan har yili e'lon qilinadigan "Raqobatbardosh sanoat unumdorligi" indeksining 2020 yilgi hisobotida mamlakatimiz ilk bor aks ettirilib, "0,017 ball bilan 152 ta mamlakat orasida 92-o'rinni, MDH mamlakatlari orasida 5-o'rinni, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 2-o'rinni egallagani qayd etildi"[4]. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalish sifatida "mamlakatda investisiya muhitini yanada

yaxshilash, to'g'ridan-to'g'ri investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish, investorlarning bu boradagi davlat siyosatining izchilligiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va investorlar bilan ishlashda davlat tuzilmalarining mas'uliyatini oshirish"[6], "investisiya loyihalarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va ish joylarini yaratish, infratuzilmani takomillashtirish hamda hududlarni obodonlashtirish va xalq farovonligi darajasini oshirish"[5] vazifalari qo'yildi. Bular xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan investisiya faoliyatini samarali yuritish bo'yicha strategik rejalashtirish va tahlilini yuritish vazifalarini belgilab berdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Investisiya faoliyatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, ularga baho berish asosida tegishli xulosalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Investisiya samaradorligi borasidagi tadqiqotlar umumiy-iqtisodiy muammo sifatida mamlakatimizning qator nazariyotchi va amaliyotchi olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, A.Abdug'aniyev fikricha, «Iqtisod fanlarida "samaradorlik" va "iqtisodiy samaradorlik" tushunchalari - mavjud. Ular mamlakat, tarmoq, korxonalar, yo'nalishlar hamda ayrim mahsulotlar bo'yicha aniqlanishi mumkin[3]. Iqtisodchi olim I.Q.Rajabov fikricha, "Samaradorlik tushunchasi bu ishlab chiqarish jarayoni pirovard natijalarini o'zida aks ettiruvchi iqtisodiy ko'rsatkich sifatida tushunilishi lozim. Iqtisodiy samaradorlik mohiyati nafaqat ishlab chiqarish natijalari va xarajatlar o'rtasidagi arifmetik raqamlar bilan, balki foydali natijalarga erishish yo'lida xarajatlar miqdorini kamaytirish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish, taqsimot va ayirboshlash munosabatlari orqali ifodalanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi xarajatlar va natijalar o'rtasidagi arifmetik nisbatgina bo'lmasdan, balki ishlab chiqarish munosabatlarini aks ettiruvchi iqtisodiy atama" hisoblanadi[4].

Investisiya fondlarining investisiya aktivlarini boshqarish bo'yicha faoliyat deganda, ushbu modda va qonun hujjatlari bilan belgilangan faoliyatning talablariga javob beradigan boshqaruvchi kompaniyaning faoliyati tushuniladi. Investisiya fondlarining investisiya aktivlarini boshqarish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs investisiya fondlarining boshqaruvchi kompaniyasi deb nomlanadi. Investisiya fondlarini boshqaruvchi kompaniya investisiya fondlarining investisiya aktivlarini boshqarish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, shuningdek qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchi qimmatli qog'ozlar bozorining professional katnashchisi xisoblanadi.

Investisiya fondlarini boshqaruvchi kompaniya qonunchilikka muvofiq tuzilgan va investisiya fondning topshirig'i bilan va uning nomidan unga berilgan qimmatli qog'ozlarni; qimmatli qog'ozlarga investisiyalashga mo'ljallangan pul mablag'lari; qimmatli qog'ozlarni boshqarish jarayonida qo'lga kiritilgan pul mablag'larini ishonchli boshqaruvni; investisiya fondning qimmatli qog'ozlari portfelini tuzishni va bu portfelni diversifikatsiya qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni; shuningdek fond bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq investisiya fondning egasi vazifasini amalga oshiruvchi istalgan mulkchilik shaklidagi yuridik shaxs xisoblanadi. Ko'rsatilgan operatsiyalar investisiya fondlarini boshqaruvchi kompaniya faoliyatining mutlaq turlari xisoblanadi.

Boshqaruvchi kompaniyaning ta'sischilari yuridik va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin, davlat xokimiyati va boshqaruv organlari, shuningdek ular tomonidan ta'sis kilingan ustav fondning 25 foizdan ortigini davlat ulushi tashkil etuvchi korxonalar bundan mustasno. Investisiya fondlarining boshqaruvchi kompaniyasi depozitariy, davlat boshqaruv organi, notijorat tashkiloti, shuningdek affillangan shaxs (shaxslar) tomonidan tuzilgan korxonalar bo'lishi mumkin emas. Investisiya fondlarini boshqaruvchi kompaniya ustavida investisiya fondlarining aktivlarini boshqarish uning mutlaq faoliyat turi hisoblanishi to'g'risidagi holat mavjud bo'lishi shart. Qimmatli qog'ozlarni saqlash, qimmatli qog'ozlar bo'yicha xuquqlarni xisobga olish va tasdiqlash bo'yicha xizmatlar depozitar faoliyat hisoblanadi.

Depozitar faoliyatni amalga oshiruvchi kimmatli qog'ozlar bozorining professional katnashchisi depozitariy deb nomlanadi. Fakat yuridik shaxsgina depozitariy bulishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlarni saqlash, qimmatli qog'ozlar bo'yicha xuquqlarni xisobga olish va tasdiqlash bo'yicha depozitariy xizmatlaridan foydalanadigan shaxs deponent xisoblanadi. Depozitariy va deponent o'rtasidagi munosabatlar tegishli shartnoma bilan tartibga solinadi. Depozitar shartnoma – depozitariy bilan deponent o'rtasida yozma shaklda tuziladigan, qimmatli qog'ozlarni saqlash va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turuvchi shartnoma.

Moliya bozorlarida davlat moliya institutlarining faoliyati va roli

Davlat moliya institutlari faoliyatining maqsadi, vazifalari, funksiyasi, faoliyat mexanizmi, hossa va xususiyatlari evaziga moliya bozori tarkibida alohida segment – davlat kapitali va hizmatlari bozori faoliyat yuritadi va rivojlanadi. Bunda ular kredit-pul, byudjet-soliq, investisiya, emissiya siyosatlarini yurituvchi, demak davlatning moliyaviy instrumentlari va resurslari bilan bog'liq operatsiyalar institutlari va davlat regulyatori, davlatning moliyaviy resurslari va instrumentlari akkumulyatori va mos ravishda yirik investisiyalar manbai, institusional investor, professional emitent va vositachi sifatida namoyon bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, davlatning bo'nday moliya institutlari banklar, sug'urta kompaniyalari va investisiya institutlari bilan birga moliya bozorining professional, o'ta zarur, foydali va eng salmoqli na faqat qatnashchilaridan, balki regulyatori hisoblanadi.

Moliya bozorida davlat o'zining qimmatli qog'ozlari emitenti va zarur ob'yektlarni moliyalashtiruvchi sifatida quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- joriy byudjet defisitini (kamamadini) moliyalashtirish;
- avval chiqarilgan qarz majburiyatlarini so'ndirish;
- davlat byudjetining kassa ijrosini ta'minlash;
- soliq to'lovlarining notekis tushumini tekislash;
- tijorat banklarini likvid rezerv aktivlar bilan ta'minlash;
- davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshirilayotgan maqsadli loyiha dasturlarini moliyalashtirish;
- ijtimoiy ahamiyatga ega tashkilot va muassasalarni qo'llabquvvatlash va h.k.

Umuman olganda, davlat o'z harajatlarini moliya bozori orqali quyidagi uch usul bilan moliyalashtirishi mumkin: soliq tushumlarini oshirish, aholidan qarz mablag'larini jalb qilish, qo'shimcha pul chiqarish (inflyasiya havfini hisobga olgan holda).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ваҳобов А., Маликов Т. Молия: дарслик. – Т.: Ношир, 2011. – 712 б. 2. Финансы: учебник для бакалавров / Под ред. М. В. Романовского, О. В. Врублевской. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2012. – 590 с. 3. Маликов Т., Тилабов Н. Молия: тест (савол-жавоблар). –Т.: Академнаср, 2013. – 448 б.

2. Маликов Т., Жалилов П. Бюджет-солиқ сиёсати, ўқув қўлланма, Т.: 2011 й. 10. Маликов Т., Хайдаров Н., “Давлат бюджети” ўқув қўлланма, Тошкент: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007 й., 84 б.

3. Маликов Т., Хайдаров Н., “Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни” ўқув қўлланма, Тошкент “IQTISOD-MOLIYA”, 2008 й., 84 б.

4. Бажанов С.В. Интеграция российского и международного финансового рынка. Автореферат диссертации на соискание степени доктора экономических наук. – СПб.: СПбГУЭФ, 2006.

5. А. Ваҳобов, Н.Жумаев ва У.Бурхонов. Халқаро молия муносабатлар, Дарслик. Шарқ Тошкент -2003 20 ва 28 бет.

6. Ж.Х. Атанязов, Э.Д.Алимардонов. Халқаро молия муносабатлари»Тошкент - 2014.ЎФМЖ., Дарслик 279, 280 ва 281 бетлар.

Karshiyev Akbar Muxiddinovich
Xalqaro osiyo universiteti magistranti

MILLIY IQTISODIYOTDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirishning zamonaviy muammolari va yechimlari, milliy iqtisodiyot, moddiy ishlab chiqarish sohasini intensiv rivojlantirish va Milliy iqtisodiyot va iqtisodiy taraqqiyot muammolarini hal etishning, uzluksiz yuksaltirishning bosh yo'li ekanligi, o'rganilgan. Shuningdek hukumat va kompaniyalar tomonidan mehnat unumdorligini oshirishning bir qancha usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, aholi daromadi, yashash minimumi, kasb-hunar ta'limi, tadbirkorlikka o'rgatish, mahsulot hajmi, sarf-harajatlar, omillar, mehnat unumdorligi.

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В НАРОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные проблемы и решения повышения производительности труда в народном хозяйстве, интенсивного развития сферы народного хозяйства, материального производства и как главный путь решения проблем народного хозяйства и экономического развития, непрерывного их повышения. Он также упоминает несколько способов повышения производительности труда со стороны правительства и компаний.

Ключевые слова: рынок труда, доходы населения, прожиточный минимум, профессиональное образование, обучение предпринимательству, объем выпускаемой продукции, затраты, факторы, производительность труда.

MODERN PROBLEMS AND SOLUTIONS TO INCREASING LABOR PRODUCTIVITY IN THE NATIONAL ECONOMY

Annotation. This article explores the modern problems and solutions of increasing labor productivity in the national economy, the fact that the national economy, intensive development of the sphere of material production and solving the problems of the national economy and economic development, is the main way of continuous promotion. There are also several ways to increase labor productivity by the government and companies.

Key words: labor market, population income, subsistence minimum, vocational education, entrepreneurship training, product size, spending, factors, labor productivity.

Kirish. O'zbekistonda mehnat bozori siyosati va mehnatga haq to'lash siyosatini takomillashtirishsiz bugungi kunda kambag'allik muammosini samarali hal etib bo'lmaydi. Aholiga manzilli ijtimoiy yordam dasturlarini ishlab chiqish zarurligini e'tirof etgan holda shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi sharoitda ushbu dasturlar ko'p jihatdan mehnatga layoqatli aholining aksariyat qismidagi yuqori darajadagi kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan. Agar davlat tomonidan belgilangan siyosati aholi bandligini oshirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga va mavjudlarini saqlab qolishning tashkiliy-moliyaviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, kambag'allik darajasini real pasaytirishga erishiladi. O'zbekistonda kambag'allik uzoq yillardan beri "yopiq mavzu" bo'lib kelgan. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida bu borada ochiq to'xtalib, mamlakat tarixida birinchi marta kambag'allikni kamaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 18-fevraldagi farmoni va qaroriga muvofiq, ijtimoiy himoyaga

muhtoj va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, aholini tadbirkorlik faoliyatiga samarali jalb etish maqsadida Mahalla va oilalarni qo'llabquvvatlash vazirligi tashkil etildi.

Milliy ehtiyojlarni yaxshiroq qondirish zarurati iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni, tovarlar va xizmatlarning ijtimoiy zarur maksimal hajmlariga erishishni taqozo etadi. Ayniqsa, ijtimoiy zarur mahsulot (tovar) ishlab chiqarish, uni zarur miqdorlarda va sifatlarda, tabiatni asrab-avaylab, ekologiyani yaxshilab ishlab chiqarish har qanday Milliy iqtisodiyotning asosiy qonunidir. Milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o'rtasida maqsadga muvofiq nisbati ta'minlanishining, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning va ko'rsatiladigan xizmatlarning mumkin qadar ijtimoiy zarur yuqori hajmlarda bo'lishining muhim sharti fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirish, zamonaviy va samarali texnologiyalarni qo'llash, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ishlashni xohlovchi barcha mehnatga qobil kishilarning ish bilan ta'minlanishiga erishishdir. Birinchi navbatda, moddiy ishlab chiqarish sohasini intensiv rivojlantirish, mahsulot hajmini, ayniqsa, sof mahsulot hajmini sarf-harajatlarning va aholining o'sishiga nisbatan tezroq o'stirish Milliy iqtisodiyot va iqtisodiy taraqqiyot muammolarini hal etishning, uni uzluksiz yuksaltirishning bosh yo'lidir. Bundan tashqari, Milliy iqtisodiyotning sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa tarmoqlari ichida hamda shu tarmoqlar o'rtasida barqaror, o'suvchan tarkibiy o'zgarishlar va maqsadga muvofiq nisbatlar, mutanosibliklar bo'lishi muhimdir. Fuqaroviy va harbiy ishlab chiqarishlar nisbati ham to'g'ri, me'yorida bo'lishi kerak. Ishlab chiqarilayotgan tovarlarning va ko'rsatilayotgan xizmatlarning asosiy qismi, birinchi navbatda, ichki bozor talab-ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilishi, eng avvalo ichki bozorni sifatli va arzon milliy tovarlar bilan to'yintirish (to'ldirish) maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga tashqi iqtisodiy aloqalarni har tomonlama kengaytirish, jahon iqtisodiyotiga tobora qo'shilib borish, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish obyektiv zaruratdir, xo'jalik yurituvchi subyektlarga, aholiga soliq yukini yengillatish, davlat byudjetini va undan qilinadigan sarf-harajatlarni optimallashtirish, inflyasiyani jilovlash kabilar Milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga jiddiy va ijobiy ta'sir etadi.

Milliy iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirish omillariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, mehnat unumdorligi mamlakat iqtisodiyotining soatlik ishlab chiqarish hajmini o'lchaydi. Xususan, u bir soatlik ish kuchi bilan ishlab chiqarilgan real yalpi ichki mahsulot (YaIM) miqdorini jadvalga kiritadi. Mehnat unumdorligining o'sishi uchta asosiy omilga bog'liq: tejash va jismoniy kapitalga, yangi texnologiyalarga va inson kapitaliga investitsiyalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida unumdorlikni sotilgan mahsulot hajmi bo'yicha hisoblash ancha muhimroqdir, chunki tugallanmagan ishlab chiqarishning ko'payishi va sotilmagan mahsulot qoldiqlarining to'planib qolishi ijobiy iqtisodiy ahamiyatga ega emas. Mehnat unumdorligi darajasi va uning dinamikasiga ko'pgina omillar ta'sir qiladi. Omillar deb, mehnat unumdorligining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan xarakatlantiruvchi kuchlar va sabablarga aytiladi. Ularning ayrimlari mehnat unumdorligining ortishiga yordam bersa, boshqalari unumdorlikning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin: Omillarning birinchi guruhiga mehnat unumdorligi kuchining ortishi, mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etishning, mehnatkashlar ijtimoiy sharoitining yaxshilanishi, ikkichi guruhga tabiiy sharoitlarning noqulay tasir etishi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi kamchiliklar, ijtimoiy sharoitdagi salbiy elementlarning yomon tasiri kiradi.

Hukumat va kompaniyalar tomonidan mehnat unumdorligini oshirishning bir qancha usullari mavjud.

- Jismoniy kapitalga investitsiyalar: Hukumat va xususiy sektor tomonidan infratuzilma, shu jumladan kapital mahsulotlarga investitsiyalarni ko'paytirish, ish yuritish narxini pasaytirish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

• Ta'lim va o'qitish sifati: Ishchilarga o'z malakalarini oshirish imkoniyatlarini taqdim etish va arzon narxlarda ta'lim va o'qitish, korporatsiya va iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

• Texnologik taraqqiyot:

Yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, shu jumladan kompyuterlashtirish yoki robotlashtirish kabi qattiq texnologiyalar va biznesni tashkil etishning yangi usullari kabi yumshoq texnologiyalar yoki davlat siyosatidagi erkin bozor islohotlari ishchilar samaradorligini oshirishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mehnat unumdorligining o'sishi to'g'ridan-to'g'ri jismoniy kapital, yangi texnologiyalar va inson kapitalining o'zgarishi bilan bog'liq. Agar mehnat unumdorligi o'sayotgan bo'lsa, uni odatda ushbu uch sohadan birining o'sishi bilan izlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov Q.H, Holmo'minov Sh.R. «Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi». Toshkent-2004

2. Abdurahmonov Q.H., Bozorov N., Volgin N. va boshqalar. «Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi». Toshkent: «O'qituvchi»-2001

3. Tuxliyev N.T., Taksanov A., Natsionalnaya ekonomicheskaya model O'zbekistana, T., 2000.

4. Makkonnel K.R., Bryu S . L ., Ekonomiks: Prinsipi, problemi i politika. V 2 t. Per.s angl. t. 1., 1993

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/>. 2021-yil.

6. Xalqimizga baliq emas, qarmoq berishimiz kerak - Prezident <https://kun.uz/news.27.02.2020-yil>

Mundarija /Содержание/Contents

PSIXOLOGIYA	
3	Nazarov Akmal Mardonovich Yoshlarda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish psixologik mexanizmlari
8	Ahmedov Farhod Furqatovich Ichki ishlar xodimlarida ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosi
12	Jumayev Nodir Zayniddinovich O'quvchilarda intellektual taraqqiyotning psixologik mexanizmlari
17	Miraxmetova Laziza Farruxovna Talabalarda tafakkurni tadqiq etishning sixodiagnostik determinantlari
22	Miralimov Mirjamol Yuldashevich Jinoyat motivlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar
29	Rustamov Shavkat Shuxrat o'gli, Dehqonboyev Shohjahon Oybek og'li Sud psixologik ekspertizasini tashkil qilish va o'tkazishning innovatsion va ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish
PEDAGOGIKA	
34	Абилова Гавхар Уринбековна Педагогические возможности информационной образовательной среды при организации вебинаров
39	Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich Informatika o'qituvchilarida pedagogik kompetentlik omillari
43	Arzimbetov Tileubergen Tilebergenov O'smirlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalashning pedagogik aspektlari
47	Sharopov Mirjon Nurxon o'g'li Talabalarni axborot ta'lim muhitida texnik ijodkorlik faoliyatining pedagogik xususiyatlari
52	Sharifova Mahliyo Zarif qizi Talabalarda o'z ustida mustaqil ishlash faoliyatini shakllantirishning pedagogik aspektlari
57	Usmonova Surayyo Muhiddinovna Stressli holatlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish xususiyatlari
61	Tilavov Muxtor Xasan o'g'li Psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari
67	Бахронов Аббос Фахриддин ўғли Педагогические особенности развития личностных качеств борцов в подростковом возрасте и формирования здорового образа жизни
IQTISOD	
73	Qurbonov Temur Panjiyevich O'zbekistonda bioiqtisodiyotni rivojlantirishning ekologiyaga ta'siri
76	Smamutova Roza Xabibulla qizi Qishloq xo'jaligi tarmog'ida iqtisodiy kooperatsiya munosabatlarini rivolantirishning ustuvor yo'nalishlari
80	Safarov Zafar Bobirovich Milliy iqtisodiyot muhitida moliya bozorining ta'siri
83	Karshiyev Akbar Muxiddinovich Milliy iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirishning zamonaviy muammolari va yechimlari